

Urganch Davlat Universiteti

Pedagogika fakulteti «Musiqiy ta'lim» kafedrası

O`ZBEK BASTAKORLARI IJODI»

fanidan ma'ruzalar matnlari

Tuzuvchilar:

Urganch Davlat Universiteti «Musiqiy ta'lim»

**kafedrası dots v/b B. Rahimov
va o`qituvchi H. Jumaniyozov**

Urganch-2007

Fanning ahamiyati, maqsadi va vazifalari.

O`zbek musiqa san'ati asrlar osha o`zbek halqi tomonidan ulug` ma'naviy qadriyat sifatida ardoqlab kelingan. U yillar osha og`zaki uslubda shakllanib, ustoz-shogird an'anasida avloddan-avlodlarga o`tiib kelgan, xalq orasidan ajoyib bastakorlar, ijrochilar etishib chiqqan. O`zbek musiqa ijodkorligi asosan bastakorlik uslubida shakllanib kelgan. Hozirgi davrga kelib esa o`zbek musiqa san'atida Evropa musiqa nazariyasiga asoslangan kompozitorlik uslubi ham keng rivojlandi va bu uslubda o`zbek kompozitor - bastakorlari ham ko`plab musiqa durdonalarini yaratmoqdalar.

Kompozitorlarning asosiy ijod manbai bu xalq musiqasidir. O`zbek bastakor - kompozitorlari ana shu cheksiz manbadan foydalanib musiqa san'atining turli janrlarida ijod qilmoqdalar.

«O`zbek bastakorlari ijodi» fanining asosiy vazifasi va maqsadi talabalarga o`zbek kompozitorlari bastakorlari hayoti va ijodi haqida to`liq ma'lumot berishdir.

O`zbek bastakorlari uyushmasining ish faoliyati tarixi

Reja:

- 1.O`zbekiston bastakorlar uyushmasining 1938-50 yillar ish faoliyati.
- 2.O`zbekiston bastakorlar uyushmasining 1950-60 yillar ish faoliyati.
- 3.O`zbekiston bastakorlar uyushmasining 1960-70 yillar ish faoliyati.
- 4.O`zbekiston bastakorlar uyushmasining 1970-80 yillar ish faoliyati.
- 5.O`zbekiston bastakorlar uyushmasining 1980-90 yillar ish faoliyati.
- 6.O`zbekiston bastakorlar uyushmasining 1990-2000 yillar ish faoliyati.

O`zbekiston Bastakorlar uyushmasi (dastlabki nomi «O`zbekiston kompozitorlar soyuzi») O`zbekiston Xalq Komissarlari kengashining 1938 yil № 203 - r qaroriga binoan tashkil topgan. Respublikada faoliyat ko`rsatayotgan kompozitor va musiqashunoslarni g`oyaviy va ijodiy birlashtirish maqsadida O`zbekiston xalq artisti, atoqli kompozitor va dirigor Tolibjon Sodiqovga uyushmani tuzish uchun rasman vakolat berildi. Respublika hukumatining xalq Komissarlari 1940 yil 21 fevral № 258 - qaroriga binoan O`zbekiston bastakorlar uyushmasi 1 s`ezdini 1941 yil oktabr oyida o`tkazish belgilandi hamda uning a`zolari tasdiqlandi: Tolibjon Sodiqov—rais, Muxtor Ashrafiy - rais o`rinbosari, Karim Abdullaev - mas`ul kotib, To`htasin Jalilov, YUnus Rajabiy, Nikolay Mironov, Aleksey Kozlovskiy, Elena Romanovskaya, Mutal Burhonov, Viktor Uspenskiy, SHarif Ramazonov, Imomjon Ikromov, Matyusup Xarratovlar - hay`at azolari qilib saylandilar. K. Abdullaev o`z arizasiga ko`ra mas`ul kotib vazifasidan ozod etilgach, o`rniga musiqashunos E. E. Romanovskaya saylandi.

Sobiq ittifoq hukumati qaroriga asosan 1939 yili «Kompozitorlar uyushmasi» va «Musika fondi» ta`sis komiteti tashkil etilgan edi. Hay`at raisi vazifasiga atoqli kompozitor va musiqashunos, akademik Boris Vladimirovich Asafev (adabiy taxallusi Igor` Glebov (1884 - 1949) tayinlandi. Uyushmaning birinchi tashkiliy qurultoyini o`tkazish 1941 yil noyabr oyiga belgilandi. Mazkur tashkilot tarkibiga boshqa respublikalar uyushmalari qatori O`zbekiston Bastakorlar uyushmasi ham kiritildi va «O`zbekiston musiqa fondi bo`limi» tashkil topdi. TSintsadze – direktor, Kolesnichenko bosh hisobchi etib tayinlandilar.

1941 yil 22 iyunida boshlangan Ikkinchi Jahon urushi mazkur ijodiy uyushma qurultoylarini o`tkazishga imkoniyat bermadi. Urush yillari O`zbekiston kompozitorlar uyushmasi va uning «Musika fondi» jangovar shtabga aylandi. Ayrim sanatkorlar qo`llariga qurol olib jang maydonlariga otlandilar, qolganlari esa adabiyot va sanatning rivojlanish jarayonida faol mehnat va ijod qildilar. Bastakor va kompozitorlar, shoir va dramaturglar bilan hamkorlikda musiqaning barcha shakl va janrlarida ijod qilib, yangi - yangi musiqiy va sahna asarlar yaratdilar. Bu jarayonda, yuqorida tilga olingan hay`at a`zolari bilan birgalikda K. Jabborov, F. Sodiqov, S. Kalonov, N. Hasanov, P. Rahimov, M. Niyozov, Nishonov, M. Salimov, O. Toshmatov (Orif garmon), K. Mansurov, M. Murtazaev, A. Allaberganov kabi bastakorlar va 1941 yilning iyun oyida Toshkent davlat konservatoriyasining ilk bitiruvchilari I. Akbarov, B. Gienko, V. Meyen, I. Hamzin (urushda halok bo`lgan) hamda konservatoriya pedagoglaridan

G. Mushel, B. Nadejdin, YAn Pekker va yuqori kurs kompozitor - talabalari urush mavzusiga bag'ishlangan asarlar yarata boshlashdi. Bu ijodiy jarayonga Moskva va Leningrad, shuningdek, Belorusiyadan vaqtincha ko'chib kelgan taniqli kompozitorlardan B. Arapov, S. Vasilenko, V. Voloshinov, L. Revutskiy, O. CHishko, YU. Tyulin, M. SHteynberg, N. Boguslavskiy, G. Taranov va Leningrad konservatoriyasining professor, pedagog va talabalari ham qo'shildilar.

1948 yil 11 - 14 oktabrda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining 1 qurultoyi bo'ldi. T. Sodiqov hisobot ma'ruzasida respublikamiz musiqa madaniyatining rivojlanishidagi yutuq va muammolariga to'xtab o'tdi. Qurultoy dasturida kompozitorlarning musiqali spektakllari, turli janrlarda yaratilgan musiqali asarlari yangradi. Qurultoyda uyushmaning hay'at azolari, rais lavozimiga kompozitor Sobir Boboev, rais o'rinbosari lavozimiga B. Gienko, taftish komissiyasi a'zolari va uning raisi etib I. Akbarov, «O'zbekiston musiqa fondi» hay'at a'zolari, uning raisi etib V. Meyen saylandi. Direktor vazifasiga R. Gisin tasdiqlandi.

SHuni aytib o'tish joizki, 1945 - 59 yillarda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi safiga konservatoriyaning bitirgan 27 nafar yosh kompozitorlardan quyidagilar: I. Hamroev, G'. Qodirov, G. Sobitov, Pak Endin, I. Akbarov, G. Zubatov, V. Knyazev, H. Izomov, D. Zokirov, S. Boboev, D. Soatqulov, S. Abramova, A. Berlin, H. Rahimov, S. Varelas, A. Muhamedov, V. Zudov, F. Nazarov, O. Salimov, YU. Nikolaev, A. Malaxov, F. YAnov - YAnovskiyalar va konservatoriyaning bitirgan 54 nafar yosh musiqashunoslardan I. Dulgarova, YU. Kon, K. Alimbaeva, F. Karomatov, M. Kovbas, A. Asinovskaya, T. Solomonova, T. Adambaeva, T. Golovyants, T. Jumaev, M. Ahmedov va N. YAnov - YAnovskiyalar qabul qilindi.

1955 yilning 10 - 16 dekabrda O'zbekiston Bastakorlar uyush - masining II qurultoyi bo'lib o'tdi. Uning dasturida uchta simfonik kontsert, bitta o'zbek xalq cholg'ulari orkestri kontserti, kamer kontsert, xor kontserti hamda G. Mushelning «Raqqosa» baleti, T. Sodiqov va R. Glierning «Gulsara» operasi, T. Jalilov va G. Mushellarning «Muqimiy» musiqali dramalari namoyish etildi. S. Boboev «O'zbekiston musiqa madaniyatining rivojlanish jarayoni, muammolari va san'atkorlarning vazifasi» mavzuida ma'ruza qildi. Minbarga chiqqanlar kontsert dasturlariga kiritilgan asarlarning yutuq va kamchiliklari, musiqani targ'ibot qilishdagi muammolar to'g'risida o'z fikr va mulohazalarini bayon qildilar. Hay'at raisi lavozimiga Mutal Burhonov, uning o'riibosari etib B. Gienko, mas'ul kotib etib M. Aliev, taftish hay'ati raisi etib I. N. Karelova saylandilar. «O'zbekiston musiqa fondi» raisi vazifasiga V. A. Meyen, direktori etib L. R. Gisin tasdiqlandi.

1960 yilning 8-14 iyunida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining SH - chi qurultoyi bo'ldi. Uning kontsert dasturida kompozitorlarning turli shakl va janrlarda yaratgan yangi musiqiy asarlari 7 ta kontsertda namoyish qilindi, shuningdek, quyidagi spektakl va kinofilmlar delegat va mehmonlar e'tiboriga havola etildi: S. YUdakovning «Maysaraning ishi» operasi, T. Jalilov va G. Sobitovlarning «Nurxon» musiqali dramasi, I. Akbarov musiqasi bilan «Ikkinchi gulshan» va M. Leviev musiqasi bilan «Mahallada duv-duv gap» («Syurpriz»)

badiiy kinofilmlari ko`rsatildi. M. Burhonov «O`zbekiston musikqa san'atining rivojlanish jarayoni va san'atkorlarning vazifalari» mavzuida ma'ruza qildi. U respublikaning musiqiy hayotidagi yutuq va kamchiliklarga, hamda echilmagan muammolariga to'htalib o'tdi. SHu bilan birga kompozitorlarning ijodiy faoliyatidagi jiddiy nuqsonlar tanqid ostiga olindi. Taftish hay'ati raisi I. N. Karelova o'z ma'ruzasida M. Burhonov so'zlarini tasdiqladi. Qurultoy kun tartibi haqida qaror qabul qildi va tashkiliy masalani ko'rib chikdi. O`zbekiston Bastakorlar uyushmasining hay'at raisi lavozimiga Sobir Boboev, uning o`rinbosari etib Rahimov, mas'ul kotib A. A. Berlin, taftish hay'at raisi lavozimiga I. N. Karelovalar saylandilar.

«O`zbekiston musiqa fondi» hay'at azolari va uning raisi etib I. Akbarov saylandi. Fond direktorligiga L. R. Gisin tasdiqlandi.

1962 yilning 13 - 18 fevralida O`zbekiston Bastakorlar uyushmasining navbatdan tashqari bo`lib o'tgan IV s'ezdida S. Boboev va D. B. Kabalevskiylar maruza qilishdilar. S'ezd kontsert dasturida turli janrlarda yaratilgan musiqiy va sahna asarlar namoyish qilindi.

1965 yilning 7 - 15 martida O`zbekiston Bastakorlar uyushmasining V s'ezdi bo'ldi. S'ezd dasturida turli janrlarda yaratilgan asarlar, jumladan S. Boboevning «Hamza», M. Ashrafiyning «SHoir qalbi», M. YUsupovning «Xorazm qo`shig`i» va R. Hamroevning «Zulmatdan ziyo» operalari, G. Mushelning «Kashmir afsonasi» baleti, M. Levievning «Toshbolta oshiq», S. Boboevning «Ikki bilaguzuk» va A. Muhamedovning «Jon qizlar» musiqali komediyalari, Hamid Rahimovning «Ishqing bilan» musiqali dramasi namoyish qilindi. Hay'at raisi S. Boboev «O`zbekiston kompozitorlari va musiqashunoslarining ijodiy faoliyatidagi yutuq va muammolar» mavzuida ma'ruza qildi. S'ezd tashkiliy masalani ko'rib chiqdi. Uyushma hay'ati rais lavozimiga Ahmad Hamidovich Jabborov, uning o`rinbosari etib B. Gienko, mas'ul kotiblikka G. Qodirov, taftish hay'ati va uning raisi vazifasiga Tovur Jumaev, «O`zbekiston musiqa fondi» hay'ati a'zolari, uning raisi etib Ilyos Akbarov saylandi. Fond direktori lavozimiga M. T. Gisin tasdiqlandi. 1967 yilning sentabr oyida O`zbekiston Bastakorlar uyushmasining Qoraqalpog`iston bo`limi ochildi. Bunga bag`ishlangan ikkita kontsertda qorakalpoq kompozitorlarining turli janrlardagi asarlari va ikkita musiqali drama namoyish etildi, O`zbekiston Kompozitorlar uyushmasining hay'at raisi A. H. Jabborov ma'ruza qildi. Mazkur uyushma bo`limining raisi lavozimiga Olimjon Halimov, mas'ul kotiblikka Tojigul Adambaevlar saylandilar.

1971 yilning 15 noyabr - 2 dekabr kunlari O`zbekiston Bastakorlar uyushmasining VI s'ezdi bo'ldi. Uning dasturida kompozitorlarning simfonik, vokal - simfonik, kamer cholg`u, kamer - vokal asarlari, o`zbek xalq cholgulari orkestri uchun kuy va qo`shiqlar, qo`shiq va romans, estrada, xor jamoalari va bolalar uchun yozilgan asarlar yangradi. quyidagi sahna asarlari: A. Berlinning «To`y kuni» (A. Rozov librettosi) operasi, M. Ashrafiyning «Temur Malik» baleti, R. Vil'danovning «O`n ikkinchi kecha» (SHekspir pesasi asosida) musiqali komediya, D. Zokirov va K. Jabborovlarning «Mening jannatim» (S. Abdulla pesasi) musiqali dramalari namoyish etildi. Hay'at raisi A. K. Jabborov O`zbekiston kompozitor va musiqashunoslarning ijodiy faoliyatlari

respublikaning zamonaviy musiqa sanatining rivojlanish jarayonidagi yutuq va muammolar hamda musiqa targ'ibotidagi nuqsonlar to'g'risida ma'ruza qildi. hay'at azolari va uning raisi lavozimiga A. K. Jabborov, uning o'rinbosari etib B. Gienko, mas'ul kotiblikka E. Solihov, taftish hay'ati a'zolari va uning raisi etib T. Jumaev, «O'zbekiston musiqa fondi» hakami va uning raisi lavozimiga I. Akbarov saylandi.

Direktor bo'lib O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Toshtemir SHaripov tasdiqlandi. 1976 yilning 12 - 19 martida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining VII sezdi bo'ldi. S'ezdning kontsert dasturida kompozitorlarning turli janr va shakllarda yaratgan yangi musiqa asarlari yangradi. N. Zokirovning «Sohil bo'yida to'qnashuv» operasi, M. Ashrafiyning «Muhabbat va kilich» («Temur Malik») baleti, S. Jalilning «Lahma», M. Levievning «Zamonali va Omonali» musiqali komediyalari namoyish qilindi. Tashkiliy masala ko'rilib, hay'at a'zolari va uning raisi lavozimiga Enmark Solihov saylandi. Uning o'rinbosarlari lavozimiga B. Gienko va N. Zokirov, mas'ul kotiblikka V. Zudov saylandilar. «O'zbekiston musiqa fondi» hay'ati va uyushmasining raisi qilib I. Akbarov saylandi. Fond direktori etib T. SHaripov tasdiqlandi.

1982 yilning 13-19 iyunida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining VIII s'ezdi bo'ldi. Uning dasturida N. Zokirovning «Uyg'onish» nomli operasi, A. Berlinning «Vasilisa prekrasnaya» bolalar uchun baleti, T. Xrennikoviing «Lyubovyu za lyubov» baleti, E. Solihovning «Xo'ja Nasriddin» operettasi ijro etildi. Hayat raisi Enmark Solihov va taftish hayati raisi Tovur Jumaev hisobot maruza qildilar. hay'atining birinchi kotibi lavozimiga Sobir Boboev, mas'ul kotiblikka Mirsodiq Tojiev, Aleksandr Berlin, Ulug'bek Musaev va Galina Kuznetsovalar, taftish hay'ati va uning raisi etib M. S. Kovbas, «O'zbekiston musiqa fondi» hayati va raisi qilib Ilyos Akbarovlar saylandilar. Musiqa fondi direktori etib Toshtemir SHaripov tasdiqlandi. (Izoh: Bastakorlar uyushmasi hay'atining birinchi kotibi Sobir Boboev bemor bo'lib qolganligi sababli, o'z arizasiga ko'ra 1984 yilning oktabr oyida vazifasidan ozod etildi. Uning o'rniga Mirsodiq Tojiev, mas'ul kotib lavozimiga kompozitor Rustam Abdullaev, musiqashunos Irina Kul'bashnayalar tayinlandi).

1987 yilning 12 - 18 dekabrda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining IX s'ezdi bo'ldi. Musiqali teatrlarda R. Abdullaevning «Quyoshga ta'zim» balet - oratoriyasi, S. Jalilning «Zebuniso» operasi, U. Musaevning «To'mris» baleti, M. Bafoevning «Etinchin jin» musiqali dramasi, M. Levievning «Mangulik» musiqali dramasi tomoshabinlarga havola etildi. S'ezd minbaridan uyushmaning birinchi kotibi Mirsodiq Tojiev va taftish hay'ati raisi M. S. Kovbas hisobot ma'ruza qildilar. Uyushma hay'ati raisi lavozimiga musiqashunos Ahmad Hamidovich Jabborov, masul kotiblikka kompozitorlar Ulug'bek Musaev va Rustam Abdullaevlar, taftish hay'ati va uning raisligiga Rustambek Abdullaev, «O'zbekiston musiqa fondi» hay'ati va uning raisi qilib Mardon Nasimov saylandi. Fond direktori etib Toshtemir SHaripov tasdiqlandi.

O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining tashkil topganiga 50 yil to'lishi munosabati bilan 1988 yilning 27 noyabridan 8 dekabrigacha yubiley Plenumi

bo'lib o'tdi. Plenum kontsertlari va ijodiy uchrashuvlar haqiqiy musiqa bayramiga aylanib ketdi. Plenum ishini tugallash arafasida 24 - 26 noyabr kunlari dunyodan ko'z yumgan kompozitorlar va musiqashunoslarga bag'ishlangan «Xotira kechalari» o'tkazildi va qabrlari ziyorat qilindi. Marhum kompozitorlarning musiqiy asarlari uchta kontsert dasturida jarangladi. N. Zokirovning «Gamlet» S. YUdakovning «Maysaraning ishi» operalari, R. Abdullaevniig «Quyoshga ta'zim» balet - oratoriyasi M. Ashrafiyning «Sevgi tumori» baleti, U. Musaevning «To'maris» hamda Samarqand opera va balet teatrida D. Qodirovaning «Sayyora» baleti, M. Bafoevning «Prometey» musiqali dramasi, E. Solihovning «Xo'ja Nasriddin» operettasi tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi.

SHuni aytib o'tish joizki, XX asrning 60 – 70 – 80 - yillarida O'zbekistoi Bastakorlar uyushmasi tashabbusi bilan Toshkentda har yili O'rta Osiyo va Qozog'iston kompozitorlarining asarlaridan «Simfonik musiqa festivali» o'tkazildi. Mazkur festivalni o'tkazishda O'zbekiston xalq artisti, professor dirigor Z. Haknazarov rahbarligidagi simfonik orkestrning faoliyati muhim rol o'ynadi.

1972 yilning may oyida O'zbekistonda «Gruziya musiqa haftaligi», 1 - 7 noyabrda esa «O'zbekiston musiqa haftaligi» Gruziyada bulib o'tdi. Mazkur haftaliklarda gruzin va o'zbek kompozitorlarining simfonik, vokal -simfonik, kamer - cholg'u, kamer - vokal musiqiy asarlari kontsert dasturlarida jarangladi. Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlari musiqa bilim yurtlari, bolalar musiqa maktablarida va shahar faollari bilan gruzin kompozitorlarning ijodiy uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvlarning kontsert dasturida gruzin va o'zbek ijrochilari faol qatnashdilar. Huddi shunday o'zbek kompozitorlarining ijodiy uchrashuvlari va kontsertlari Tbilisi, Barjomi, Kutaisi, Suxumi va Poti shaharlarida bo'lib o'tdi. Bu ijodiy uchrashuvlar va kontsertlar ikki xalqning musiqa bayramiga aylanib ketdi. O'zbekistondan A. Jabborov rahbarligida M. Ashrafiy, M. Burhonov, S. YUdakov, B. Gienko, Sayfi Jalil, S. Boboev, R. Abdullaev kabi kompozitorlar, dirigor B. To'laganov, skripkachi Marlis YUnusxonov, xonandalar M. Hojiniyozov, R. YUsupova, T. SHaripov va Gruziya san'atkorlari faol qatnashdilar.

1991 yilning 1 sentabri O'zbekiston mustaqilligi bayrami deb e'lon qilindi. O'zbekistonda sobiq totalitar davlat o'rniga mustaqil demokratik, huquqiy davlat o'rnatildi. Bular tufayli mustaqil davlat qurilishida respublikada jahon tsivilizatsiyasi tomonidan erishilgan tajriba va siyosiy - huquqiy ta'limotlar, xalqimizning boy haqiqiy, madaniy merosini mukammal tiklashga, o'rganishga katta imkoniyatlar vujudga keldi. O'zbekistonda keskin ravishda siyosiy - ijtimoiy, iqtisodiy - madaniy hamda ma'naviy o'zgarishlar yuz berdi. Prezidentimiz I. A. Karimov iftixor bilan ta'kidlaganidek, «Ma'naviyat insoniyatning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch - quvvatidir». Respublikamizdagi iqtisodiy - ijtimoiy va madaniy hayotdagi bunday ijobiy o'zgarishlar xalqimizni, yangi - yangi ijodiy zafarlarga chorlamokda.

O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi a'zolarining 1990 yil 29 oktabrda o'tkazilgan umumiy majlisida tashkilotning yangi Nizomi ishlab chiqilib, 1991

yilning 3 yanvarida tasdiqlandi va o`sha kundan kuchga kirdi. Mazkur Nizomda uyushma maqsadi va vazifalari aniqlandi. Uyushmaning asosiy maqsadi: «O`zbekiston milliy musiqasini keng ko`lamda boyitish va yuksaltirish, O`zbekistonda yashaydigan boshqa xalqlar musiqasi kamol topishiga muntazam yordam berish, musiqiy tarbiyalashga butun kuch - qudratini safarbar etish, O`zbekiston kompozitor va musiqashunoslarini jumhuriyat va xorijiy davlatlarda targ`ibot qilish» dan iboratligi belgilab olindi.

O`zbekiston Bastakorlar uyushmasining a`zolari ozod va obod Vatanimizning musiqiy madaniyatini rivojlantirish jarayonida faol ijod qilmokdalar. Mustaqillikning o`tgan davrida kompozitorlar A. Navoiy nomidagi opera va balet teatrini, ayniqsa, Muqimiy nomidagi musiqali teatrni va viloyatdagi barcha teatrlarni, milliy simfonik orkestrni, xor jamoalarini, o`zbek xalq cholg`u asboblari orkestrlarini, estrada simfonik orkestrini, kamer simfonik orkestrini, drama teatrlarni, bolalar xor jamoalarini, O`zbekiston Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va chegarachilar qo`shinlari tarkibidagi «Ashula va raqs ansambli» va damli cholg`u asboblari orkestrlari va boshqa ijrochi jamoalarining repertuarlarini yangi - yangi musiqiy asarlar, spektakllar bilan doimiy ravishda boyitib kelmoqdalar. SHu bilan birga uyushma a`zolari respublikamizda har yili o`tkazilayotgan «O`zbekiston — Vatanim manim» qo`shiq tanlovida, har ikki yilda Samarqand shahrida o`tkazilayotgan «SHarq taronalari» xalqaro musiqa festivallarida faol qatnashmoqdalar. Zamonaviy simfonik musiqa san`atini rivojlantirish va targ`ib qilish niyatida O`zbekiston Bastakorlar uyushmasi, O`zteleradio kompaniyasi, O`zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi va «O`zbeknavo» bilan hamkorlikda har ikki yilda Toshkent «Xalqaro simfonik musiqa festivali» nomli anjumanni, YOshlar «Ilhom» teatr jamoasi har yili Toshkentda «Xalqaro zamonaviy musiqa festivalini», Bastakorlar uyushmasi «Davr sadolari» anjumanini o`tkazib kelmokda. Mazkur festivallarni o`tkazishda kompozitor va musiqashunoslar tashkilotchi va musiqa muallifi sifatida ishtirok etmoqdalar.

1995 yilning 1 - 6 noyabrida O`zbekiston Bastakorlar uyushmasi X qurultoyini o`tkazdi. 6 kun davom etgan qurultoy dasturida kompozitorlarning turli shakl va janrlarda yaratgan asarlari jarangladi. Kontsert dasturida quyidagi sahna asarlari tomoshabinlar etiboriga havola etildi: N.Zokirovning «Taxtga yo`l», M. Bafoevning (O. Uzoqov va J. Kamol librettosi) «Umar Hayyom», S. Jalil va T. To`lalarining «Malikai sayyor» operalari, S. Hayitboev, E. Samandarovlarning «Bashorat», F. Alimov, O`. Umarbekov, R. Ma`dievlarning «Fotima va Zuhra», SH. SHoyimardonova, H. G`ulomlarning «Muhabbat navosi» musiqali dramalari, A. Mansurov, N. Qobillarning «Bir soatlik halifa» musiqali komediyasi va boshqalar. Qurultoy tashkiliy masalani ham ko`rib chiqdi. Uyushmaning kengash a`zolari saylandi. Kengash raisi lavozimiga kompozitor Rustam Abdullaev, o`rinbosarlar etib kompozitor Habibulla Rahimov, musiqashunos Ravshan YUnusov va bastakor Avaz Mansurovlar, taftish hay`ati va uning raisi qilib musiqashunos Rustambek Abdullaev saylandi. Uyushma «O`zbekiston Bastakorlar uyushmasi» deb ataldi va Nizomga ayrim o`zgarishlar kiritildi.

Tayanch tushunchalar:

- 1.«Musiqa fondi»- ta'sis komitet. 1939 yil tashkil etilgan.
- 2.«Raqqosa» - G. Mushel baleti.
- 3.«Maysaraning ishi» - birinchi o'zbek hajviy operasi.
- 4.«SHoir qalbi» - M. Ashrafiy operasi.
- 5.«Xorazm qo'shig'i»- M. YUsupov operasi.
- 6.«Temur Malik»- M. Ashrafiy baleti.
- 7.«Vasilisa Prekrasnaya»- A. Berlin baleti.

Nazorat savollari:

- 1.O'zbekiston bastakorlar uyushmasi qachon tashkil qilingan?
- 2.O'zbekiston bastakorlar uyushmasining birinchi s'ezdi qachon bo'lib utgan?
- 3.Musiqa fondi qachon tashkil qilingan?
4. O'zbek bastakorlarining Ikkinchi Jahon urushi davridagi faoliyatiga xarakteristika bering.
5. O'zbekiston bastakorlar uyushmasining 1960-70 yillar ish faoliyatiga xarakteristika bering.
6. O'zbekiston bastakorlar uyushmasining 1970-80 yillar ish faoliyatiga xarakteristika bering.
7. O'zbekiston bastakorlar uyushmasining 1980-90 yillar ish faoliyatiga xarakteristika bering.
8. O'zbekiston bastakorlar uyushmasining 1990-2000 yillar ish faoliyatiga xarakteristika bering.

Adabiyotlar:

1. Музыкально - энциклопедический словарь. Москва. 1990 г.
2. F. Karomatov. Voprosy muzykoznaneya (materialy simpoziuma) 1980 g.
3. A. Jabborov.T.Solomonova. Kompozitor i muzykovedy Uzbekistana.Toshkent.1975.
4. A. Jabborov. O'zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
5. YU.Rajabiy. I. Akbarov. O'zbek xalq musiqasi tarixi, (Ukituvchi). 1981 yil.
6. T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo'shimcha adabiyotlar:

- 1.O'zbek xalq muzikasi, VII tom. Toshkent 1960
- 2.O'zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

№ 2 Ma'ruza.

Bastakor Matyusup Xarratov (CHokar) hayoti va ijodi. (1889-1953)

Reja:

1. M. Xarratovning yoshlik va talabalik yillari.
2. M. Xarratovning 1920-35 yillar ish va ijodiy faoliyati.
3. M. Xarratovning 1935-40 yillar ish va ijodiy faoliyati.
- 4 M. Xarratov yaratgan kuy va qo'shiqlar.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at; arbobi, maqom bilimdoni, sozanda va bastakor Matyusuf Xarratov XX asrning birinchi yarmida, o'zbek musiqa madaniyatining rivojlanishiga tamal toshini qo'ygan ustoz san'atkorlardan. U butun umrini Xorazm xalq musiqa merosini, tarixini, ulug' ustozlarning hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganishga bag'ishlab ularni targ'ib qildi, o'zi ham san'atkor sifatida shakllandi, yoshlarga ustozlik qildi va musiqa bastaladi. 1928 yildan 1932 yilga kadar Samarqandda tashkil etilgan musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot institutida Xorazm maqomlarini talabalarga o'rgatdi. Bu ko'p qirrali iste'dod sohibi, radio, filarmoniya va musiqali teatrlarda faoliyat ko'rsatib, zamonaviy o'zbek musiqasining rivojlanish jarayoniga ulkan hissa qo'shdi. O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi a'zolarining safiga 1940 yilda qabul qilingan.

Matyusuf (CHokar) Xarratov o'zi bosib o'tgan hayot va ijod yo'lini quyidagichadir: U Hiva shahrining yonidagi SHayxlar qishlog'ida 1889 yili dunyoga keladi. Otasi Matyoqub Xarratov va bobosi Hojiniyoz oddiy dehqon, tikuvchi - kosib bo'lsalarda, lekin ular mashhur tanburchi, maqom san'atining bilimdoni edilar. Ular tarixni, adabiyotni, ayniqsa, she'riyatni va musiqani benihoya sevishardi. Bobosining Matyoqubdan tashqari ikki qizlari bor bo'lsada, uni juda ham kichikligidan to voyaga etgunicha qadar asosan bobosi tarbiyalab o'stiradi. U olti yoshidan boshlab qishloq maktabida va ayrim vaqtlarda Xiva madrasasida o'qiydi. Bu oliy o'quv dargohida arab, fors, turk tillarini, she'riyat qonunlarini, shakllarini o'rganadi. Ayniqsa, shoir Komil Xorazmiyning o'g'li shoir va tanburchi Matrasul Mirzaboshi (taxallusi Mirzo) dan juda ko'p narsalarni o'rganadi va o'zi ham CHokar taxallusi bilan she'r yozib mashq qiladi. Bobosining xonadonida shoir va san'atkorlardan Avaz O'tar, Muhammad YUsuf (taxallusi Bayoniy), Matrasul Mirzaboshi, Matyoqub Pozachi, Qalandar Do'nmas, Masharif Qambar, Qurbon sozchi va boshqalar musiqali kechalar o'tkazishar edi. Matyusup ularga xizmat qilar edi. Matyusupning musiqaga qiziqishni sezgan bobosining iltimosi bilan musiqiy mushoirada qatnashib kelgan sozanda va xonandalar har biri o'z kasbini unga 7 yoshidan o'rgata boshladilar. SHu sababli Matyusup doira, garmon, tanbur, san-tur, g'ijjak, chang, dutor chalishni va ashula aytishni ustozlaridan o'rganadi. YOsh san'atkor sifatida 1920 yilga qadar ona yurtida xalqqa xizmat qiladi. M. Xarratov Xorazmda 1920 yili Xivada bolalar musiqa maktabini ochadi, uning direktor lavozimida ishlaydi va san'ati bilan xalqqa xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining avvalgi poytaxti Samarqand shahrida 1928 yili musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot instituti tashkil topdi. Uning direktori N. N. Mironov Matyusupni Xorazm maqomidan dars berishga taklif qildi. SHu yildan boshlab uning hayot va ijod takdirida o'zgarishlar ro'y berdi. Mazkur institutda 1932 yilga qadar ishlaydi. Ilmiy ish bilan ham shug'ullanar edi. 1928 yildan boshlab Samarqand radiosining musiqa bo'limi mudiri va san'atkor ijrochi bo'lib 8 yil xizmat kiladi. Tojikiston Respublikasining radio eshittirish komitetida musiqa bo'limini ochishda ko'maklashadi. 1935 yili O'zbekiston radiosida ishlash uchun Toshkentga taklif qilishdi. Toshkent radiosining musiqa bo'limida ishlaydi. O'zbek filarmoniyasining ijrochi jamoalari bilan 1937 yilda Moskva shahrida o'tgan O'zbek adabiyoti va san'atining 10 kunligida ijrochi sifatida faol katnashadi. Dekadadan qaytgach, 1937 yili Toshkent davlat konservatoriyasi kompozitorlik fakultetining tayyorlov bo'limiga o'qishga kiradi. Evropa nota yozuvini o'rganadi. Musiqa nazariyasi, tarixi va klassik kompozitorlarning hayoti va ijodiy faoliyatlari bilan

tanishadi. Uch yil konservatoriyada o'qiydi. 1935 - 49 yillarda O'zbekiston radio komitetida sozanda va xonanda lavozimida ishlab, qo'shiq va kuylar yaratadi. 1938 yilda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi tashkil qilish ta'sis komissiyasiga a'zo bo'ladi. 1940 yili Bastakorlar uyushmasiga qabul qilinadi.

Ikkinchi jahon urushi yillari radioda ishlash bilan birga bir necha vatanparvarlik ruhida qo'shiqlar bastalaydi. Ular orasida: «Sevimli Vatan», «Davron», «Yigitlar» (Uyg'un so'zi), «Bahodir yigitlar» (Oybek so'zi), «Pulemyot», «Qahramon uchuvchilar», «Zenitchi», «Qiruvchi», «Tankist», «Oq oltin» (Zafar Diyor so'zlari), «Davron bizniki» (A. Bobojonov so'zi), raqs «Farhod ufori» nomli qo'shiqlari va raqs musiqalari yakka xonanda, xor va raqs jamoalarining repertuarlaridan joy oldilar.

Bastakor va shoir Matyusuf Xarratov (CHokar) o'z zamonasining zabardast va ilg'or fikrli san'atkori sifatida qaynoq hayot ichida yashadi va uning ijodida o'sha davrdagi ijtimoiy - siyosiy, madaniy hayot o'z ifodasini topdi. Bastakor 1929 -41 yilga qadar o'zining she'rlariga kuylar bastaladi: «Kolxozchi», «G'ayratim paxtaga», «Zindabod dehqoni», «Paxtaga ahamiyat bering», «CHindani paxta», «Paxtachilik yashnasin», «Paxta teramiz», «Kolxozga boraylik», Abdullaev so'ziga «Mening tog'im» va o'z so'ziga «O'zing», «Muhabbatim», «SHahlo ko'zlar», «YOshlik tuyg'usi» kabi lirik ashulalar ham yaratdi. 1937 yili Moskvada o'tkazilgan dekadada uning «Sayl va kolhozda to'y» sahnasida «Mustahzod ufori» ashulasi (so'zi va kuyi o'ziniki) ijro etildi. SHular bilan u o'z ijodiy faoliyatida nota yozuvini o'rgangandan keyingi yillarda Xorazm maqomlari notaga olishga kirishdi va ayrimlarini yozishga ulgurdi.

N. N. Mironov rahbarligida tashkil topgan «Notali orkestr» yangi jamoasida changchi bo'lib ishladi. CHangni diatonikdan hromatik uslubga o'tkazishda faol qatnashdi. Ushbu orkestr Belorussiyaning turli shaharlarida o'tkazilgan gastrollarda ham qatnashdi.

Matyusuf Xarratov musiqa san'ati va adabiyotida qilgan ulkan xizmatlari uchun 1944 yili «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» degan yuksak unvon bilan tag'dirlandi. Uning farzandlaridan Foziljon va qizi Muslima Xarratovalar ham otalari izidan borib, o'zbek san'ati taraqqiyotiga o'z munosib hissalarini ko'shganlar. Urganch davlat san'at bilim yurti M. Xarratovning nomi bilan ataladi.

Tayanch tushunchalar:

1. SHayxlar qishlog'i - Xiva shahri yaqinidagi M. Xarratov tug'ilgan joy.
2. Samarqand xoreografiya va musiqashunoslik instituti – 1928 - 32 yillarda M. Xarratov pedagoglik faoliyatini olib borgan ilm dargohi.
3. Doira –urma musiqa asbobi.
4. Garmon – tilli musiqa asbobi.
5. Santur – musiqa asbobi.

Nazorat savollari:

1. M. Xarratov qachon va qaerda tug'ilgan?
2. M.Xarratov ta'lim olgan ustozlari kimlar edi?
3. M.Xarratov Xiva shahrida qanday maktab ochadi?
4. M.Xarratovni 1928 yilda qaerga ishga taklif qilishadi?
5. M. Xarratov ijodiga xarakteristika bering!

Adabiyotlar:

1. Музыкално - entsiklopedicheskiy slovar. Moskva. 1990 g.
2. F. Karomatov. Вопросы музыкознания (materialy simpoziuma) 1980 g.
3. A. Jabborov. T.Solomonova. Композиторы и музыковеды Узбекистана. Toshkent.1975.
4. A. Jabborov. O`zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
5. YU.Rajabiy. I. Akbarov. O`zbek xalq musiqasi tarixi. (O`qituvchi). 1981 yil.
- 6.T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. O`zbek xalq muzikasi, VII tom. Toshkent 1960
2. O`zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

Ma`ruza № 3

Bastakor To`xtasin Jalilovning (1896-1966) hayoti va ijodi

Reja:

1. Bastakor To`xtasin Jalilovning kompozitorning yoshlik va talabalik yillari.
2. Bastakor To`xtasin Jalilovning qo`shiq ijodi.
3. Bastakor To`xtasin Jalilov musiqa bastalagan dramalar.
4. Bastakor To`xtasin Jalilovning opera san`atiga qo`shgan hissasi.

O`zbekiston xalq artisti, atoqli bastakor, sozanda To`xtasin Jalilov XX asr o`zbek musiqasi tarixida katta o`rin egalladi. Benazir mahorat bilan ajoyib qo`shiq, lirik ashula va raqs kuylar, qirqa yaqin musiqali drama va komediya, «Tohir va Zuhra» (B. Brovtsin bilan hamkorlikda) nomli opera yaratib, respublikamizda mazkur janrlarning taraqqiy etishiga ulkan hissa qo`shdi. Ustoz ijodiy izlandi, tinmay mehnat qildi, ko`p qirrali ijodiy, rahbarlik va jamoatchilik faoliyati bilan musiqa san`atida chuqur iz qoldirdi. SHuni aytish joizki, u etishtirgan yuzlab shogirdlar ham O`zbekiston musiqa san`atining ravnaki yo`lida faoliyat ko`rsatmoqdalar. Bu ulug` insonni san`atkor ahli va xalqimiz hurmat kilib «Usta», deb e`zozladi.

To`xtasin Jalilov YUsofjon changchi boshchiligidagi san`atkorlar bilan xalq sayillarida, qishloq va shahardagi to`y marosimlarda qatnasha boshladi. Musiqiy meros sirlarini qunt bilan ustoz va do`stlaridan o`rgandi. «Tashviqot aravasi» ansambli jamoasida YOqubjon changchi, Ashurali Oxun dutorchi, G`azat Oxun g`ijjakchi, Zokir eshon doirachi, Orifjon dutorchi, Hayit Oxun tanburchi, Rustam mehtar surnaychi, Ismat karnaychi, Sayfi qayroqchi, Berkinboy Fayziev, Dehqonboy hofizlar bor edi. Mazkur jamoani avval Orif Toshmatov (Orif garmon) so`ng T. Jalilovlar boshqardilar.

1923 yili Moskvada o`tkazilgan hunarmandlar ko`rgazmasi kontsert dasturida T. Jalilov ham qatnashdi. 1925 yildan Hamza tuzgan Farg`ona teatr truppasida ishladi, keyingi yili mashhur san`atkor M. Qoriyoqubov Samarqandda tashkil etgan O`zbek davlat etnografik ansambliga taklif qilindi. 1927 yili ansambl bilan Moskva, Leningrad, Boku, Qozon va Ufa shaharlarida o`tkazilgan gastrol kontsertlarida bo`ldi. 1928 yil Andijondagi

O'zbek davlat musiqali drama teatriga musiqa rahbari vazifasiga taklif qilindi. Mazkur teatrdagi T. Jalilov «Lolajon» (K. YAshin pesasi), «Qashqar kizi», «Oyxon» (S. Abdulla p'esalari), «O'rtoqlar» (K. YAshin pesasi), «Halima» (G'. Zafariy p'esasi), «Farhod va SHirin», «Layli va Majnun» (SH. Xurshid pesalari) spektakllari uchun kuy, qo'shiq va ashulalarni xalq musiqa merosidan tanlab oldi. T. Jalilov O'zbek davlat musiqali teatrining musiqa rahbari etib tayinlandi. G'. Zafariyning «Halima», K. YAshinning «O'rtoqlar» p'esalari hamda kontsert dasturi ustida ijodiy ish olib bordi. Mazkur spektakllar musiqasini qayta ishladi.

1936 yili Londonda o'tkazilgan jahon raqs festivalida T. Jalilov, M. Qoriyoqubov, Tamaraxonim va Usta Olim Komilovlar qatnashib, qo'sh mukofotlarga sazovor bo'ldilar.

1936 yilda Toshkentda O'zbek davlat filarmoniyasi M. Qoriyoqubov rahbarligida tashkil topdi. Filarmoniya jamoalarida Moskvada o'tkaziladigan O'zbek san'at va adabiyotining birinchi dekadasiga tayyorgarlik qizg'in boshlanib ketdi. T. Jalilovga 120 kishidan iborat bo'lgan O'zbek ashula va raqs ansambli tashkil etish va boshchilik vazifasi topshirildi. Mazkur ansambl ustoz rahbarligida Moskva, shuningdek Ozarbayjon, Ukraina va Belorusiya bo'ylab gastrol safarlarida bo'ldi.

1939 yilning oxirida Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali drama va komediya teatri tashkil topdi. Mazkur teatrga T. Jalilov rahbar etib tayinlandi. Uning bastakorlik faoliyati bu erda yanada samaraliroq bo'ldi. U dramaturg S. Abdulla bilan hamkorlikda 1939 yilda yaratgan «Tohir va Zuhra» musiqali dramasi sahnalashtirishdan boshlandi. 1941 yili «Qurbon Umarov» (S. Abdulla p'esasi, kompozitor G. SHperling bilan hamkorlikda); 1942 yili «Nurxon» (K. YAshin pesasi, kompozitor G. Sobitov bilan hamkorlikda); 1943 yili «O'zbekiston qilichi» (H. Olimjon pesasi, K. YAshin, Uyg'un va N. Pogodinlar, bastakorlar T. Sodiqov, M. Burhonov, N. Hasanov, Klimov va Vaynberglar hamkorligida); 1943 yili «Asrlar» (Uyg'un pesasi, kompozitor B. Nadejdin bilan hamkorlikda); 1945 yili «G'unchalar» va 1947 yili «Orzu» (S. Abdulla pesasi, kompozitor B. Brovtsin bilan hamkorlikda); 1949 yili «Alpomish» (S. Abdulla pesasi, kompozitor B. Nadejdin bilan hamkorlikda); 1949 yili «Muqimiy» (S. Abdulla p'esasi, kompozitor G. Mushel bilan hamkorlikda); 1952 yili «Nurxon»ning musiqasi G. Sobitov bilan, 1953 yili «Tohir va Zuhra»ning musiqasi B. Gienko bilan qayta tahrir etilgan; 1956 yili «Surmaxon» (B. Rahimov p'esasi, kompozitor L. Stepanov bilan hamkorlikda); 1957 yili «Ravshan va Zulxumor» (K. YAshin p'esasi, kompozitor G. Mushel bilan hamkorlikda); 1957 yili «Istibdod» (S. Abdulla pesasi, kompozitor G. Sobitov bilan hamkorlikda); 1962 yili «Farg'ona hikoyasi» (H. G'ulom p'esasi, kompozitor B. Zeydman bilan hamkorlikda); 1962 yili «Dala malikasi» (Jalol Mashrabiy p'esasi) va 1949 yili B. Brovtsin bilan hamkorlikda «Tohir va Zuhra» operasini yaratdi. 1977 yili shu opera qayta tahrir etildi.

O'zbek musiqa merosining bilimdoni T. Jalilov yillar davomida ijodiy izlandi, yangilika intildi va noyob musiqa asarlari bastaladi. Uning zamonaviy uslubda yaratgan ilk kuyi «Signal», qo'shiqlaridan to «Er ekanikki», «Oq oltin», (Kamtar so'zlari), «Dovrug'» (K. Ahmadiy so'zi) kabilargacha Vatanni madh etdi, insonning orzu-umidlari, inson muhabbati kabi nafis his - tuyg'ularini qo'shiq va ashulalarida ifoda etdi. Uning «Ey, hur Vatan», «Azim Vatan», «Ona Vatan», «Farhod qahramonlari», «Oldinga bos, bolam», «Yalla» (Uyg'un so'zi) kabi qo'shiqlari o'zbek qo'shiqchilik san'atiga zamon ruhiga

mos keladigan yangi ohanglar olib keldi. Bulardan tashkari, «Kokiling», «Kuylasam» (Uyg'un so'zlari), «Bahor ayyomida» (Furqat she'ri), «Gulistonim mening» (Muqimiy she'ri) kabi lirik ashulalari muallifning ulkan salohiyatidan dalolat beradi. Ustozning «To'ylar muborak» qo'shig'isiz esa o'zbek to'ylarini tasavvur etish qiyin,

SHuni aytish joizki, ustoz T. Jalilov ulkan ma'naviy -musiqiy meros qoldirgan. SHu bilan birga u el - yurt hurmatiga sazovor ajoyib farzandlarning otasidir. To'ng'ich o'g'li Holxo'ja To'xtasinov (1919-1971 y.) mohir g'ijjakchi, dirijor, bastakor sifatida tanildi. Kenja o'g'li Dehqon To'xtasinov Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtini xor - dirijorligi bo'yicha, Moskva konservatoriyasi o'zbek opera studiyasini tugatib, umrining oxirigacha Farg'ona musiqali drama va komediya teatri dirijori. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist unvoniga sazovor bo'lgan edi. Qizlari O'zbekiston xalq artisti E'tibor Jalilova Muqimiy nomidagi musiqali teatning etakchi aktrisasi edi. Holida Jalilova Toshkent davlat konservatoriyasining vokal fakultetini bitirib, Tojikiston radiosida xonanda va musiqa bilim yurti muallimasi bo'lib ishlamoqda. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Salohiddin To'xtasinov uzoq yillar davomida filarmoniyada etakchi g'ijjakchi sozanda bo'lib ishlagan. To'ng'ich o'g'illari Xolxo'janing ayoli xalqimizning sevimli «bulbuli» - Xalq artisti Saodat Qobulova, ularning ikki qizlari ham musiqachidir.

O'zbekiston musiqa madaniyatini rivojlantirishda ko'rsatgan ulkan xizmatlari uchun 1937 yilda To'xtasin Jalilovga O'zbekiston xalq artisti faxriy unvoni berilgan. 1946 yili O'zbekiston Oliy Kengashiga deputat bo'lib saylangan.

Tayanch tushunchalar:

- 1.«Surmaxon» - spektakl. (B. Rahimov p'esasi, kompyuzitor L. Stepanov bilan hamkorlikda); 1956 yil yaratilgan.
- 2.«Ravshan va Zulxumor» - spektakl. (K. YAshin p'esasi, kompozitor G. Mushel bilan hamkorlikda); 1957 yil yaratilgan
- 3 «Istibdod» - spektakl. S. Abdulla p'esasi, kompozitor G. Sobitov bilan hamkorlikda) 1957 yili yaratilgan.
- 4.«Farg'ona hikoyasi» - spektakl (H. G'ulom pesasi, kompozitor B. Zeydman bilan hamkorlikda) 1962 yil yaratilgan
- 5.«Dala malikasi» - spektakl (Jalol Mashrabiyy p'esasi) 1962 yil yaratilgan.
- 6.«Tohir va Zuhra» - opera (B. Brovtsin bilan hamkorlikda) 1949 yil yaratilgan.

Nazorat savollari:

- 1.Bastakor To'xtasin Jalilovning kompozitorning yoshlik yillari haqida nimalarni bilasiz?
2. Bastakor To'xtasin Jalilovning kompozitorning talabalik yillari haqida nimalarni bilasiz?
- 3 Bastakor To'xtasin Jalilovning qo'shiq ijodiga xarakteristika bering.
4. Bastakor To'xtasin Jalilov musiqa bastalagan dramalar haqida ma'lumot bering.
5. Bastakor To'xtasin Jalilovning opera san'atiga qushgan hissasi nimadan iborat?
6. Bastakor ishini davom qildirgan avlodlari haqida gapirib bering.

Adabiyotlar

1. Музыкально - энциклопедический словарь. Москва. 1990 г.
2. F.Karomatov. Voprosy muzykoznaniya (materialy simpoziuma) 1980 g.
3. A.Jabborov.T. Solomonova. Kompozitorы i muzykovedy Uzbekistana.Toshkent.1975.
4. A. Jabborov. O`zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent. 2004.
5. YU. Rajabiy. I. Akbarov. O`zbek xalq musiqasi tarixi, (O`qituvchi). 1981 yil.
6. T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. O`zbek xalq muzikasi, VII tom. Toshkent 1960
2. O`zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

Ma`ruza№ 4

Bastakor YU. Rajabiy hayoti va ijodi. (1897-1976)

Reja:

1. Bastakorning yoshlik va talabalik yillari.
2. Bastakor YU. Rajabiy ta'lim olgan ustozlari.
3. Bastakor YU. Rajabiyning 1923-1939 yillar ish va ijodiy faoliyati.
4. Bastakor YU. Rajabiy kuy bastalagan musiqali dramalar.

O`zbekiston xalq artisti, Respublika Davlat mukofoti sovrindori, sozanda, hofiz va bastakor, akademik YUnus Rajabiy ko`p qirrali ijodiy faoliyati bilan XX asr o`zbek musiqasi tarixida teran va yorqin iz qoldirdi. U zamonaviy musiqa madaniyatimiz ravnaqiga, shuningdek, O`zbekiston Bastakorlar uyushmasiga tamal toshini qo`ygan san`atkorlardan biridir.

Uning mumtoz qo`shiq va ashulalari, raqs kuylari, musiqali dramalari, ayniqsa, o`zbek xalq musiqa merosi namunalarini, hususan maqomlarni zamonaviy notaga va audio tasmlarga yozishdagi xizmatlari beqiyosdir.

YUnus Rajabiy o`zining hayoti va musiqa san`atiga kirib kelishini «O`zbekiston san`ati» jurnalining 1987 y. 3 - sonida bosilgan «O`zim va hamkasblarim haqida» esdalik maqolasida shunday ta`riflagan: «Men 1897 yilning 5 yanvarida Toshkent shahrida oddiy bog`bon, qassob oilasida dunyoga keldim. Otam Rajab Sarimsoqov qassob kasbiga yarasha serzavq, dovyurak odam edi. Otamni Beshyog`och dahasida tanimaydigan kishi bo`lmagan. Onam Oysha Imomova uy bekasi edilar. 1950 yili yorug` dunyodan ko`z yumdilar. Oilamizda mendan tashqari yana uch o`g`il va ikki qiz bor edi. Otam musiqa san`atning muxlisi edi. 1904 yili bo`lsa kerak, mahallamizda andijonlik Mirza Qosim hofiz yashardi. Uning va boshqa sozandalarning san`atlarini mijja qoqmay tinglar edim. Ularga muqallid bo`lib, ko`pgina narsalarni o`rgandim. SHunday qilib, bolalikdanoq xonanda - yu sozandalar davrasida o`sdim. SHu tariqa menda san`atga moyillik uyg`ondi. Biror soz bo`lsa chalsam, deb umid qilardim. Lekin sozim yo`q edi. Kunlarning birida taxtaga ot yolini tarang tortib, bir asbob yasab oldim. Uni chertib yurdim. Buni

ko`rgan akam menga kichkina do`mbira keltirib berdi. Do`mbirani ertadan kechgacha cherta berdim. Buni ko`rgan SHukur akam bozordan bir dutor keltirib berdi. Mirzaqosim hofizdan va boshqa sozandalardan eshitgan kuylarni mana shu dutorda mashq qila boshladim. SHu paytlarda akam Risqi Rajabiy yaxshigina tanburchi edi. Dutorim bilan pinjiga kirib olib, unga jo`r bo`ladigan bo`ldim. Mashhur hofiz Mulla To`ychi Toshmuhamedov bilan ulkan san`atkor SHorahim SHoumarovlar bog` qo`shnimiz bo`lib, ular haftada ikki - uch marta choyxonada hofizlik qilishardi. SHu yig`inlarda ulardan maqom hamda xalq ashulalarini o`rgana boshladim.

Bu orada 7 yoshimdan eski maktabda o`qidim. 1910 yilda uni tugatib, madrasada uch yil tahsil ko`rdim. Bu erda o`zbek she`riyati durdonalari bilan ko`proq tanishishga harakat qildim. Otam keksayib qolgan, ro`zg`orimiz tang. YOshim 13 - 14 larda, ota kasbimning etagidan tutib, kushxonaga bordim, shu kasbda 1917 yilgacha ishladim. Lekin, musiqa mashqlarimni to`xtatmadim. Toshkentning SHayxontohur, Ko`mirsaroy va boshqa erlarida xalq sayillari bo`lib turardi. Kuz paytlari esa har juma Zangiota va Tirsakda o`tkaziladigan sayillar ham gavjum bo`lardi. Bu xalq yig`inlariga toshkentlik san`atkorlar bilan bir qatorda Samarqand, Buxoro, Andijon, Marg`ilon, Namangan, Qo`qon va boshqa shaharlardan taniqli ashulachi, cholg`uchi, askiyachi, dorboz, masharaboz, rakoslar qatnashardi. Ana shunday yig`inlarda xalqdan ko`p narsa o`rgandim. Keyinchalik «O`zbek xalq musiqasi» to`plam kitobimga ko`pgina xalq qo`shiqlari, cholg`u kuylarini kiritganman.

1913 yili otam vafot etgach, oilamiz moddiy tomondan qiynalganligi sababli 1914 - 1915 yillarda CHimkent kushxonasida ishladim. Bu erda mashhur san`atkorlar Sultonxon, Qurbonxon, Imomxon, Hoshimxon Hakimovlar bilan tanishdim. Bu aka - ukalar orasida Ilhomxon nay chalar edi. Undan nay chalishni o`rgana boshladim. Kunlarning birida choyxonada nay chalib o`tirgan edim, mashhur Abduqodir naychi ko`rib qoldilar. Tanishib qoldik. Ko`p o`tmay u kishi menga Farg`onadan g`orov nay keltirib berdilar. SHu bilan birga nafas olish, puflash, tovush chiqarish, kuylarni mahorat bilan chalish sirlarini o`rgatdilar. Ustozlarimning repertuarlarini mukammal o`rganib, etuk sozanda va xonanda bo`lib, 1916 yilda CHimkentdan qaytdim. SHu yili mashhur musiqachi va ashulachi SHorahim SHoumarovga shogird tushib, u kishidan ta`lim oldim. Ustozim shu yili akam tanburchi Risqi va men naychi - dutorchi, xonanda Rajabiy, kamonchi Imomjon Ikromov, doirachi SHojalilovlardan iborat ansambl tuzib, repertuarimizni boyitib xalq davrasiga chiqadigan bo`ldik. Bizning guruhimizni to`y - tomosha, gap, xilma - hil ma`rakalarga chaqiradigan bo`lishdi va hurmat -e`tiborimiz ko`tarilib ketdi. 1914 yilda boshlangan birinchi jahon urushi xalqimiz boshiga ko`p mushkilliklar keltirishiga qaramasdan, biz san`atkorlarni avaylab, e`zozlashardi.

1918 yili Toshkentda «Turkiston xalq konservatoriyasi» tashkil topdi. 1919 yili esa kompozitor V. Uspenskiyning tashabbusi bilan Baland masjid, Rohat bog`ida mazkur konservatoriyaning bo`limi ochildi. Bu bo`lim musiqa texnikumi deb ham atalar edi. Bu o`quv yurtiga menga o`xshagan yoshlarni qabul qilishdi. Bizga hofiz SHorahim SHoumarov, tanburchi SHobarot aka, doirachi SHojalil aka, doirachi Abdusoat Vahobov, changchi Ismat aka, g`ijjakchi Qurbonxon Hakimov, naychi Imomjon Hakimovlar ustoz – domlalik qilishar edi. V. I. Uspenskiy esa nota yozuvi va musiqa nazariyasidan, Saodatxonim Enekeeva pianino chalishdan dars berishar edilar. SHu davrda Uspenskiy ustozlarimizdan o`zbek musiqasi bilan tanishishga va uni yozib

borishga kirishdi. U SHoumarov bilan birinchi yil birga ishladi va buning natijasida chormaqomdan anchagina qismini notaga yozib oldi.

1922 yili ulug' shoir Alisher Navoiyning «Farhod va SHirin» dostoni asosida (shoir SH. Xurshid p'esasi) yaratilgan musiqali drama, avval «Namuna» maktab sahnasida, keyin o'zbek davlat teatrida o'ynaldi. Bu spektakldagi klassik xalq musiqasining asosiy kuylarini SHorahim SHoumarov bilan men ishlagan edim. 1923 yili o'qishni bitirdim va akam Risqi Rajabiy, g'ijjakchi Imomjon Ikromov, changchi Ismat aka musiqa maktabiga muallim bo'lib bordik. 1924 yilning avgustida toshkentlik mashhur hofiz Mulla To'ychi bilan g'ijjakchi Solixon hoji Samarqandga kelishdi. Hoji Abdulaziz Abdurasulov bilan uchrashishdi. Buxoroda Buxoro SHashmaqomini mukammal biluvchi mashhur hofiz Ota Jalol Nosirov, tanburchi Ota G'iyos Abdug'aniev hamda Usta SHodi Azi-zovlar bilan tanishdim. Hoji Abdulaziz boboning, Registon yaqinidagi hovlisida men, Risqi akam, Imomjon bilan to'rt yil turdik, soz chaldik, ashula -qo'shiq aytdik. Hoji boboning ashula yo'llarini o'rgandik. Hoji bobodan, Levicha Bobohonovdan, Buxoroda eshitganimizdan tashqari, Buxoro «SHashmaqomi»ni shu erda tushunib va o'rgana boshladik. Bir so'z bilan aytganda ularga shogird tushdik. Ustozlar rahbarligida chala bilgan asarlarni ko'p marotaba qaytarardik, me'yoriga etguncha mashq qildirar edilar. SHunday qilib, biz ulardan «Buzruk», «Iroq», uning tasniflari, qashqarchalari, «Ushshoq» va uning bir necha turlarini, «Guluzorim», «Beboqcha», «Bozurgoniy», «Gullar bog'ida» va SHashmaqomning ko'p bo'lim, qismlarini o'rgandik.

1925 - 1926 yillarda Samarqand musiqali drama teatrida musiqa rahbari bo'lib ishladim. «Abdulfayzxon», «YOrqinoy», «Padarkush» kabi dramalar qo'yildi, ularga musiqa bastaladim. SHu orada «Farhod va SHirin» ham Samarqandda qo'yiladigan bo'lib qoldi, musiqasini qayta ishlab berdim. 1926 yilda «Layli va Majnun» (SH. Xurshid pesasi) musiqali dramasiga musiqa bastaladim.

1926 yili umr yo'ldoshimning vafoti sababli Toshkentga qaytib keldim. Toshkent radiouzelida radiostantsiya 1927 yili tuzildi. Biz har kuni shu erda yarim soatdan kontsert berib turdik. Keyinroq shu erda 12 kishilik ansambl tashkil topdi. Ansambl tarkibi borgan sari kengayib boraverdi. Mashhur san'atkorlardan SHorahim SHoumarov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Domla Halim Ibodov, Imomjon Ikromov, Hoji Abdurahmon Umarov, Safo Mug'anniy, Matyusuf Xarratov (CHokariy), Anvar Rajabiy, Nazira Ahmedova, Maryam Alishaevalar ansamblimizning dastlabki yillaridagi a'zolari edi. 1935 yillarga borib ansamblimiz soni 40 taga etdi va men ularga bevosita rahbarlik qildim. 1934 yili uch oy Moskvadagi malaka oshirish kursida, so'ngra Toshkent konservatoriyasining tayyorlov kursida Imomjon Ikromov bilan birgalikda saboq oldik.

1937 yilda Moskvada o'tadigan birinchi O'zbekiston san'ati va adabiyoti dekadasi tayyorgarlik boshlandi. Dekadaga atab «YOlg'iz» (katta ashula), «Endi sendek» va «Hammamiz» kuylari asosida uch qismdan iborat syuita yaratdim va ijro etildi. Oltin soat bilan mukofotlandim. 1938 yili Bastakorlar uyushmasi tashkil topdi. Men esa a'zolika qabul kilindim. Bu tashkilot bastakor va musiqashunoslar hamda mening taqdirimda va respublikamiz musiqa madaniyatini rivojlantirishda beqiyos rol o'ynab kelmoqda.

1939 yilda O'zbekistonda o'ttiz ijrochidan iborat birinchi xotin - qiz dutorchilar ansambli tuzish hukumat tomonidan mening zimmamga va Lutfixonim Sarimsoqovaga

topshirildi. 1939 yilda hayotimda shu unutilmas voqea sodir bo'ldi. Hukumatimiz ko'p yillik mehnatimni munosib taqdirlab, menga «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» degan fahriy unvon berdi va «SHavkatli mehnat uchun» medali bilan tag'dirladim.

Bilimimni oshirish uchun 1941 yil boshida Moskvaga malaka oshirish kursiga Imomjon Ikromov, Muhammadaziz Niyozovlar bilan bordik. Professor G. I. Litinskiy, V. Vinogradov, san'atshunoslik fanlari doktori V. A. TSukerman, professor V. M. Belyaevlardan ta'lim ola boshladik. Favqulodda boshlangan Ikkinchi Jahon urushi o'qishni davom ettirishimga to'siqlik qildi. Toshkentga qaytib YAngiyo'l shahridagi Toshkent viloyati musiqali drama va komediya teatrida musiqa rahbari bo'lib ishlay boshladim.

1945 yili 9 mayda urush bizning g'alabamiz bilan tugagandan so'ng, hokimiyat rahbarlari meni yana Radio ansambliga rahbar qilib tayinlashdi. 1948 yili musiqa san'ati tarixida anchagina jiddiy g'oyaviy tortishuvlar ro'y berdi. YA'ni xalqimizning asrlar davomida e'zozlanib kelinayotgan, milliy g'oyalar bilan sug'orilgan SHashmaqom, Farg'ona - Toshkent maqomlari, Xorazm maqomlari «Saroy musiqasi» deb, ijro etilishlari taqiqlab ko'yildi. 1953 yilda esa radioning «O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrini» tarqatib yubordilar. O'zbekiston radio musiqa eshittirish tahririyati faoliyati besh yilga yaqin radio karnaylaridan eshittirishlar va kontsertlarda O'zbekiston Markaziy Komitetining ko'rsatmasiga asosan dasturlar tuziladigan bo'ldi. Yaratganga ming shukur 1956 yildan boshlab ma'naviyatimizda bir oz bo'lsada erkinlik paydo bo'la boshlandi. 1957 yili radioda «O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestri»ni qaytadan tiklash uchun topshiriq bo'ldi. Men orkestrga badiiy rahbar, Doni Zokirov bosh dirijor qilib tayinlandi. 1958 yildan esa maqomchilar ansambli mening rahbarligimda ishlay boshladi.

Xalq musiqa merosining durdonalarini ko'pdan buyon to'plab notaga yozib olayotgan edim. 1947 yildan e'tiboran qayta sayqal berib, notaga tushira boshladim. 1955 yilda «O'zbek xalq musiqasi»ning birinchi tomi san'atsevar xalqimiz qo'lga borib etdi. Bora bora, kelgusi 1957 - 1959 yillarda musiqashunos I. Akbarov tahririda yana to'rt jildi nashr etildi.

Keyingi 60 - 70 yillarda SHashmaqomning olti tomligi, har bir olti maqom alohida - alohida musiqashunos F. Karomatov tahririda nashr etildi. O'zbekiston radio eshittirish va televidenie Davlat komiteti qoshidagi maqom ansambli ijrosida SHashmaqomning ashula bo'limiga kirgan barcha sho'rbalarini shogirdlarimga o'rgatib, ular ijrosida magnit lentalariga, plastinkalarga ko'chirishga muvaffaq bo'ldim. Bu murakab ishni amalga oshirishda maqom ansamblining zahmatkashlari: ansamblning musiqa rahbari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Faxriddin Sodiqov, O'zbekiston xalq artistlari Kommuna Ismoilova, Berta Dovidova, O'zbekiston xalq hofizlari Ortiqxo'ja Imomxo'jaev, Orif Alimahsumov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Karim Mo'minov, sozandalardan Orif Qosimov, Zokirjon Sodiqov, Ishoq Qodirov, Ilhom To'raev, Turg'un Alimatov, Umarjon Otaev, Dadaxo'ja Sottixo'jaev hamda G'aybullay Sa'dullaevlar men bilan yonma - yon turib hormay - tolmay mehnat qilishdi».

1920 - 1940 yillarda YU. Rajabiy har xil mavzularda, klassik va zamonaviy o'zbek shoirlarining she'rlariga ashula, qo'shiqlar, marsh, xor qo'shig'i, kuylar yaratishdan boshlab uning «Fabrika yallasi» (K. Hoshimov so'zi), «Davron - davron» (G'ayratiy so'zi), xor: «YAshnadi» (M. G'ani so'zi), «Sirdaryo» (A. Kamtar so'zi),

«Hammamiz» (Jipak soʻzi), «Gʻalaba» (Mirtemir soʻzi), «Oʻzbekiston» (A. Kamtar soʻzi), «Qahramon» (Gʻayratiy soʻzi), «Pahta» (A. Kodirov soʻzi), «Vatan» (A. Muhammadxon soʻzi), kabi juda koʻp qoʻshiqlarlari radio toʻlkinlarida yangrab tez orada ommalashib ketdi. Bular qatorida «Gulbogʻlar», «Mirzachoʻlda toʻy», «Qahramonlar marshi», «Xalqlar doʻstligi» kabi ommaviy qoʻshiqlar oʻzbek xalq qoʻshiqlarining tuzilishiga yaqin boʻlsada, ular ohang jihatidan originalligi bilan ajralib turadi. SHular qatori bastakor yaratgan «Sogʻinganman», «YOr keldi», «Kelding», «Muncha ham», «Koshki», «Judo», «Ishq», «Mustazod», «Hajringda», «Gul sochar», «Raʼnolanmasun» kabi qator lirik ashulalari xonandalar tomonidan sevilib ijro etilib kelmoqda.

YU. Rajabiy ijodida teatr uchun musiqa bastalash muhim oʻrin tutdi. U Samarqand teatrida ishlagan paytlarida yuqorida qayd qilingan sahna asarlardan tashqari, 1932 yili Umarjon Ismoilov bilan hamkorlikda 1934 yili «Rustam» nomli musiqali dramani yaratib, keyinchalik yana quyidagi sahna asarlarga musiqa bastaladi: 1934 y. «Avaz» (A. Hidoyatov pesasi), 1941 y. «Qasos» (A. Umariy va Tuygʻun pʻesalari, musiqasini yozishda B. Nadejdin hamkorlik qilgan). Kompozitor N. Mironov bilan birgalikda 1942 yili «Qoʻchqor Turdiev» (S. Abdullo va R. Gʻulomov pesalari), 1943 yili «Nodira» (L. Qosimov pesasi), G. Mushel hamkorligida 1944 yili «Muqanna» (H. Olimjon pesasi) va 1944 yili «Farhod va SHirin» (K. YAshin pesasi), 1968 yili kompozitor Sayfi Jalil bilan hamkorlikda «Alisher Navoiy Astrobodda» (I. Maqsumov pʻesasi), 1964 yili S. YUdakov va B. Zeydmanlar bilan hamkorlikda «Oʻgʻil uylantirish» (H. Gʻulom pʻesasi) musiqali dramalarini yaratdi. SHu bilan birga quyidagi drama spektakllariga musiqa bastaladi: 1938 yili «Boy ila hizmatchi», 1939 yili «Xolisxon» (Hamza asarlari) va 1935 yili «Navoiy», 1936 yili «Muqimiy», 1938 yili «Furqat» va 1938 yili «Lola» kabi radiopostanovkalarga ham musiqa bastaladi.

1957 yili Oʻzbekiston xalq artisti, kompozitor Tolibjon Sodiqov, Boris Zeydman hamkorligida yaratilayotgan «Zaynab va Omon» (Zulfiya librettosi asosida) operasi, T. Sodiqovning bevaqt vafot etganligi sababli operani YU. Rajabiy, D. Zokirov va B. Zeydmanlar bilan 1958 yili oxirigacha etkazildi va oʻsha yili asar A. Navoiy nomidagi opera va balet katta akademik teatrida sahna yuzini koʻrdi.

YU. Rajabiy musiqaning boshqa janrlarida ham qator asarlar yaratdi. Masalan: B. Nadejdin bilan «Paxta» nomli simfonik orkestr uchun raqs syuitasi, «Fargʻonacha» syuitasi va «Segoh» simfonik pʻesasi, oʻzbek xalq cholgʻulari ansambli uchun «Raqs», shoir Furqatning sheʼriga bastalagan «Naylagayman», «Tong nasimi» va «YUzing oydek» nomli uch qismli vokal - simfonik syuita va oʻzbek cholgʻulari ansambliga bir talay kuylar bastaladi.

YUnus Rajabiy Oʻzbekiston musiqa madaniyatini rivojlantirishda ulkan xizmatlari uchun qator orden va bir necha medallar bilan tagʻdirlangan. 1939 yili unga «Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi», 1953 yili «Oʻzbekiston xalq artisti» faxriy unvonlari berilgan. 1966 yili Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasiga haqiqiy aʼzo etib saylangan.

Ustoz sanʼatkor YUnus Rajabiy Oʻzbekiston musiqa madaniyatiga, xalqiga bir umr sidqi dildan halol xizmat qilib, tirikligidayoq oʻziga haykal qoʻygan mumtoz sanʼatkordir. Jizzax viloyat musiqali drama teatri, Toshkent pedagogika kolleji, Toshkent metrosi bekati, Toshkentning koʻchalaridan biri va oʻzi asos solgan Oʻzbekiston radiosi «Maqom ansambli» uning nomi bilan ataladi. YUnus Rajabiy uy - muzeyi faoliyat koʻrsatmokda.

Tayanch tushunchalar:

1. «Turkiston xalq konservatoriyasi» - 1918 yili Toshkentda tashkil topgan.
2. SHayxontohur, Ko`mirsaroy – Toshkent shahri dahalari
3. «Farhod va SHirin» - Alisher Navoiy dostoni
4. «Saroy musiqasi» 1948 yilda ijro etilishlari taqiqlab qo`yilgan SHashmaqom Toshkent - Farg`ona, Xorazm maqomlari.
5. «Zaynab va Omon» - (Zulfiya librettosi asosida) operasi, T. Sodiqovning bevaqt vafot etganligi sababli operani YU. Rajabiy, D. Zokirov va B. Zeydmanlar bilan 1958 yili oxirigacha etkazildi.

Nazorat savollari:

1. Bastakorning yoshlik yillari haqida ma'lumot bering
2. Bastakorning talabalik yillari haqida ma'lumot bering.
3. Bastakor YU. Rajabiy ta'lim olgan ustozlar kimlar edi?
4. Bastakor YU. Rajabiyning 1923 - 1939 yillar ish va ijodiy faoliyatiga xarakteristika bering.
5. Bastakor YU. Rajabiy kuy bastalagan musiqali dramalarga xarakteristika bering.

Adabiyotlar:

1. Музыкально - энциклопедический словарь. Москва. 1990 г.
2. F. Karomatov. Вопросы музыкознания (материалы симпозиума) 1980 г.
3. A. Jabborov, T. Solomonova. Композиторы и музыковеды Узбекистана. Toshkent. 1975.
4. A. Jabborov. O`zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent. 2004.
5. YU. Rajabiy. I. Akbarov. O`zbek xalq musiqasi tarixi, (O`qituvchi). 1981 yil.
6. T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. O`zbek xalq muzikasi, VII tom. Toshkent 1960
2. O`zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

Ma`ruza № 5

Bastakor Tolibjon Sodiqov hayoti va ijodiy yuli. (1907-1957)

Reja:

1. Kompozitorning bolalik va talabalik yillari.
2. Kompozitorning xor va vokal ijodi.
3. Kompozitorning fortepiano ijodi.
4. Kompozitorning opera ijodi.
5. Kompozitorning musiqali drama ijodi.

O'zbekiston xalq artisti, Davlat mukofoti sovrindori, kompozitor va dirigor Tolibjon Sodiqov zamonaviy o'zbek professional musiqa san'atiga 1920 yillarning boshida kirib keldi. Ustozlardan san'at sirlarini o'rgandi, o'qidi, dutor, tanbur, nay kabi cholg'ularda mohir ijrochi sifatida tanildi. O'zining ijodiy, tashkilotchilik va jamoatchilik faoliyati bilan musiqa san'atimizning rivojlanishiga birinchilar qatorida tamal toshini ko'ydi. Uning yaratgan qo'shiq, romans, simfonik va vokal simfonik asarlari, ayniksa, musiqali drama va operalari yakkahon, kontsert va teatr jamoalari repertuarini boyitdi.

Sodiqov Tolibjon Samarqand shahrida ziyolilar oilasida 1907 yilda tavallud topdi. U eski maktabda 7 yoshidan boshlab o'qidi, 1920 yildan yangi maktabda o'qishini davom ettirdi. Bu erda tashkil topgan musiqa to'garagiga qatnashadi. Tug'ma iste'dod sohibi musiqa, adabiyot va tarixga mehr qo'ygan Tolibjon astoydil o'qidi, tinimsiz dutor va tanburda mashq qilib, tez orada hammani hayratda qoldira oladigan ijrochi sifatida tanildi. 1924 yili Samarqand O'zbekiston respublikasining poytaxti deb e'lon qilingan yili Tolibjonning taqdirida ham keskin burilish ro'y berdi. Poytaxtda madaniyat va san'at muassasalariga e'tibor qaratilishi bilan san'at guruhleri, teatr va kontsert tashkilotlari, badiiy havaskorlik to'garaklari birin - ketin paydo bo'ladi va ular o'rtasida tanlovlar o'tkazish an'anaga aylana boshlandi. Tolibjon shahardagi san'at guruhlariga qo'shilib, kontsertlarda qatnashar edi. 1927 yili Samarqandda mashhur, kelgusida O'zbekiston xalq artisti Ali Ardobus (Ibrohimov) yosh havaskor san'atkorlardan «Ko'k ko'ylak» lar to'garagini tuzdi. Musiqa rahbari etib Tolibjon Sodiqovni taklif etdi. Mazkur to'garak kelgusida san'atimiz namoyandalari Doni Zokirov, Manas Leviev, Isoxor Oqilov, Nabi Hasanov, M. Xalilov, Asror Jo'raev, Vohid Abdullaev, Jalol Obidov, Mirbobo Ziyoev, Mikoel Kalantarov va boshqalar qatnashdilar. 1925 yilda Samarqand musiqali teatriga Toshkent xalq konservatoriyasini bitirgan YUnus Rajabiy musiqa rahbari etib tayinlandi. SHu yildan boshlab Tolibjon Sodiqov ustozdan nay chalishni o'rgandi va teatr sozandalar ansamblida qatnashib turdi. 1928 yildan boshlab naychi bo'lib teatrdan ishladi. 1930 yili sahna yuzini ko'rgan «Bog'bon qiz» (S.Abdulla p'esasi) spektakli uchun u musiqa bastaladi. 1928 yili Samarqandda N. Mironov rahbarligida O'zbekiston musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot instituti tashkil topdi. Birinchi talabalar qatorida T. Sodiqov ham bor edi. Bu dargohda u ustozlardan: Ota Jalol Nazirov, Domla Halim Ibodov - hofizlardan, Hoji Abdurahmon - tanburchi, M. Xarratov - changchi, A. Ismoilov - naychi, A. Umurzoqov - qo'shnaychilardan Farg'ona - Toshkent, Buxoro va Xorazm musiqa uslublarini o'rgandi. N. N. Mironov nota yozuvi, solfedjio, musiqa nazariyasi va tarixidan saboq berdi. Institut rejasiga asosan T. Sodiqov kursdoshlari M. Ashrafiy va SH. Ramazonovlar bilan N. N. Mironov boshchiligida birinchi marotaba xalq qo'shiq va kuylarini notaga yozib, 1931 yilda «Pesni Fergany, Buxary i Xivy» nomli to'plam nashrdan chiqdi. Kursdoshlar «Sadrash» nomli ilk simfonik asarni ham hamkorlikda yaratishdi.

1930 yili T. Sodiqov Hamza nomidagi o'zbek drama teatrining sozandalar ansambliga rahbarlik taklif qilindi. U 1932 yilga qadar ishlab, cholg'u ansambli tarkibini kengaytirdi, ijro sifatini yaxshiladi, teatr repertuaridagi sahna asarlarining musiqasini qisman yangiladi, dramaturg K. YAshinning «YOndiramiz» dramasiqa musiqa bastaladi. 1933 yili O'zbekiston davlat Musiqa teatr orkestriga (1939 yildan boshlab A. Navoiy nomidagi opera va balet teatri) dirigor lavozimiga taklif etiladi. Dirigorlik ishi bilan birga 1933 yili «Layli va Majnun» (SH. Xurshid p'esasi), 1935 yili «Hujum» (CHO'lpon va V. YAn pesalari) va 1936 yili «Po'rtana» spektakllariga

musiqa bastaladi.

1934 yili T. Sodiqov O'zbekiston Bastakorlar uyushmasini tashkil etish vakolatini oldi. Mazkur uyushmaning ta'sis hay' - ati 1938 yilda O'zbekiston San'at Bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlandi. Ta'sis hay'atiga Tolibjon Sodiqov - rais, M.Ashrafiy - rais o'rinbosari, Karim Abdullaev - mas'ul kotib va a'zolar buyruq bilan tayinlandilar. Ularga qurultoyga tayyorgarlik qo'rish vazifasi topshirildi. Ikkinchi jahon urushi sababli O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi birinchi qurultoyi 1948 yili bo'lib o'tdi.

1937 yili Moskvada o'tadigan O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadasiga 1936 yildan boshlab katta tayyorgarlik boshlandi. T. Sodiqov «Birinchi deputat» (M. Pyotr so'zi) va «Safarbar» (Mirtemir so'zi) qo'shiqlarini, ovoz va simfonik orkestr uchun «YOr» (Mirtemir so'zi) romansini, simfonik orkestr uchun «SHodiyona» poemasi va «Raqs», R. M. Glier bilan hamkorlikda «Gulsara» (K. YAshin p'esasi) musiqali dramasi kabi asarlarni yaratdi. Bular dekada dasturlarida ijro etildi va olqishlarga sazovor bo'ldi. 1940 yili R. M. Glier bilan hamkorlikda «Layli va Majnun» (Xurshid librettosi asosida) operasini yaratdi.

1935 yili Moskva konservatoriyasi qoshida M. Qoriyoqubov tashabbusi va rahbarligida O'zbek opera studiyasi tashkil topgan edi. Tolibjon Sodiqov kompozitorlik malakasini oshirish niyatida 1939 - 1941 yillarda mazkur studiyada professorlar R. M. Glierdan kompozitsiya, Melik Pashaevdan dirijorlikdan saboq oldi. 1941 yilda boshlangan Ikkinchi jahon urushi uning o'qishini to'xtatdi.

T. Sodiqov ijodiy faoliyati urush va tinchlik yillarida samarali bo'ldi. U birin - ketin musiqaning turli shakl va janrlarida ko'plab asarlar yaratdi. Ular orasida A. F. Kozlovskiy bilan hamkorlikda «Davron ota» (S. Abdulla p'esasi, 1941y.) M. Burhonov, M. Vaynberg, T. Jalilov, N. Hasanov, A. Karimovlar bilan hamkorlikda «O'zbekiston qilichi» dramalarini (1942 y.), «Gulxan» (SH. Sa'dulla p'esasi, 1943 yil) bolalar uchun spektaklga musiqa bastaladi. 1942 yilda Mirtemir bilan hamkorlikda 5 ta qo'shiq va 4 ta romans yozdi. Ayniqsa, uning «Bulbul» (Kamtar she'ri), «Bahor» (Mirtemir she'ri), «Sarvigul» (Navoiy she'ri), «Jonon ko'rinur» (Nizomiy she'ri) romanslari mashhur bo'lib ketdi. Bularni xonandalarning bir nechta avlodlari ijro etib kelmokdalar.

Urush yillari yana yakka xonanda va simfonik orkestr uchun «Intizor» nomli vals, «Farhod qurilishi» simfonik poemasi va jangchilarga bag'ishlangan maxsus «Kino kontsert» filmiga musiqa tanladi va yozdi. Urushdan keyingi yillarda u «Sevaman» (S. Abdulla p'esasi) musiqali komediya (1945 y.) «Armug'on» (A. Bobojonov p'esasi) musiqali drama R. M. Glier bilan hamkorlikda «Gulsara» (K. YAshin librettosi) (1949 y.), «Layli va Majnun» (SH. Xurshid librettosi) operasini 1949 yil tahrir qildilar., «Zaynab va Omon» operasining (1957 y.) birinchi pardasini yozishga ulgurdi. 1958 yili Zulfiya librettosi asosida yozilgan ushbu operani YU. Rajabiy, D. Zokirov va B. Zeydmanlar oxiriga etkazishdi va o'sha yili premerasi bo'ldi. Mazkur opera 1959 yili Moskvada o'tgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati 10 kunligida boshqa operalar qatori namoyish etildi. 1951 yilda Moskvada o'tgan O'zbek adabiyoti va san'ati dekadasiga bag'ishlab yakka ovoz va simfonik orkestr uchun «Moskva» (A. Po'lat so'zi) nomli qo'shiq, mumtoz «Ushshoq» maqom ashulasini qayta ishlab, simfonik orkestrga moslashtirdi, «Vatan» haqida turkum qo'shiqlar kompyuzitor B. Brovtsin bilan

hahmkorlikda ikkinchi «Kino kontsert» yaratdi. Muqimiy she'rlariga to`qilgan o`zbek xalq ashula va yallalarni ovoz va simfonik orkestr uchun moslashtirdi. Turli mavzularda, klassik va zamondosh o`zbek shoirlarning she'rlariga bir qator qo`shiq, ashula va romanslar yaratdi. Ularning aksariyati 1949 - 1956 yillarda to`plamlarga kiritilib chop etilgan. T. Sodiqov 1957 yili «Hur Vatan» va «Baxtiyor yoshlik» (A. Bobojon so`zlari), «Jonim, ishon» (Mirmuhsin so`zi) nomli qo`shiqlar yaratdi.

Kompozitor Tolibjon Sodiqov O`zbekistonning zamonaviy musiqa madaniyatini rivojlanishidagi ulkan xizmatlari uchun, 1939 yili «O`zbekiston xalq artisti» faxriy unvoni, O`zbekiston hukumatining faxriy yorliqlari, orden va medallar bilan tag`dirlangan.

Ajoyib inson, xalqimizning sevimli kompozitori, dirijor va jamoat arbobi Tolibjon Sodiqov 1957 yili olamdan ko`z yumdi. Toshkent shahar bolalar musiqa maktabi va poytaxt qo`chalaridan biriga uning nomi berildi. 2003 yilda T. Sodiqov «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlandi.

Tayanch tushunchalar:

1. Ali Ardobus (Ibrohimov) – mashhur musiqachi, O`zbekiston xalq artisti. 2.«Layli va Majnun» - (SH. Xurshid p`esasi), (1935 yil) T. Sodiqov musiqa bastalagan spektakl.
3. «Hujum» (CHo`lpon va V. YAn pesalari) (1936 yil) - T. Sodiqov musiqa bastalagan spektakl.
4. «Po`rtana» - T. Sodiqov musiqa bastalagan spektakl.
5. «Bulbul» (Kamtar she`ri) - T. Sodiqov musiqa bastalagan romans.
6. «Bahor» (Mirtemir she`ri) - T. Sodiqov musiqa bastalagan romans
7. Sarvigul» (Navoiy she`ri) – T. Sodiqov musiqa bastalagan romans
8. «Jonon ko`rinur» (Nizomiy she`ri) T. Sodiqov musiqa bastalagan romans.

Nazorat savollari:

1. Kompozitorning bolalik va talabalik yillari haqida ma'lumot bering.
2. Kompozitorning xor va vokal ijodi haqida ma'lumot bering.
3. Kompozitorning fortepiano ijodi haqida ma'lumot bering.
4. Kompozitorning opera ijodi haqida ma'lumot bering.
5. Kompozitorning musiqali drama ijodi haqida ma'lumot bering.

Adabiyotlar:

1. Музыкално - энциклопедический словарь. Москва. 1990 г.
2. F.Karomatov. Voprosy muzykoznaniya (materialy simpoziuma) 1980 g.
3. A.Jabborov.T. Solomonova. Kompozitor i muzykovedy Uzbekistana. Toshkent. 1975.
4. A. Jabborov. O`zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
5. YU.Rajabiy. I. Akbarov. O`zbek xalq musiqasi tarixi, (O`qituvchi). 1981 yil.
6. T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. O`zbek xalq muzikasi, VII tom. Toshkent 1960
2. O`zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

Ma`ruza № 6

Kompozitor SH. Ramazonov hayoti va ijodi (1910-2000)

Reja:

1. Kompozitor SH. Ramazonovning bolalik va talabalik yillari.
2. Kompozitor SH. Ramazonovning qo`shiq va vokal-simfonik ijodi.
3. Kompozitor SH. Ramazonovning fortepiano ijodi.
4. Kompozitor SH. Ramazonovning simfoniya ijodi
5. Kompozitor SH. Ramazonovning musiqali drama ijodi.

O`zbekiston xalq artisti, kompozitor SHarif Abdullaevich Ramazonov XX asr ko`p ovozli o`zbek musiqa san`atining tamal toshini qo`ygan kompozitorlar: K. Abdullaev, V. Uspenskiy, N. Mironov, M. Ashrafiy, M. Burhonov T. Sodiqov, M. Leviev, S. YUdakovlarning safdoshidir. U ijodkorlik, rahbarlik va jamoatchilik faoliyati bilan zamonaviy o`zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi.

Ramazonov SHarif Abdullaevich Xorazm viloyati Xiva tumani Gandimyon qishlog`ida 1910 yili 16 iyunda dehqon oilasida tavallud topdi. Ota - onasidan juda erta etim kolgan SHarif xolasinikida va begonalarning xonadonlarida kun kechirdi. 1920 yilda Xorazm xalq respublikasi rahbariyati davlat bolalar uyini tashkil etib, ularni o`qitdi, tarbiya hamda musiqadan birinchi saboq berdi. 1923 yil Xivada bolalar musiqa maktabi ochilishi bilan SHarif birinchilardan bo`lib skripka sinfiga kirdi, so`ngra o`qishini Toshkent musiqa texnikumida davom ettirdi. 1928 yili Samarqandda O`zbekiston musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot instituti tashkil topishi munosabati bilan mazkur institutga ko`chirma qilindi. Bu o`quv dargohida u T. Sodiqov, M. Ashrafiy, M. Burhonov, SH. Sohibov, M. Leviev, O. Halimov, M. Nasimov, N. Hasanov, F. SHamsuddinov, D. Zokirov, F. SHahobov, P. Rahimovlar bilan o`zbek musiqa merosining bilimdonlari: Ota Jalol Nosirov, Hoji Abdurahmon Umarov, Domla Halim Ibodov, M. Xarratov, Ahmadjon Umrzoqov, Abduqodir Ismoilov kabi ustozlardan hamda Ovro`po musiqa nazariyasi va tarixidan saboq oldi. SHu institutda u musiqa bastalashga ham ilk qadam qo`yib, bir necha kuy va qo`shiqlar yaratdi. Jumladan, N. Mironov rahbarligida M. Ashrafiy, T. Sodiqov va SH. Ramazonovlar birgalikda «Sadrash» nomli simfonik orkestr uchun marsh yozdilar. O`zbek xalq qo`shiq va kuylarini notaga yozib olib, «Farg`ona, Buxoro va Xiva qo`shiqari» nomli to`plamni 1931 yilda nashrdan chiqardilar.

SH. Ramazonov o`qishni bitirgandan so`ng 1933 - 41 yillarda Toshkent davlat musiqa teatri dirijori, Urganch musiqali drama teatri badiiy rahbari va bosh dirijori, Xorazm viloyat san`at bosh boshqarmasining boshlig`i lavozimlarida ishladi. 1936 yilda Urganch musiqali drama teatrida uning «Xolisxon» (Hamzaning shu nomli dramasi asosida M. Majidiy tomonidan tayyorlangan), 1940 yil «Varka» (M. Majidiy p`esasi), 1940 yil

«SHohsanam» (S. Abdulla p'esasi) musiqali dramalari sahna yuzini qo`rdi. SHu yillarda u bir talay qo`shiqlar ham yaratdi. 1942 yili SH. Ramazonov harbiy xizmatga chaqiriladi va front janglarida qatnashdi. So`ngra o`zi tashkil etgan damli cholg`ular orkestri bilan urush tugaguncha diviziya qaramog`ida xizmatda bo`ldi va 1946 yili armiya safidan zahiraga o`tkazilib, vataniga qaytadi.

SH. Ramazonov 1946 - 55 yillarda Namangan viloyati Navoiy nomidagi musiqali drama va komediya teatri dirijori, keyinchalik direktor, ayni paytda, Namangan musiqa bilim yurti va musiqa maktabi direktori, 1948 yildan esa Namangan viloyati madaniyat va san'at bosh boshqarmasi boshlig`i lavozimlarida faoliyat ko`rsatdi. 1955 yili Toshkentga ko`chib kelgan SH. Ramazonov O`zbek davlat estradasi kontsert tashkilotiga badiiy rahbar etib tayinlandi. 1958 yilda O`zbekiston estrada - jaz orkestri tashkil etildi.

SH. Ramazonovning o`zi ham estrada qo`shiqlari yaratadi va tez orada bu jamoa respublikamizda mashhur bo`ldi. SH. Ramazonovning otalarcha g'amxo`rligi tufayli mazkur jamoaga sevimli estrada xonandalaridan Botir Zokirov, Luiza Zokirova, Elmira O`razboeva, Staxan Rahimov, Bahrom Mavlonov, YUnus To`raevlar dadil ijodiy qadamlarini qo`ygan edilar.

SH. Ramazonov 1962 yilda T. Sodiqov nomidagi 1 - son bolalar musiqa maktabiga direktor lavozimiga tayinlandi. Mazkur maktabda uzoq yillar davomida yosh san'atkorlarni tarbiyalash bilan mashg`ul bo`ldi. 1990 yili nafaqaga chiqdi.

SH. Ramazonov mas`ul lavozimlarda mehnat qilishi bilan birga ijodga ham vaqt topib, Namangan teatrida sahna yuzini ko`rgan «Asl farzand» (A. Mirtemir p'esasi, 1947 y.), «G`unchalar» (Z. Fatxulin p'esasi, 1947 y.) musiqali dramalar, simfonik orkestr uchun «Quyoshli O`zbekiston» (1948 y.), «Xorazmcha» (1951 y.) syuitali, «Mard paxtakorlar» (A. Po`lat so`zi, 1953 y.) kantatasi; simfonik orkestr uchun syuita №3 (1955y.), O`zbek xalq cholg`ulari orkestri uchun «Mirzacho`l» uvertyurasi (1956 y.), kompozitor A. Malaxov bilan hamkorlikda «Plus bir» kinofilmiga musiqa (O. YOqubov stsenariysi, 1967 y.) kabi yirik asarlar yaratdi. SHuni alohida aytish lozimki, SH. Ramazonovning ijodida qo`shiq janri muhim o`rin egallaydi. Uning ovoz uchun, xor va bolalar uchun, ayniksa, estrada qo`shiqlari uchun yozgan kuylari alohida qimmatga ega.

Jumladan «Ozod diyorim», «Tinchlik uchun», «Go`zal Farg`ona» (A. Bobojonov so`zlari), «Raqqos», «Oltin ter», «Toshkent gulshani» (O. Kamtar so`zlari), «YAyrayman» (M. Rahmonov so`zi), «Bir o`zingga havola» (T. To`la so`zi), xor uchun: «O`zbekiston» (A. Isroilov so`zi), «Andijonim» (X. Xo`jaev so`zi), «Terimchi qizlar taronasi» (A. Po`lat so`zi), «Qutlayman» (E. Vohidov so`zi), xor va raqsga mo`ljallab «Raqsga tushing, dugonalar» (B. Isroilov so`zi), xor, solist va o`zbek xalq cholg`ulari orkestri uchun «Muborak ellik bahor» (O. Kamtar so`zi), «Namanganning olmasi» (Xalq kuyi) va «Ey mehribonim» (Ogahiy so`zi) kabi qayta ishlangan o`zbek xalq qo`shiqlari Luiza Zokirova ijrosida, «Intizorman», «Dilrabo», «SHahlo ko`zim» (O. Kamtar so`zlari); «Gulchi kiz» (M. Qoriev so`zi), «G`azalxon», «Bog` erda barno qiz», «Yigitlar» (T. To`la so`zi), «Sevdim dildan» (A. Isroilov so`zi), «Sir o`zingga havola» (A. Po`lat so`zi), «Ra`no qiz» (B. Nasriddinov so`zi), «Do`stlik vatani» (D. Polinin so`zi) kabi qo`shiqlar Ra`no SHaripova, Staxan Rahimov, Bahrom Mavlonov, YUnus To`raev, T. SHaripov, E. O`razboeva, E. Qandov va M. SHamaevalarning ijrolarida mashhur bo`lib ketdi. O`zbekiston radiosining G`. Toshmatov nomidagi Dutorchilar qizlar ansambli uchun: «YAyrayman» (M. Rahmonov so`zi), «To`quvchi qiz qo`shig`i»,

«YOr yaxshi» va «Mirzacho'l yo'lida» (A. Po'lat so'zlari) kabi qo'shiqlarni yaratgan. SHuningdek, «Bulbulcha» bolalar xor jamoasi uchun qator quvnok, jozibali, «Paxtaoy» bolalar estrada ansambli uchun «A'lochi» (H. Muhammadali so'zi), «Bugun bayram» (B. Isroilov so'zi), «Qo'zichog'im», «Bo'shashmayman», «Jibilajibon» (P. Mo'min so'zlari) va boshqa qo'shiqlari ular ijrosida keng ommaga tanildi.

SH. Ramazonov «O'zbekistonda xizmat qo'rsatgan san'at arbobi» (1952 y.), «O'zbekiston xalq artisti» (1970 y.) faxriy unvonlari, jangovar orden va medallar bilan taqdirlangan.

Tayanch tushunchalar:

1. Xiva bolalar musiqa maktabi - 1923 ochilgan. U erda SH. Ramazonov skripkadan dastlabki ta'lim olgan.
2. Toshkent musiqa texnikumi - SH. Ramazonov ta'lim olgan o'quv dargohi.
3. O'zbekiston musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot instituti. 1928 yil Samarqand shahrida tashkil topgan.
4. Ota Jalol Nosirov, Hoji Abdurahmon Umarov, Domla Halim Ibodov, M. Xarratov, Ahmadjon Umrzoqov, Abduqodir Ismoilov - O'zbekiston musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot institutida SH. Ramazonov ta'lim olgan ustozlar.
5. «SHohsanam» (S. Abdulla p'esasi) (1940 yil) - SH. Ramazonov kuy bastalagan spektakl.
6. «Asl farzand» (A. Mirtemir p'esasi, 1947 y.), «G'unchalar» (Z. Fathulin p'esasi, 1947 y.) - SH. Ramazonov kuy bastalagan musiqali dramalar,
7. «Quyoshli O'zbekiston» (1948 y.), «Xorazmcha» (1951 y.) syuitalari, «Mard paxtakorlar» - SH. Ramazonov yaratgan simfonik asarlar.
8. «Namanganning olmasi», «Ey mehribonim» Intizorman», «Sevdim dildan», «Sir o'zingga havola», «Ra'no qiz» - SH. Ramazonov yaratgan estrada qo'shiqlari

Nazorat savollari:

1. Kompozitor SH. Ramazonovning bolalik va talabalik yillariga xarakteristika bering.
2. Kompozitor SH. Ramazonovning qo'shiq va vokal - simfonik ijodiga xarakteristika bering..
3. Kompozitor SH. Ramazonovning fortepiano ijodiga xarakteristika bering..
4. Kompozitor SH. Ramazonovning simfoniya ijodiga xarakteristika bering.
5. Kompozitor SH. Ramazonovning musiqali drama ijodiga xarakteristika bering.

Adabiyotlar:

1. Музыкально - энциклопедический словарь. Москва. 1990 г.
2. F. Karomatov. Voprosy muzykoznaniya (materialy simpoziuma) 1980 g.
3. A. Jabborov. T. Solomonova. Kompozitor i muzykovedy Uzbekistana. Toshkent. 1975.
4. A. Jabborov. O'zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent. 2004.

5. YU.Rajabiy. I. Akbarov. O`zbek xalq musiqasi tarixi, (O`qituvchi). 1981 yil.
6. T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. O`zbek xalq muzikasi, VII tom. Toshkent 1960
2. O`zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

Ma`ruza № 7

Kompozitor Muxtor Ashrafiyning (1912-1975)hayoti va ijodi.

Reja:

1. Kompozitorning bolalik va talabalik yillari.
2. M.Ashrafiyning vokal ijodi.
3. M.Ashrafiyning fortepiano ijodi.
4. Kompozitor M.Ashrafiyning opera va balet ijodi.
5. Kompozitor M.Ashrafiyning simfoniya ijodi
6. M.Ashrafiyning musiqali drama ijodi.

O`zbekiston xalq artisti, Nosir va Neru xalqaro mukofotlari, respublika Davlat mukofoti sovrindori, kompozitor, dirijor, muallim, yirik jamoat arbobi Muxtor Ashrafiy ko`p kirrali ijodiy faoliyati bilan XX asr O`zbekiston musiqa madaniyatiga ulkan hissa qo`shgan. Uning opera, musiqali drama, balet, simfonik, vokal simfonik kamer cholg`u,qo`shiq va romans janrlarida yaratgan asarlari, zamonaviy o`zbek musiqasi tarixida chuqur iz qoldirdi.

M.Ashrafiy 1912 yili 11 iyunda Buxoro shahrida san`atkor oilasida tug`ildi. Bolaligidan musiqaga qiziqdi va 12 yoshida Abdurauf Fitrat tomonidan tashkil etilgan SHarq musiqa maktabiga o`qishga kiradi, maqom ustozlaridan saboq oladi. 1928 yil Samarqand shahrida ochilgan O`zbekiston Musiqa va xoreografiya institutiga birinchilar qatorida o`qishga kiradi. Talabalik davrida M. Ashrafiy Buxoro xalq qo`shiqlarini, T. Sodiqov Farg`ona vodiysi qo`shiqlarini va SH. Ramazonov Xorazm xalq qo`shiqlarini notaga olishadi. Institut rahbari N. Mironov tahriri ostida 1931 yilda «Pesny Fergany, Buxary i Xivы» nomi bilan nashrdan chiqadi. SHu uch og`aini o`qish davrida N. Mironov rahbarligida «Sadrash» nomli (Sodiqov, Ramazonov va Ashrafiy familiyalarining birinchi bo`g`inlaridan tuzilgan) simfonik orkestr uchun marsh yaratdilar. Institutni tugatgach, M. Ashrafiy 1931 - 34 yillarda O`zbekiston davlat musiqali teatrida badiiy rahbar va bosh dirijor vazifasida ishladi. Kasb malakasi etarli bo`lmaganini sezgan M. Ashrafiy 1934 - 37 yillarda Moskva davlat konservatoriyasi qoshida tashkil etilgan O`zbek opera studiyasida atoqli kompozitor, professor S. N. Vasilenkodan saboq oladi. 1937 yilda Moskvada O`zbekiston adabiyoti va san`ati o`n kunligida M. Ashrafiy dirijor va musiqa rahbari sifatida faol qatnashdi va o`sha yili «O`zbekistonda hizmat qo`rsatgan artist» faxriy unvoni bilan takdirlandi.

M. Ashrafiy turli rahbarlik lavozimlarida faol tashkilotchiligini namoyon qildi. 1938

yildan respublika davlat opera va balet teatriga badiiy rahbar va bosh dirijor, 1943 - 47 yillarda esa direktor lavozimini ham egallaydi. 1947 - 61 yillarda Toshkent davlat konservatoriyasi rektori va opera - simfonik dirijorligi kafedrasining mudiri, 1964 - 66 yillarda yangi tashkil topgan Samarqand opera va balet teatri direktori, badiiy rahbari va bosh dirijori, 1966 - 71 yillarda Alisher Navoiy nomidagi Akademik katta opera va balet teatri badiiy rahbari va bosh dirijori, 1971 yildan umrining ohirigacha Toshkent davlat konservatoriyasi rektori vazifasini bajardi. Dirijorlik faoliyati orkali M. Ashrafiy uzok yillar davomida o'zbek Ovrupo va rus klassik kompozitorlarining opera, balet hamda simfonik asarlarini targ'ib qildi. O'zbekiston musiqa san'atini respublikalarda o'tkaziladigan dekada va festivallarida, qo'shiq bayramlarida, turli tanlov kontsertlarida qatnashdi.

M. Ashrafiyning ijodiy merosi serqirralidir. U musiqaning har xil janr va shakllarida ijod qilib, ko'p asarlar yaratdi. Kompozitor, ayniqsa, Musiqa sahna asarlariga ko'proq e'tiborini qaratdi. 1939 yilda dramaturg K. Yashin librettosi asosida «Bo'ron» nomli birinchi o'zbek operasini S. N. Vasilenko bilan hamkorlikda yaratdi. Bu mualliflar tomonidan 1941 yilning boshlarida «Ulug' kanal» nomli ikkinchi opera yozildi. 1958 yilda Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostoni asosida K. Yashin va M. Muhammedovlarning librettosiga «Dilorom» operasini M. Ashrafiy mustakil ravishda bastaladi. 1962 yili Furqat siymosiga bag'ishlab I. Sulton librettosi asosida «SHoir qalbi» nomli operasini yaratdi.

M. Ashrafiy quyidagi baletlarning musiqa muallifi: «Sevgi tumori» (G. Miller librettosi, 1969 y.), «Temur Malik» (M. Ashrafiy librettosi, 1970 y.), «Matonat» (A. M. Kamel librettosi, 1971 y.). Bu baletning prem'erasi 1972 yil Misr davlatining poytaxti Qohira shahridagi opera va balet teatrida o'tgan va J. Nosir mukofotiga 1973 yili sazovor bo'lgan; «Muhabbat va qilich» (M. Ashrafiy va G. Gelovani librettosi, 1973y.) Dushanbe va Toshkent shaharlarida 1973 - 74 yillarda premerasi o'tgan.

Kompozitor M. Ashrafiy respublikamizda simfonik musiqa san'atining rivojlanishi uchun ham samarali hissa qo'shdi. Simfonik orkestr uchun 1932 yil «Qurilish» marshini Ovrupo klassik simfoniya uslubida, 1942 yil «Qahramonlik» simfoniyasini yaratdi. Xuddi shu uslubda 1952 yilda tojikcha raqs syuitasi ham bastalangan. M. Ashrafiy quyidagi simfonik asarlarning muallifi: 1950 yillarda uchta simfonik syuita, 1963 yil shoir. S. Ayniy hotirasiga bag'ishlangan simfonik poema - rapsodiyasi, 1964 yil «Bayram shodiyona» si uvetyurasi, yirik janrdagi vokal - simfonik asarlaridan 1951 yilda «Baxt qo'shig'i» kantatasi, «Dahshatli ishlar» vokal - simfonik poemasi va 1974 yilda Firdavsiyning «SHohnoma» si asosida «Rustam haqida doston» epik - oratoriyasi (L. SHerali so'zi) dunyoga keldi. 1968 yilda «Subhidamda» nomli simfonik - xoreografiya manzarasini yozgan edi.

M. Ashrafiy : «Momoqalldiroqda tug'ilganlar» (1965), «Koniyuta g'orining siri» (1965), «Dilorom» film - opera (1968), «Qadim qal'a afsonasi» (1970), «Semurg» (1972), «Gang daryosida tong» (1972). kabi kinofilmlarning musiqa muallifi hamdir:

Yillar davomida M. Ashrafiy yirik musiqa asarlar bilan turli yakka cholg'ularga, ansambllarga har xil janrlarda kuy, qo'shiq va romanslar yozdi.

XX asr O'zbekiston musiqa madaniyatining rivojlanishidagi ulkan hizmatlari uchun M. Ashrafiy «O'zbekistonda hizmat qo'rsatgan artist» (1937 y.), «O'zbekiston xalq artisti» (1934 yil) faxriy unvonlari, 1937 yil «SHuhrat» ordeni, ikki marotaba Davlat

mukofoti (1943 va 1952 y.), Hamza nomidagi respublika davlat mukofoti (1970 yil), J. Neru nomidagi Hindiston davlat mukofoti, (1972 yil) va 1973 yil Jamol Abdul Nosir nomidagi Misr davlat mukofoti sovrindori.

Tayanch tushunchalar:

1. SHarq musiqa maktabi - M. Ashrafiy 12 yoshidan boshlab ta'lim olgan dargoh. Abdurauf Fitrat tomonidan tashkil etilgan.
2. O'zbekiston Musiqa va xoreografiya instituti - M. Ashrafiy ta'lim olgan dargoh. 1928 yil Samarqand shahrida ochilgan.
- 3.«Pesny Fergany, Buxary i Xivny» - N. Mironov tahriri ostida 1931 yilda nashrdan chikqan va M. Ashrafiy, T. Sodiqov, SH. Ramazonov hamkorlikda yaratgan xalq qo'shiqlari to'plami.
- 4.S. N. Vasilenko - kompozitor, professor. M. Ashrafiy Moskva konservatoriyasida ta'lim olgan ustozi.
5. Bo'ron» - birinchi o'zbek operasi. M. Ashrafiy 1939 yilda dramaturg K. YAshin librettosi asosida S. N. Vasilenko bilan hamkorlikda yaratgan.
6. «SHoir qalbi» - opera. M. Ashrafiy 1962 yili Furqat siymosiga bag'ishlab I. Sulton librettosi asosida yaratgan.
- 7.«Sevgi tumori» (1969 y.), «Temur Malik» (1970 y.), «Matonat» (1971 y.).- M. Ashrafiy yaratgan.baletlar.
- 8.«Momoqaldiriqda tug'ilganlar» (1965), «Koniyyuta g'orining siri» (1965), «Dilorom» film - opera (1968), «Qadim kal'a afsonasi» (1970), «Semurg'» (1972), «Gang daryosida tong» (1972).- M. Ashrafiy kuy bastalagan kinofilmlar,

Nazorat savollari:

1. Kompozitorning bolalik va talabalik yillariga xarakteristika bering.
2. M. Ashrafiyning vokal ijodiga xarakteristika bering.
3. M. Ashrafiyning fortepiano ijodiga xarakteristika bering.
4. Kompozitor M. Ashrafiyning opera va balet ijodiga xarakteristika bering.
5. Kompozitor M. Ashrafiyning simfoniya ijodiga xarakteristika bering.
6. M. Ashrafiyning musiqali drama ijodiga xarakteristika bering.

Adabiyotlar:

1. Музыкално - ensiklopedicheskiy slovar. Moskva. 1990 g.
2. F. Karomatov. Voprosy muzykoznaniya (materialy simpoziuma) 1980 g.
3. A. Jabborov.T.Solomonova. Kompozitorы i muzykovedы Uzbekistana.Toshkent.1975.
4. A. Jabborov. O'zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
5. YU. Rajabiy. I. Akbarov. O'zbek xalq musiqasi tarixi. (O'qituvchi). 1981 yil.
6. T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O`zbek xalq muzikasi. VII tom. Toshkent 1960
2. O`zbek xalq muzikasi. IV tom. Toshkent 1960

Ma`ruza № 8

Kompozitor Manas Levievning (1912-1991) hayoti va ijodi

Reja:

1. Kompozitorning bolalik va talabalik yillari.
2. Kompozitor Manas Levievning vokal ijodi.
3. Kompozitor Manas Levievning fortepiano ijodi.
4. Kompozitor Manas Levievning opera va balet ijodi.
5. Kompozitor Manas Levievning simfoniya ijodi
6. Kompozitor Manas Levievning musiqali drama ijodi.

O`zbekiston xalq artisti, kompozitor Leviev Manas XX asr o`zbek musiqasi tarixi sahifalarida yorqin, unutilmas iz qoldirdi. U zamonaviy o`zbek professional musiqa san'atining rivojlanish jarayoniga tamal toshini qo`ygan kompozitorlardan biridir. U yaratgan jozibali qo`shiq - romanslar, simfonik, vokal - simfonik asarlar, balet, ayniqsa, musiqali drama, musiqali komediya va kinomusiqasi bilan el - yurt hurmatiga sazovor bo`ldi.

Leviev Menashe (Manas — taxallusi) Betyanovich. Namangan shahrida 1912 yilning 25 iyulida tug`ildi. Ota - onasi Samarqand shahrida istiqomat qilishgan, 1910 yili iqtisodiy ahvoli yomonligi sababli Namangan shahriga ko`chadilar. 1917 yili Qo`qonga jo`naydilar. Bu shaharda notinchlik tufayli yana Samarqandga ko`chib keladilar. U eng avval akalaridan doira va dutor chertishni, keyinchalik YAguda va Izro akalaridan nay chalishni o`rganadi. Samarqandda uni 1920 yili o`rta ta`lim «Turon» nomli o`zbek maktabiga qabul qilishdi. Bir yildan so`ng 26 - maktabga ham qatnab turishga ruxsat berishdi. Uning hayotida 1928 yil unutilmas yil bo`ldi. 8 - sinfni bitirishi bilan oq, O`zbekiston xalq artisti, san`atkor Ali Ardobus Ibragimov o`zi tuzgan 120 kishidan iborat «Ko`q ko`ylakliklar ansambli» ga ishga taklif qildi. Mazkur ansamblning musiqa rahbari T. Sodiqov edi. Ansamblnda undan tashqari D. Zokirov, N. Hasanov, I. Oqilov, A. Jo`raev, V. Abdullaev va boshqalar faol qatnashar edi. O`sha yili N. N. Mironov rahbarligida Samarqandda Musiqa va xoreografiya instituti ochildi. Manas, M. Ashrafiy, M. Burhonov, T. Sodiqov, SH. Ramazonov, O. Halimov, R. Olloberganov, M. Kalantarov, SH. Sohibovlar birinchilardan bo`lib o`qishga kiradilar. 1929 yili O`zbekiston yoshlar markaziy qo`mitasi Levievni Turkmaniston Respublikasi Kerki shahridagi o`zbek teatriga yordam berish uchun musiqa rahbari qilib tayinladi. U teatrd cholg`u ansamblini tuzadi. 1930 yildan yana do`stlari bilan institutda o`qishni davom ettiradi. Samarqandda joylashgan o`zbek harbiy diviziyasi qo`mondoni Harbiy ofitserlar uyida ashula va raqs ansambli tuzishni iltimos qildi. M Leviev «Diviziya qadam tashlamokda» (M. Rahmatullaev so`zi) ommaviy marsh qo`shig`i va yana ikkita raqs kuylarini yaratadi va ansanbl kontsertlar bera boshlaydi. M Leviev 1933 yili Leningrad musiqa texnikumiga nazariy kompozitorlik bo`limiga o`qishga kiradi. 1938 yilda esa musiqa texnikumini bitirib, Leningrad davlat konservatoriyasiga imtihonlarni topshirib, o`qishga kiradi. 1941 yili 1 kurs imtihonlarini

topshirib uyga qaytish arafasida urush boshlanib ketdi. Kursdosh va pedagoglar bilan qo'ngilli askarlar diviziyasi safiga qo'shiladi. Petergof shahrini himoya qilish jangida qatnashib, oyog'idan yarador bo'lib, Leningrad va Volxov shaharlaridagi harbiy shifoxonalarda davolanib, 1942 yilning iyun oyida Toshkentga qaytib keladi. Ma'lumki, urush boshlangan yili Leningrad konservatoriyasi Toshkentga ko'chib kelib o'qish jarayonini davom ettirgan edi. 1942 - 43 o'quv yilidan boshlab o'qishini davom ettiradi. Urushdan avval Leningradda o'qib yurgan kezlari har xil yakka cholg'u va ansambllarga musiqa bastalaydi. Konservatoriyaning talabalari orasida eng yaxshi simfonik asar uchun o'tkazilgan ko'rik tanlovda «Nurxon» nomli simfonik poemasi birinchi darajali mukofotga sazovor bo'lib, Leningrad davlat filarmoniyasining katta simfonik orkestri tomonidan B. Ratniyar dirijorligida ijro etildi. Bu M. Leviev uchun katta baxt edi. Kompozitor M. Levievning ijodiy faoliyati asosan talabalik davridan boshlandi, O'qib yurgan yillari quyidagi asarlarni yozdi: fortepiano uchun 5 ta p'esa, sonatina, raqs, fantaziya, 3 ta etud, 3 ta prelyudiya, 2 ta variatsiya, 20 ta o'zbek xalq kuy va qo'shiqlarini garmoniyalashtirdi. Talabalar kontsertida «Oq oydin kechalar», «Rangim etdi za'faron» o'zbekcha, «Guli surhu safet» tojikcha xalq qo'shiqlarini va Zulfiya so'ziga yozgan «Ozod qizman» nomli qo'shiqni o'zi ijro etib olqishlarga sazovor bo'lgan. U skripka uchun etud, p'esa, variatsiya, torli kvartet uchun syuita, violonchel uchun 4 ta etud, 3 ta p'esa, truba va klarnet uchun p'esalar yaratdi.

Navoiy she'riga bastalagan «Dilistonim, sen mening» romansi simfonik orkestr jo'rligida, ilk bor David Mullaqandov ijro qilinib bu unga katta shuhrat keltirdi.

Urush yillari M. Leviev «O'zbek o'g'li» va «SHerzodlar» (V. Abdullaev so'zlari), «Biz Vatan farzandlarimiz» va «Jang maydonimiz» (M. SHayxzoda so'zlari), «Vatan chaqirig'i» (T. To'la so'zi), yakaxon, xor va orkestr jo'rligida «Bog' qo'cha» va «Farg'ona» (Mirtemir so'zlari), «Go'zal oy» (T. To'la so'zlari) vatanparvarlik va lirik qo'shiqlari; kompozitor M. Burhonov bilan hamkorlikda S. Abdulla, K. Otaboev va Mirtemir so'zlariga 5 qismli «O'zbekiston 20 yoshda» vokal - simfonik syuitasi, A. Lohutiy bilan hamkorlikda «Surudi baxt» («Baxt qo'shig'i»), «Bo duhtari Tojikiston» («Tojikiston qizlariga»), «Duxtari pur g'ayrat» qo'shiqlari, «CHu yod oram» («Seni eslaganimda»), «Dard azobdaman», «Sengina men uchun» lirik romanslari, Said Ahmadning «SHerzod va Gulshod», M. SHayxzodaning «Jaloliddin» dramalariga musiqa bastaladi.

U yaratgan «O'zbek qizi ovozi», «Tinchlik uchun» (T. To'la so'zlari) xalq artisti, sevimli xonanda Halima Nosirova ijrosida juda mashhur bo'lib ketdi. Umuman, 100 ga yaqin turli mavzularda, o'zbek, tojik klassik va zamondosh shoirlarning she'rlariga jozibali qo'shiq va romanslar yaratdi. Ular «Qo'shiq va romanslar» (1958 y.), «Paxta bayrami» (1977 y.), «Hayot qo'shiqlari» (1978 y.) to'plamlarida chop etilgan. Zamonaviy qo'shiq san'atini rivojlantirishda original qo'shiq va romanslari bilan xalq mehriga tushgan kompozitor M. Leviev «O'zbekiston kuychisi» degan nomga sazovor bo'ldi.

1948 yilda sahna yuzini ko'rgan (qayta qo'yilishi 1967 y.) Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostoni asosida yozilgan «Suxayl va Mehri» (libretto K. Otaboev, V. Gubskayalar) baleti va 1949 yil Muqimiy nomidagi musiqali teatrda sahnada qo'yilgan «Oltin qo'l» (Uyg'un p'esasi) musiqali drama va komediya (qayta tahriri 1952 y.) M. Levievga katta shuhrat keltirish bilan birga o'sha muhitda zamonaviy o'zbek professional musiqa san'ati tarixida birinchi mustaqil ravishda va milliy uslubda yaratilgan sahna

asarlar ham edi. SHuning uchun bo'lsa kerak, kelgusida kompozitor teatr uchun musiqa bastalashga mehr qo'ydi. Muqimiy nomidagi musiqali teatrdagi xalq orasida mashhur musiqali drama va musiqali komediyalarning musiqa muallifidir: «Toshbolta oshiq» (H. G'ulom p'esasi, 1961 y.), «Ajab savdolar» (H. G'ulom p'esasi, 1969 y.), «Zamonali - Omonali» (G'. G'ulomning «SHum bola» asari asosida H. G'ulom p'esasi, 1973 y.), «Xizmatigizga tayyormiz» (F. Musajonov va B. Ixtiyorov p'esalari, 1981 y.) musiqali komediyalar, «Kimga to'y, kimga aza» (N. Safarov p'esasi, 1962 y.), «Nozik niholim» (CH. Aytmatovning shu nomli qissasi asosida H. G'ulom p'esasi, 1978 y.), «Mangulik» (H. G'ulom p'esasi) musiqali dramalar bilan quyidagi drama asarlarga ham musiqalar yaratdi: «Semurg'» (Zulfiya va S. Somovalar p'esasi), «YOlg'onchi darkor» (D. Peafisa p'esasi), «Baxt qo'shig'i» (Uyg'un p'esasi), «SHohi so'zana» (A. Qahhor p'esasi), «Muhabbat afsonasi» (N. Hikmat p'esasi), «Turkiya haqida hikoya» (N. Hikmat), «Jazoir mening vatanim» (Diba p'esasi), «Hamza» (K. YAshin va A. Umariylar p'esasi), «Mirzo Ulug'bek» (M. SHayxzoda p'esasi).

Kompozitor M. Leviev 1957 yilda I. Akbarov va M. Burhonovlar bilan hamkorlikda quyidagi o'zbek kinolariga ham musiqa yaratgan: «Orol baliqchilari» va 1959 yili «Maftuningman» (rej. Y. A'zamov), o'zi mustaqil ravishda esa quyidagi kinofilmlarga musiqa bastaladi: «Mahallada duvdud gap» (rej. SH. Abbosov, 1960 y.), «Bloknotdan varaqa», 1966 yili «Sayyot qo'ng'irog'i» (rej. Y. A'zamov), 1969 yili «O'tgan kunlar» (rej. I. A'zamov). 1971 yili rejissor L. Fayziev kompozitor M. Levievning «Suhayl va Mehri» baleti asosida «Jonli miniatyuralar» nomli kinofilm yaratdi.

M. Leviev yakkaxonlar, raqqosalar, turli cholg'u va vokal ansambllar, xor va orkestr, «Bahor» raqs ansambli va filarmoniya «Ashula va raqs» ansambllar repertuarlarini boyitish maqsadida juda ko'p asarlar yaratdi. Ulardan ayrimlarining nomlarini eslatib o'tsak kifoya: «Fizkulturachilar paradiga» maxsus yozilgan musiqa (1947 y.), «YOrqin yo'l» (T. To'la so'zi, 1947 y.), «Oq oltin» (M. SHayxzoda so'zi 1958 y.) kantatalar, o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestri uchun 5 qismli «YOshlik» syuitasi, «Qahramonlik» uvertyurasi, «SHodiyona» poemasi, xor va yakka ijrochi bilan, «Paxta bayrami» syuitasi, «Gulla, yashna O'zbekiston» syuitasi va boshqalar.

M. Leviev ijodiy ishlari bilan respublikamiz musiqa san'atining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi va katta musiqa meros qoldirdi. U 1961 yili «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi», 1972 yili «O'zbekiston xalq artisti», 1979 yili Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Bir necha medallar, O'zbekiston va Belorusiya hukumatining faxriy yorliqlari bilan tag'dirlangan.

Tayanch tushunchalar:

- 1.«Ko'k ko'ylak» - Ali Ardobus Ibragimov tuzgan 120 kishidan iborat ansambl. Mazkur ansamblning musiqa rahbari T. Sodiqov edi.
2. Turkmaniston Respublikasi Kerki shahri - 1929 yili O'zbekiston yoshlar markaziy qo'mitasi buyrug'i bilan o'zbek teatriga yordam berish uchun M. Leviev ishga yuborilgan shahar.
3. Leningrad musiqa texnikumi - 1933 yili M. Leviev shu texnikumning nazariy kompozitorlik bo'limiga o'qishga kirgan.
4. «O'zbek o'g'li», «SHerzodlar», «Biz Vatan farzandlarimiz» «Jang maydonimiz», «Vatan chaqirig'i», yakkaxon, xor va orkestr jo'rligida «Bog' ko'cha» va «Farg'ona»,

- «Go`zal oy» - Urush yillari M. Leviev vatanparvarlik va lirik ruhda yaratgan asarlar.
5. «Suhayl va Mehri» -balet. 1948 yilda sahna yuzini ko`rgan (qayta qo`yilishi 1967 y.) Navoiyning «Sab`ai sayyor» dostoni asosida yozilgan.
6. «Oltin ko`l» - musiqali drama. 1949 yil Muqimiy nomidagi musiqali teatrda sahnada qo`yilgan.
7. «Toshbolta oshiq», «Ajab savdolar», «Zamonali - Omonali», - Leviev kuy bastalagan spektakllar.
8. «Mahallada duv - duv gap», «Bloknotdan varaqa», «Sayyot qo`ng`irog`i» «O`tgan kunlar» - kompozitor Leviev kuy bastalagan kinofilmlar.

Nazorat savollari:

1. Kompozitorning bolalik va talabalik yillari haqida ma`lumot bering.
2. Kompozitor Manas Levievning vokal ijodiga xarakteristika bering.
3. Kompozitor Manas Levievning fortepiano ijodiga xarakteristika bering.
4. Kompozitor Manas Levievning opera va balet ijodiga xarakteristika bering.
5. Kompozitor Manas Levievning simfoniya ijodiga xarakteristika bering
6. Kompozitor Manas Levievning musiqali drama ijodiga xarakteristika bering.

Adabiyotlar:

1. Музыкально- энциклопедический словарь. Москва. 1990 г.
2. F.Karomatov. Voprosy muzykoznaniya (materialy simpoziuma) 1980 g.
3. A.Jabborov.T. Solomonova.Kompozitorы i muzykovedы Uzbekistana. Toshkent.1975.
4. A. Jabborov. O`zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
5. YU.Rajabiy. I. Akbarov. O`zbek xalq musiqasi tarixi, (O`qituvchi). 1981 yil.
6. T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. O`zbek xalq muzikasi VII tom. Toshkent 1960
2. O`zbek xalq muzikasi IV tom. Toshkent 1960

Ma`ruza № 9

Kompozitor Doni Zokirov (1914-1985) ning hayoti va ijodi

Reja:

1. Kompozitor Doni Zokirovning bolalik va talabalik yillari.
2. Kompozitor Doni Zokirovning vokal ijodi.
3. Kompozitorning simfoniya ijodi
4. Kompozitor Doni Zokirovning kino va musiqali drama sohasidagi ijodi.

O'zbekiston xalq artisti, sozanda, dirijor, murabbiy, jamoat arbobi, kompozitor Doni Zokirov ajoyib qo'shiq, romans, musiqali drama, balet, simfonik va xalq cholg'ulari orkestri uchun bastalagan musiqa asarlari bilan XX asr o'zbek musiqa madaniyatini boyitdi.

D. Zokirov Samarqand shahrida 1914 yilning 28 dekabrda tug'ildi. Otasi Rajabov Zokirjonning avlod - ajdodi, bobokalonlari asli Qarshi shahrida istiqomat qilishib, sandiqsozlik hunari bilan shug'ullanishgan. Otasi yoshligida Samarqandga kelib, ajdodlari hunarini davom ettirgan edi. U bolaligidan musiqaga kiziqib, o'zi ham ishdan bo'sh vaqtlarida ashula - qo'shiqlarni hirgoyi qilib, dutor chertar edi. Uning hirgoyilari va to'y - tomoshalarda eshitgan kuy - qo'shiqlari Donini maftun qilar edi. Undagi nay, dutor va g'ijjak chalishga qiziqishni sezgan otasi dong'i chiqqan san'atkor Muhiddin Mavlonov ustozga shogird qilib beradi. D. Zokirov o'zbek va tojik xalq musiqa merosini o'zlashtirishda nimaga erishgan bo'lsa, bular zaminida faqat ustozining beminnat, bebaho mehnati bordir. Onasi Munavvarxon tabiatan muloyim, xushmuomala, zuko, o'qimishli ayol edi. U yosh Doni va boshqalarga arabcha alifboni o'rgatar edilar. Musiqa tinglashni sevardilar. D. Zokirov 1926 yili o'rta ta'lim maktabiga o'qishga boradi va maktabdagi musiqa to'garagiga qatnashadi. 1928 yili Samarqandda kompozitor, dirijor N. N. Mironov rahbarligida musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot instituti tashkil topdi. Mazkur institutga D. Zokirov 1929 yili kirganida u erda o'qiyotgan Mutal Burhonov, Tolibjon Sodiqov, Manas Leviev va Olimjon Halimovlar bilan do'st bo'lib, birga ustozlardan saboq olib, turli tadbirlarda faol qatnashadi. O'sha yili mohir san'atkor Ali Ardobus tashkil qilgan «Ko'k ko'ylak» nomli teatrlashtirilgan to'garakka ularni taklif qilishadi, Tolibjon Sodiqov esa musiqa rahbari bo'ldi. Bu davrda, ya'ni 1929 - 32 yillar D. Zokirov institutda o'qidi, 1929 - 35 yillari respublika musiqali drama teatrida sozanda bo'lib ishlaydi. Mazkur teatni tashkil qilgan ulug' san'atkor Muhiddin Qoriyoqubov, Tamaraxonim, Usta Olim Komilov va boshqa mashhur san'atkorlar bilan tanishadi, birga ishlaydi. Institutda Ota Jalol, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdurahmon Umarov, Abduqodir Ismoilov, Ahmadjon Umrzoqov, Matyusuf va Matyoqub Xarratovlar va boshqa san'at jamoalarida ishlagan ustozlardan saboq olgani uning uchun katta maktab bo'ldi. 1936 yilda Toshkentda O'zbekiston davlat filarmoniyasi ochilib, uning qoshida T. Jalilov rahbarligida ashula va raqs ansambli tashkil topdi. D. Zokirovni shu ansamblga kontsertmeyster lavozimiga taklif qilishdi. Mazkur ansambl bilan el qatori 1937 yil Moskvada o'tgan O'zbek san'ati va adabiyoti dekadasida qatnashishga muyassar bo'ladi. O'sha yili Moskvadan qaytilgandan keyin Tamaraxonim filarmoniyada alohida ansambl tuzdi va D. Zokirovni shu ansamblga musiqa rahbari etib tayinlashdi. 1940 - 48 yillari Muqimiy nomidagi musiqali teatrdan ikkinchi dirijor lavozimida ishlaydi. 1948 - 53 yillari O'zbekiston davlat radio eshittirish komiteti qoshidagi O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrida dirijor bo'lib ishlaydi. 30 - yillardan buyon ijrochilikdan tashqari, turli mavzularda klassik va zamondosh shoirlarning she'rlariga qo'shiq, ashula va spektakllarga musiqalar yaratib kelsa ham ko'p ovozli musiqa vosita uslublari, shakl va janrlarini, qoidalarini va G'arbiy Ovrupo va rus klassik kompozitorlarining ijodiy faoliyatlarini va musiqa fanlaridan bilim olish niyatida 1940 - 42 yillar Toshkent davlat konservatoriyasining tayyorlov kursida o'qiydi. Lekin urush kasofati bilan o'qishni tashlashga majbur bo'ladi. 1947 yili tayyorlov kursida o'qishni davom qildirib Hamid Rahimov va Dadaali Soatqulovlar bilan birga kompozitor B. B. Nadejdindan kompozitorlik, mutaxassislik, YU. N. Tyulindan

garmoniya, polifoniya, A. F. Kozlovskiydan cholg'ulashtirish va dirijorlik, I. A. Dulgarova va YAn B. Pekkerdan musiqa tarixidan saboq oladilar. 1948 yili konservatoriyaning asosiy kompyuzitorlik kulliyotida mazkur domlalarda o'qishni davom etib, 1953 yili o'qishni muvaffaqiyatli bitiradilar. D. Zokirov 1953 yili filarmoniya qoshidagi O'zbek ashula va raqs ansambliga badiiy rahbar lavozimiga tayinlanadi. 1957 yili O'zbekiston radio eshittirish qo'mitasi qoshidagi O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestriga bosh dirijor va badiiy rahbar lavozimiga tayinlanadi. Mazkur lavozimda 1983 yilga qadar faol ishladi va nafaqaga chiqdi.

D. Zokirov 30 - yillarda teatr va ansambllarda sozanda bo'lib ishlab yurgan paytlarida raqs kuylari, qo'shiq va ashulalar bastalay boshlagan. Uning birinchi yirik ijodi 1934 yili Z. Fatxulinning «G'unchalar» p'esasi uchun bastalagan musiqadir. Bu spektaklga musiqa tayyorlashda u xalq musiqasidan foydalanib, ko'p qismlarni mustaqil ravishda yaratgan. U ilk ijodiy yutug'idan keyin mumtoz va zamonaviy shoirlar she'rlariga qo'shiq va ashulalar yaratadi. SHu jumladan urush yillari «Ona orzusi» (Mirtemir), «Zafar topib» (S. Abdulla), «Ol qasos» (M. Rahmonov), «Jangda bardam bo'l» (S. Abdulla) kabi vatanparvarlik mavzusidagi qo'shiqlar; Navoiyning she'rlariga «Orazi» va «O'rtanur» fortepiano jo'rligida qo'shiqlar, simfonik orkestr uchun 1 - syuita: O'zbek xalq cholg'ulari ansambliga 3 qismli «Mehnat fronti» nomli syuita, CHustiyning tojik tilida yozgan uchta she'riga «Jon mediham», «In tui» va «CHehrai handed» lirik qo'shiqlar; bastakor N. Hasanov bilan hamkorlikda «Orzigul» va mustaqil ravishda «YOriltosh» spektakllariga musiqa bastaladi.

D. Zokirov musiqali sahna asarlar yaratishga katta e'tibor berdi. U B. F. Gienko bilan «So'nmas chiroqlar» (A. Bobojonov va M. Muhamedov p'esasi) musiqali dramani (1953 y.) yozdi. 1954 yili S. Boboev bilan «Dalada bayram» (SH. Sa'dulla p'esasi) musiqali komediya va 1956 yil «Vatan qirg'oqlari» (SH. Sa'dulla va Z. Fatxullin p'esasi) musiqali drama; 1960 yil B.F.Gienko bilan «YOshlikda bergan ko'ngil» (Z. Fatxullin p'esasi) musiqali drama; 1962 yil «Hayot mash'ali» (S. Ismoil p'esasi) musiqali drama; 1970 yil K. Jabborov bilan «Mening jannatim» (S. Abdulla p'esasi) musiqali drama; 1978 yili xalq ertagi asosida «SHahzoda va etim qiz» (R.Hamroev p'esasi) musiqali dramalari tomoshabinlar tomonidan yaxshi kutib olindi. A. Navoiy nomidagi opera va balet teatri sahnasida 1956 yili B. F. Gienko bilan «Oynisa» (Litvinova librettosi) baleti; H. Olimjonning «Zaynab va Omon» dostoni asosidagi shoir Zulfiya librettosiga T. Sodiqov «Zaynab va Omon» operasini boshlab qo'ygan edi. Kompozitor vafot etgani sababli opera tugallanmay qolgan edi. 1958 yil ushbu opera musiqasini YU. Rajabiy, D. Zokirov, B. Zeydman bilan hamkorlikda tugatib, tomoshabinlarga havola etishdi.

D. Zokirov kompozitor M. Ziv bilan hamkorlikda quyidagi badiiy kinofilmlarga musiqa bastaladi: 1955 yil «Amirlikning emirilishi» (rejissor L. Fayziev va V. Basov); 1956 yil «Qutlug' qon» (rejissor A. Pann); 1964 yil «Ulug'bek yulduzi» (rej. A. Pann); kompozitor A. Malaxov bilan hamkorlikda 1964 yili «Qaydasan, Zulfiya» yoki «YOr - yor» (rej. A. Hamroev) D. Zokirovning shu filmga yozgan «Ko'chalar» (T.To'la so'zi) qo'shig'i mashhur bo'lib ketgan. D. Zokirov simfonik orkestr uchun bir necha asarlar yaratdi. Ularning orasida uch qismli simfonik syuita hamda «Hamza» nomli simfonik poemasi yaxshi baho olgan.

D. Zokirovning ijodiy merosida qo'shiq, romans, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri va yakka cholg'ular uchun mo'ljallangan Musiqa asarlar etakchi o'rinni egallaydi. Uning

Navoiy she'rlariga bastalangan «Qo`rmadim», «Ey, sabo», «Bo`lmasa», «Ayb etmangiz», Turob To`la she'riga «Bulbul» nomli romanslari simfonik orkestr jo`rligida D. Mullakandov, H. Nosirova, S. Kobulovalar ijrosida mashhur bo`lib ketgan edi. Kompozitor turli mavzularda, yakkaxon, xor, turli cholg`ular va orkestr jo`rligida ijro etiladigan yuzdan ortik qo`shiq, ashula, ommaviy xor qo`shiqlar yaratdi. Ular orasida «O`zbekistonim» (A. Niyozmurodov so`zi), «Tinchlik qo`shig`i», «Paxtakor diyor», «Kosmos biznikqi», (M. Koriev so`zlari); «SHifokorlarga», «Terimchilarga», «Do`stlarga», «Ona diyor» (A. Po`lat so`zlari); «Toshkent okshomi» (Nazarmat so`zi); «Suv keldi, hayot keldi» (O`. Rashid so`zi); «Dugonalarga» (Nilufar so`zi); «Do`stlik qo`shig`i», «CHO`pon qo`shig`i», «Tinchlik qo`shig`i» xor uchun (P. Mo`min so`zlari), «Ikqi dil dostoni» (Z. Obidjon so`zi), «YOr istab» (Z. Furkat she'ri); «Hayot gulshani» (N. Narzullaev so`zi) kabi qo`shiqlar yorqin misol bo`la oladi. Ayniqsa, kompozitorning yakkaxon, xor va o`zbek xalq cholg`ulari orkestri uchun yozgan ko`p qismli asarlardan: «Qarshi cho`li gullari» (M. Qoriev so`zi) 5 qismli vokal - syuitasi; «Asrlar sadosi» (Oybek so`zi) 4 qismli kantatasi; «Obi hayot» (O`. Rashid so`zi) 4 qismli vokal - syuitalar olqishga sazovordirlar.

SHuni alohida aytish lozimqi, o`zbek klassik musiqa namunalarining ayrimlarini D. Zokirov maxorat bilan qayta ishlab, o`zbek xalq cholg`ulari orkestri, yakka cholg`ular va orkestrga moslashtira olgani kompozitorning katta ijodiy yutuqlaridandir. Bular: orkestr uchun «YOvvoyi CHorgoh», g`ijjak va orkestr uchun «Qaytarma», «Fig`on», «CHO`li Iroq», bolabon va orkestr uchun «SHarob», nay va «Farg`onacha», «Gadoiy», orkestr uchun «Jazoir»; orkestr uchun «Navo», «Savti navo», «Ufari navo», «Garduni segoh», «Tasnifi dugoh», «Muhammasi iroq», «Nasrulloiy», «Mirza davlat», «YOlg`iz»; tanbur va orkestr uchun «Rajabiy». kabilardir. Mazkur asarlar respublikamizdagi professional orkestrlar repertuaridan keng o`rin olishi bilan musiqa o`quv yurtlarining xalq cholg`ulari orkestri dasturiga ham kiritilgan. D. Zokirov bolalar uchun P. Mo`min she'rlariga «Sayohat - rohat», «Kungaboqar», «Oppoq qantim», «Sirdaryo, Sirdaryo», «Kapalak va handalak», «Bog`da pishdi uzumlar», «Do`lona», U. Rahmonov so`ziga «Bolalar vals», «Bahor vals», R. Bobojon so`ziga «Olma», YU. Hamdam so`ziga «Badan tarbiya», YO. Mirzo so`ziga «Maktabim», YU. Hamidiy so`ziga «Baxtiyor qo`shig`i», M. Haydar so`ziga «YAngi yil qo`shig`i» va «Beqiyos diyor» kabi qo`shiqlarni bag`ishlagan.

1950 yili «O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan artist», 1956 yili «O`zbekistonda xizmat qo`rsatgan san`at arbobi», 1965 yili «O`zbekiston xalq artisti» faxriy unvonlarga sazovor bo`ldi. Orden, medallar va faxriy yorliqlar bilan mukofotlandi.

Tayanch tushunchalar:

1. Muhiddin Mavlonov - D. Zokirovning birinchi ustoz.
2. 1936 yilda Toshkentda O`zbekiston davlat filarmoniyasi. 1936 yilda Toshkentda ochilgan. Uning qoshida T. Jalilov rahbarligida ashula va raqs ansambli tashkil topdi. - D. Zokirov shu ansamblda kontsertmeyster lavozimida ishlagan.
3. O`zbek san`ati va adabiyoti dekadasi - 1937 yil Moskvada bo`lib o`tgan. SHu dekadada D. Zokirov ham qatnashishga muyassar bo`lgan.
4. «YOriltosh» - D. Zokirov musiqa bastalagan spektakl.
5. «So`nmas chiroqlar» - B. F. Gienko bilan yozilgan musiqali drama (1953 y.)

6 «Ko`rmadim», «Ey, sabo», «Bo`lmasa», «Ayb etmangiz», «Bulbul» - D. Zokirov yaratgan vokal asarlari.

7 «YOvvoyi CHorgoh», «Qaytarma», «Fig`on», «CHo`li Iroq», «SHarob», «Farg`onacha», «Gadoiy», «Jazoir»; «Navo», «Savti navo», «Ufari navo», «Garduni segoh», «Tasnifi dugoh», «Muhammasi iroq», «Nasrulloiy», «Mirza davlat», «YOlg`iz»; - D. Zokirov mahorat bilan qayta ishlab, o`zbek xalq cholg`ulari orkestri, yakka cholg`ular va orkestrga moslashtirgan asarlar.

8 «Sayohat - rohat», «Kungaboqar», «Oppoq qantim», «Sirdaryo, Sirdaryo», «Kapalak va handalak», «Bog`da pishdi uzumlar», «Do`lona», «Bolalar valsi», «Bahor valsi» - D. Zokirov bolalar uchun yaratgan qo`shiqlar

Nazorat savollari:

1. Kompozitor Doni Zokirovning bolalik va talabalik yillari haqida ma'lumot bering.
2. Kompozitor Doni Zokirovning vokal ijodiga xarakteristika bering
3. Kompozitorning simfoniya ijodiga xarakteristika bering
4. Kompozitor Doni Zokirovning kino va musiqali drama sohasidagi ijodiga xarakteristika bering
5. Kompozitor Doni Zokirovning bolalar musiqasi sohasidagi ijodiga xarakteristika bering

Adabiyotlar:

1. Музыкално - энциклопедический словарь. Москва. 1990 г.
2. F.Karomatov. Voprosy muzykoznaniya (materialy simpoziuma) 1980 g.
3. A.Jabborov.T.Solomonova. Kompozitorы muzykovedы Uzbekistana.Toshkent.1975.
4. A. Jabborov. O`zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
5. YU.Rajabiy. I. Akbarov. O`zbek xalq musiqasi tarixi, (O`qituvchi). 1981 yil.
6. T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. O`zbek xalq muzikasi. VII tom. Toshkent 1960
2. O`zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

Ma`ruza № 10

Kompozitor M. Nasimov hayoti va ijodi (1914-1998)

Reja:

1. Kompozitor M. Nasimovning bolalik va talabalik yillari.
2. Kompozitor M. Nasimovning vokal ijodi.
3. Kompozitor M. Nasimovning fortepiano ijodi.
4. Kompozitor M. Nasimovning opera va balet ijodi.

5. Kompozitor M. Nasimovning simfoniya ijodi
6. Kompozitor M. Nasimovning musiqali drama ijodi.

O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artist, professor, kompozitor va dirijor Mardon Nasimov o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. Ijodkorlik faoliyatida asosan ovoz uchun musiqa yaratishga katta e'tibor berib, yakkaxon, jo'rovoz ansambl va xor jamoalariga qo'shiq, ashula, kantata, syuitalar bastalab, hurmat - ehtiromga sazovor bo'ldi.

Mardon Nasimov Samarqand shahrida 1914 yilning 1 aprelida to'quvchi kosib oilasida tug'ildi. U 3 yoshida otasidan, 10 yoshida onasidan ayriladi va amakisi xonadonida tarbiyalandi. Mardon bolalikdan musiqaga qiziqadi, ayniqsa, nay sadolarida maftun bo'lardi. 8 yoshida umumta'lim maktabiga o'qishga chiqadi va 1929 yili 5 - sinfni bitirib, Samarqand davlat musiqa va xoreografiya institutiga o'qishga kiradi. Mardon mashhur naychi, ustoz A. Ismoilovdan nay, A. Umrzoqovdan qo'shnay chalishni, Ota Jalol va Domla Halim Ibodovdan Buxoro shashmaqomi, M. Xarratovdan Xorazm maqomlaridan saboq oladi. U intitutda o'qib yurgan paytida mashhur san'atkor Ali Ardobus tomonidan tashkil etilgan «Ko'k ko'ylak»lilar to'garagida naychi bo'lib ishladi. 1934 yili M. Qoriyoqubov tashabbusi bilan Moskva davlat konservatoriyasi qoshida ochilgan O'zbek opera studiyasida xor dirijorligi ixtisosligini o'zlashtirish uchun o'qishga qiradi. 1939 yili bir guruh san'atkorlar bilan birgalikda Katta Farg'ona kanali qurilishida ishchilarga berilgan kontsertlarda xizmat qildi. Moskvadagi o'qishini 1941 yilda bitirib, Toshkentga qaytadi va Navoiy nomidagi opera va balet teatrida xormeyster vazifasida ishlaydi. 1943 yili SHimoliy - g'arbiy frontda o'rta osiyolik askarlar orasida madaniy - ma'rifiy ishlarini olib borish uchun instruktor etib tayinlanadi. «Farhod GES» qurilishi boshqarmasi qaramog'idagi musiqali teatrdan M. Nasimov 1944 - 46 yillarda badiiy rahbar va bosh dirijor lavozimida ishlaydi.

M. Nasimov dirijorlik malakasini yanada oshirish maksadida 1946 yili imtihonlarni topshirib, Leningrad davlat konservatoriyasi opera - simfonik fakultetiga o'qishga kiradi va professor Musindan ta'lim oladi. Dirijor -simfonist diplomi bilan 1951 yili Toshkentga qaytgach, u O'zbek davlat filarmoniyasiga badiiy rahbar va simfonik orkestr dirijori lavozimlariga tayinlanadi. Mazkur dargohda 11 yil ishlab, 1963 yili Toshkent davlat konservatoriyasining o'zbek xalq cholg'ulari fakultetida dirijorlik mutaxassisligidan dars berish uchun taklif qilinadi. Konservatoriyada u o'qituvchilikdan professorlikacha yo'lni bosib o'tdi.

M. Nasimov ijrochilik, ma'muriy va tashkiliy ishlar bilan band bo'lishiga qaramay, musiqa yaratishga vaqt topdi va yakkaxon vokal ansambllar va xor uchun turli mavzularda qo'shiq, ashula, xor syuitalari va kantatalar yozdi. U Vatanni, mehnat ahlini, muhabbatni, umuman insonning nozik his - tuyg'ularini sadolarda ifodalashga ijodini bag'ishladi.

M. Nasimovning 100 dan ortiq turli mavzularda yozilgan qo'shiqlari orasida «Tinchlik bog'i» (T. To'la so'zi), «Qor bosgan tog'lar» (G'. G'ulom so'zi), «Barno qiz qo'shig'i», «Askar yigit qo'shig'i» (Sayyor so'zi), «Hislarimni sochmoqdaman», «Soyabon bo'layin» (Mirtemir, Sayyor so'zlari), «YUr, o'rtoq», «Bayram vals» (K.

Otaboev soʻzi), «Bugun bayram» (R. Tolib soʻzi) kabi qoʻshiqlar xonandalar ijrosida mashhur boʻlgan. Ayniqsa, uning radio qoshidagi xor va Oʻzbek davlat filarmoniyasi qoshidagi akademik xor jamoalari uchun joʻrli va joʻrsiz xor asarlari: «Jon Oʻzbekiston», «Navroʻzim» (H. SHaripov soʻzlari), «Bayram vals» (K. Otaboev soʻzi), «Doʻstlik qoʻshigʻi» (H. Syaitov soʻzi), simfonik orkestr joʻrligida «Marhabo» (M. Qoriev soʻzi), «Paxtakorlar» (P. Moʻmin soʻzi), oʻzbek xalq cholgʻulari orkestri joʻrligida «Toshkent, goʻzal diyorimsan» (R. Tolib soʻzi), «Samarqand obroʻ murodim» (Qambar ota soʻzi), «Hushyor yor» (YA. Qurbon soʻzi), «Gul ochilar» (R. Tolib soʻzi), «Mening tovushim» (Oybek soʻzi), Moskvada Oybekning yubiley kechasida birinchi bor ijro etilgan «Mening yorim vafoli» (H. SHaripov soʻzi), «Bir dildor bor ekan» (K. Muhammadiy soʻzi), «Amir Temur», «Turon yurt posbonimiz», «Qolar», «Har oshiqqa besh kun davron», «Talabalaru talabalar» (Qambar ota soʻzlari).kabilar juda mashhur boʻlb ketgan edi

M. Nasimovning ajoyib, dilrabo, joʻshqin, koʻp qismli asarlari «Dehqonga taʻzim», «Dilbarim», «Oʻzbekiston diyorim» (H. SHaripov soʻzlari), «Oʻzbekcha toʻy syuitasi» (xalq soʻzi), yakkaxon, xor va orkestr uchun bastalagan syuita va «Tinchlika tinchlik» (H. Gʻulom soʻzi) kantatasi juda mashhurdir.

Kompozitor bolalar uchun «Ahmad bogʻbon», «Bulbulcham», «Doʻstlik chamanzori», «YOsh fizkulturachilar marshi», «YOsh sayohatchilar qoʻshigʻi» kabi qoʻshiqlar yaratgan. SHuningdek, dutor va fortepiano uchun «Ufori sanam»; chang va fortepiano uchun ikkita pʻesa; nay va fortepiano uchun «Elegiya», chang va fortepiano uchun «Bayram vals», nay va oʻzbek xalq cholgʻu orkestri uchun «Elegiya», «Lirik raqs», xor uchun qayta ishlagan qoraqalpoq xalq qoʻshiq va lapar, ikkita rubob va fortepiano uchun «Ballada», xor va simfonik orkestr uchun poema va ballada (M. SHayxzoda soʻzi), xor va simfonik orkestr uchun «SHarq» qasidasi (Oybek soʻzi) va boshqalar ham M. Nasimov qalamiga mansubdir..

Tayanch tushunchalar:

- 1 A. Ismoilov A. Umrzoqov, Ota Jalol Domla Halim Ibodov M. Xarratov – M. Nasimov saboq olgan ustozlar.
2. Oʻzbek opera studiyasi - Moskva davlat konservatoriyasi qoshida ochilgan. M. Nasimov xor dirijorligi ixtisosligini oʻzlashtirish uchun oʻqishga kirgan dargoh.
3. Leningrad davlat konservatoriyasi opera - simfonik fakulteti. - M. Nasimov dirijorlik malakasini yanada oshirish maqsadida 1946 yili oʻqishga kirgan va professor Musindan taʻlim olgan dargoh.
4. «Tinchlik bogʻi», «Qor bosgan togʻlar», «Barno qiz qoʻshigʻi», «Askar yigit qoʻshigʻi», «Hislarimni sochmoqdaman», «Soyabon boʻlayin», «YUr, oʻrtoq», «Bayram vals», «Bugun bayram» - M. Nasimov yaratgan qoʻshiqlar.
5. «Dehqonga taʻzim», «Dilbarim», «Oʻzbekiston diyorim», «Oʻzbekcha toʻy syuitasi» - M. Nasimovning yakkaxon, xor va orkestr uchun bastalagan syuita va kantatalari.
6. «Ufori sanam»; «Elegiya», «Bayram vals», «Elegiya», «Lirik raqs» - M. Nasimovning dutor va fortepiano, chang va fortepiano, nay va oʻzbek xalq cholgʻu orkestri uchun yaratgan asarlari.

Nazorat savollari:

1. Kompozitor M. Nasimovning bolalik va talabalik yillari haqida ma'lumot bering.
2. Kompozitor M. Nasimovning vokal ijodi haqida ma'lumot bering.
3. Kompozitor M. Nasimovning fortepiano ijodiga xarakteristika bering.
4. Kompozitor M. Nasimovning musiqali drama ijodiga xarakteristika bering.
5. Kompozitor M. Nasimovning bolalar musiqasi sohasidagi ijodiga xarakteristika bering

Adabiyotlar:

1. Музыкально - энциклопедический словарь. Москва. 1990 г.
2. F.Karomatov. Вопросы музыкознания (материалы симпозиума) 1980 г.
3. A.Jabborov.T. Solomonova. Композиторы и музыковеды
O'zbekiston.Toshkent.1975.
4. A. Jabborov. O'zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
5. YU.Rajabiy. I. Akbarov. O'zbek xalq musiqasi tarixi, (O'qituvchi). 1981 yil.
- 6.T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbek xalq muzikasi, VII tom. Toshkent 1960
2. O'zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

Ma'ruza № 11

Bastakor F. Sodiqovning hayoti va ijodi (1914-1977)

Reja:

1. Bastakor F. Sodiqovning yoshlik va talabalik yillari.
2. Bastakor F. Sodiqovning qo'shiq ijodi ijodi.
3. Bastakor F. Sodiqovning musiqali drama ijodi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, sozanda, bastakor va ustoz Faxriddin Sodiqov ijodiy, ijrochilik, muallimlik va jamoatchilik faoliyati bilan XX asr o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. U o'zbek mumtoz musiqa an'analarini izchil davom ettirib, o'ziga hos uslubda qo'shiq, ashula, kuy hamda boshqa shakl va janrlarda bir qator asarlar yaratib, xalqimiz hurmat - e'tiboriga sazovor bo'ldi. Bastakorning yaratgan musiqasi jo'shqinligi, shiradorligi, mazmundorligi ta'sirchanligi bilan tinglovchiga huzur bahsh etadi.

Faxriddin Sodiqov Toshkent shahrida 1914 yilning 13 mayida ishchi oilasida tavallud topdi. Olti yoshidan eski maktabda, so'ngra yangi maktabda ta'lim oldi. U bolaligidan musiqaga qiziqdi. Avval dutor chertishni mahalladagi katta yoshdagi bolalardan o'rgandi. Keyinchalik CHorsu guzarida joylashgan mashhur hofiz SHorahim SHoumarov tashkil etgan «Sanoi nafisa» jamoasi qoshidagi ansambl

chiqishlarini kuzatib bordi va tez orada ularga shogird bo`lib ham qoldi. Nug`monqori Mo`minzoda ustozidan chang chalish, Abdusolat Vahobov ustozdan dutor chertish mahoratiga ega bo`ldi. 1918 yili Turkiston xalq konservatoriyasi tashkil etilib, V. A. Uspenskiy rahbarligida esqi shahar bo`limi ochilishi munosabati bilan F. Sodiqov 1920 yildan boshlab ustozlardan saboq olishni davom ettiradi. 1924 yilda xalq konservatoriyasi negizida Toshkent davlat musiqa texnikumi ochilishi bilan 1926 yildan u erda o`qib, 1933 yili muvaffaqiyatli bitirdi.

Bastakor, changchi sozanda F. Sodiqov mehnat faoliyatini 1930 yili O`rta Osiyo temir yo`l qoshidagi klubida xalq cholg`ulari havaskorlar to`garagini tashkil qilishdan boshladi. 1928 yili o`tkazilgan sozandalar tanlovida F. Sodiqov qatnashib ikkinchi darajali, keyingi yilda esa birinchi darajali diplomga sazovor bo`ldi. 1933 yili u musiqali teatrga ishga qabul qilib, mashhur san`atkorlar bilan tanishdi, ular bilan ijodiy muloqotlarda bo`ldi. 1937 yilda Moskvada o`tadigan O`zbekiston san`ati va adabiyoti dekadasiga T. Jalilov boshchiligida 100 kishidan ortiq o`zbek ansambliga mohir sozandalar qatori F. Sodiqov ham ishlashga taklif qilindi. 1938 yili filarmoniya qoshida xotin -qizlardan iborat dutorchilar ansambli tashkil etilgach, u musiqa rahbari sifatida ishladi va bastakorlik ijodi bilan repertuarini boyitdi, ijrochilik mahoratini oshirdi va tez orada mashhur jamoaga aylantirdi. Urush yillari front kontsert brigadasining musiqa rahbari bo`lib, jangchilarga xizmat qildi.

1947 - 1953 yillari F. Sodiqov O`zbekiston radiosi qoshidagi o`zbek xalq cholg`ulari ansamblida changchi, 1953 - 1955 yillarda filarmoniyaning ashula va raqs ansambli sozandasi, 1955 - 1957 yillarda O`zbek davlat estradasida ansambl rahbari vazifasida ishladi.

1957 yilda F. Sodiqov YU. Rajabiy rahbarligidagi radio qoshida tashkil etilgan sozandalar ansamblga changchi etib taklif qilindi. 1959 yilda maqomchilar ansamblida changchi, 1961 yildan esa mazkur ansamblga musiqa rahbari etib tayinlandi va shu vazifada umrining oxirigacha ishladi. 1972 yilda Toshkent davlat konservatoriyasida yangi tashkil topgan SHarq musiqasi kafedrasida ishlab, maqom ijrochichigi bo`yicha talabalarga ustozlik qildi.

F. Sodiqov yaratgan noyob va barkamol musiqa asarlarni, ayniqsa, milliy qo`shiqchilik san`atining rivojlanishiga qo`shgan hissasini inobatga olgan holda 1967 yili O`zbekiston Bastakorlar uyushmasiga qabul qilindi.

F. Sodiqov musiqaning turli janrlarida ijod qildi, uning ijodida kuy, qo`shiq va ashula katta o`rin tutadi. U klassik va zamondosh shoirlar she`rlariga 300 dan ortiq asarlar yaratdi. Jumladan, G`. G`ulom so`ziga 1934 yili bastalagan «Hormang endi kolxozchilar», «Marhabo» (Mirtemir so`zi), «Vatandan minnatdorman», «Ey chehrasi tobonim» (Muqimiy so`zi), «O`ynasin» (Habibiy so`zi) ilk qo`shiq va lirik ashulalari tinglovchilarni o`ziga jalb qildi. Bastakor birin - ketin, yangi - yangi original qo`shiq va lirik ashulalar yaratishga muvaffaq bo`ldi. U yaratgan vatanni, mehnatni, tinchlikni madhiyalaydigan qo`shiqlar orasida «O`zbekistonim mening» (Uyg`un so`zi), «Hosil to`yi» (M. Qoriev so`zi), «Jahon bo`ylab bir ovoz yangrar» (K. Muhammadiy so`zi), «Tinchlik qo`shig`i» (U. G`ani so`zi), «Zarafshon» (A. Po`lat so`zi), «Gullar vodiysi» (T. To`la so`zi), «Vatan o`xshar quyoshga» (E. Rahim so`zi), «O`zbekiston oltini» (YO. Mirzo so`zi), «Botir cho`pon qo`shig`i» (K. Muhammadiy so`zi), «Oltin vodi» (Z. Obidov so`zi), «Terimchi qizga» (S.

Zunnunova soʻzi), «YOrim toʻqur hon atlas» (A. Bobojonov soʻzi), «Oʻlkam ipakka toʻlsin», «Ok oltin karvon - karvon» va «Mirzachoʻlning qiziman» (Z. Obidov soʻzlari) kabi qoʻshiqlar radio toʻlqinlarida muntazam jaranglab keldi. Bastakorning koʻplab qoʻshiq va ashulalari tabiatni, ishq - muhabbatni, insoniylikni, goʻzallikni madh etadi: «Sevgilim», «Tong shabodalari», «Uyalaman», «Hayo» (M. Qoriev soʻzlari), «YOr bilib», «Hoʻb de, jonim, «YOr boʻlsang deyman» (S. Zunnunova soʻzlari), «Bir goʻzal», «Oydin kechada» (Mirtemir soʻzlari), «Onajonim», «Ayb etma», «Hush havo chamanlarida», «Muborakbod», «Qoʻzim», «Mezbon boʻlay» (Z. Obidov soʻzlari), «Menga navbat», «SHirmonoy», «YOr boʻlmasa», «Goʻzal», «Zuhroga» (T. Toʻla soʻzlari), «Ochil nihol», «Soʻlim bahor», «Visol gulshani», «Vafo qoʻshigʻi», «Suv suluv qoʻshigʻi» (A. Isroilov soʻzlari), «Humor», «SHaydosiman», «Tashna kalbim» (YO. Mirza soʻzlari) kabilar shular jumlasidandir.

F. Sodiqov B. Gienko bilan hamkorlikda Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida sahna yuzini qoʻrgan «Ota oʻgʻli» (H. SHaripov pʻesasi) musiqali dramasi va T. Toshmatov bilan hamkorlikda «Inbuzarlar» (SH. Nizomiddinov pʻesasi) musiqali drama, S. Hayitboev bilan hamkorlikda «Saltanat larzada» (V. Saʼdulla pʻesasi) musiqali dramasi, D. Zokirov bilan hamkorlikda «Goʻzal» nomli telepostanovkalarga musiqa yaratdi. Oʻzbekiston radiosi qoshidagi oʻzbek xalq cholgʻulari orkestri uchun T. Toshmatov bilan hamkorlikda T. Toʻla soʻziga «YAngi Toshkent» nomli syuita va quyidagi qoʻshiqlarni yaratdi: «Koʻngil sen» (S. Qoʻqonbekov soʻzi), «Oʻzbekiston» (T. Rajabiy soʻzi), «Koʻnglida boʻlsa» (T. Moʻminov soʻzi). Bularan tashqari, u «Vatan marshi», «Qurilish marshi», Gulnor «Oʻzbekcha vals», «Oʻxsharsiz» kabi cholgʻu kuylarini yaratdi va Oʻzbekiston radiosining ramziy chaqiriq kuyini ijod qildi.

Ajoyib inson, mashhur bastakor, mashhur sozanda va ustoz F. Sodiqov XX asr musiqa sanʼatining rivojlantirishiga qoʻshgan hissasi uchun 1964 yili «Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi» faxriy unvoni bilan takdirlangan va orden, medallar bilan mukofotlangan.

Tayanch tushunchalar:

- 1.«Sanoi nafisa» - mashhur hofiz SHorahim SHoumarov tashkil etgan jamoa.
- 2.Nugʻmon qori Moʻminzoda, Abdusoat Vahobov – bastakorning ustozlari.
- 3.Turkiston xalq konservatoriyasi- unda V. A. Uspenskiy rahbarligida F. Sodiqov 1920 yildan boshlab ustozlardan saboq olishni davom ettirgan.
- 4.Toshkent davlat musiqa texnikumi - F. Sodiqov 1926 yildan u erda oʻqib, 1933 yili muvaffaqiyatli bitirgan.
- 5.«Oltin vodiy», «Terimchi qizga», «YOrim toʻqur xon atlas», «Oʻlkam ipakka toʻlsin» - F. Sodiqov yaratgan vatanparvarlik ruhidagi qoʻshiqlar
- 5«Oq oltin karvon - karvon», «Mirzachoʻlning qiziman» - F. Sodiqov yaratgan lirik qoʻshiqlar.

Nazorat savollari:

1. Bastakor F. Sodiqovning yoshlik va talabalik yillari haqida ma'lumot bering.
2. Bastakor F. Sodiqovning qo'shiq ijodi haqida ma'lumot bering.
3. Bastakor F. Sodiqovning musiqali drama ijodi haqida ma'lumot bering.

Adabiyotlar:

1. Музыкально - энциклопедический словарь. Москва. 1990 г.
2. F.Karomatov. Вопросы музыкознания (материалы симпозиума) 1980 г.
3. A.Jabborov.T. Solomonova. Композиторы и музыковеды Узбекистана.Ташкент.1975.
4. A. Jabborov. O'zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
5. YU.Rajabiy. I. Akbarov. O'zbek xalq musiqasi tarixi, (O'qituvchi). 1981 yil.
6. T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbek xalq muzikasi, VII tom. Toshkent 1960
2. O'zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

Ma'ruza № 12

Kompozitor Mutal Burhonovning(1916-2002) hayoti va ijodi

Reja:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari.
2. Mutal Burhonovning vokal - simfonik ijodi
3. Mutal Burhonovning vokal - xoreografik ijodi
4. Mutal Burhonovning vokal ijodi.
5. Mutal Burhonovning kino va musiqali drama sohasidagi ijodi.
6. Mutal Burhonovning xor ijodi

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi musiqasining muallifi, O'zbekiston xalq artisti, Hamza va Berdaq nomidagi Davlat mukofotlari sovrindori Mutal (Mutavakil) Burhonov hayoti va ijodiy faoliyati zamonaviy o'zbek professional san'atining rivojlanish tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu nodir iste'dod sohibi barkamol, shirador va jozibali asarlari bilan yurtimizni dunyoga tanitdi. Uning barcha asarlari originalligi, milliyligi bilan ajralib turadi. Kompozitorning qo'shiq va romansi, simfonik va vokal -simfonik asari, sahna va kino musiqasi tinglovchining qalbiga etib boradi. M. Burhonovning esda qoladigan kuylari ayni vaqtning o'zida murakkab hamdir. Chunki ular ohangdorligi bilan inson ichki dunyosining boyligi va muallifning nozik va sezgir tabiatini, o'y va histuyg'ularini ifoda etadi.

O'zbek xalqining asl farzandi Mutal Burhonov 1916 yil 5 - mayda Buxoro shahrida Bozori nav, Kavshi olak mahallasida (hozirgi Pushkin ko'chasi, 24 - uyda)

madrasa mudarrisi Muzainiddin Burhonov oilasida tug'ildi. Mutavakilning uch nafar amaqilaridan biri Mukammil Burhonov Buxoro jadidchilar harakati faollaridan bo'lgan,

Hayotning og'ir sinovlari boshiga tushgan M. Burhonov bolalik va o'spirinlik davrida avval eski diniy, so'ngra yangi maktablarida o'qidi. Bolaligidan musiqaga qiziqdi va mehr qo'ydi. Tanbur chalishni avval amakisi Mukammil Burhonovdan, keyin mashhur tanburchi Ota G'iyos Abdug'anidan o'rgandi. 1928 - 32 yillarda Samarqandda O'zbekiston musiqa va xoreografiya institutida ta'lim oldi. Mazkur o'quv maskanida ishlagan Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'ani, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdulaziz Rasulov, Abduqodir Ismoilov, Ahmadjon Umrzoqov, Matyoqub Xarratov, Abdurahmon Umarov kabi ustozlar saboqlari, Abdurauf Fitrat va Burhonovlar xonadonlarida S. Ayniy, A. CHO'lpon, Botu, Elbek, yosh H. Olimjon ishtirok etgan ijodiy kechalar M. Burhonov uchun unutilmas hayot va ijod maktabi bo'ldi.

O'qishni bitirgach, M. Burhonov 1932 - 35 yillarda Toshkentda Hamza va Dushanbeda Lohutiy nomidagi drama teatrlarida sozanda, musiqa rahbari lavozimlarida ishladi, musiqa bastalashga intildi. Kompozitorlik ta'limini olish orzusida u 1935 yili Moskva konservatoriyasi qoshida ochilgan «O'zbek opera studiya»sida tahsil ko'rdi. 1939 yilda Moskva konservatoriyasi asosiy kursida professor S. N. Vasilenko sinfida o'qishini davom ettirdi. Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan ko'ngillilar armiyasi safida Moskva shahri himoyasiga otlandi, 1942 yili esa qattiq betob bo'lib, Toshkentga qaytib davolandi, ijod bilan shug'ullandi. 1946 yildan o'qishini davom ettirib, 1949 yili Moskva konservatoriyasi kompozitorlik kulliyotini muvaffaqiyatli tugalladi.

Ajoyib inson, kompozitor M. Burhonov boshidan kechirgan qiyinchiliklar, uyushtirilgan tuhmatlar, uning metin irodasini sindira olmadi. «Haqiqat egiladi, lekin sinmaydi» deb o'ziga dalda berdi, ijod qildi va haqiqat yuzaga chikdi. Kompozitor ijodining asosiy qismini vokal musiqasi tashkil etadi. U talabalik davridayoq ilk ijodini atoqli shoir A. Lohutiy she'rlariga bastalagan «Ey bulbul» romansi va «Buti nozaninam» («Mening go'zalim») qo'shig'idan va Mashrab she'riga «Ishq o'ti», yakkaxon va simfonik orkestr uchun bastalagan balladasi kabilardan boshladi. Urush yillari «Jangchilar qo'shig'i» (Uyg'un so'zi), «Samolyot» (H. Olimjon so'zi), «Uchib ketasan» (Z. Diyor so'zi), «Paxtam ochilsa» (Kamtar so'zi) qo'shiqlar, «Ishqida» (Uyg'un so'zi), «Dilbarimo» (A. Lohutiy so'zi) romanslar paydo bo'ldi. M. Burhonov qalamiga mansub «Maftuningman» kinofilmida Botir Zokirov ijro etgan «Maftuningman», Klara Jalilova ijrosidagi «YUlduz qo'shig'i» va «Do'ppi tikdim ipaklari tillodan» (T. To'la so'zi), Laylo SHaripova ijro etgan «Bahor qo'shig'i» (T. To'la so'zi) va «Samolyotlar qo'nolmadi» kinofilmida arab ayolining qo'shig'i, YUnus To'raev ijrosidagi «Gul diyorim» (E. Vohidov so'zi) va «Go'zal Nukus shahrim» (I. YUsupov so'zi), Tamaraxonim ijro etgan «Go'zal Farg'ona» (A. Bobojon so'zi), «Uyg'ur qiziga» (Mamatoxunova so'zi), «Vatan qo'shig'i» (G'. G'ulom so'zi), «YOrim bor» (Mirtemir so'zi), «Go'zal O'zbekiston» (SHuhrat so'zi), «Boy ila xizmatchi» kinofilmidan Gulbahor allasi kabi ajoyib qo'shiqlar keng qanot yozdi. Darhaqiqat, M. Burhonov birinchilardan bo'lib romans janrini respublikamiz musiqa hayotiga joriy etdi, yangi yo'l ochib berdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bastakorning bu janrdagi asarlari orasida ulug' shoir Navoiy g'azaliga bastalagan «Tabassum qilmading» va Hofiz g'azaliga yakkaxon va simfonik orkestr uchun «Namedonam chi nom dorad» («Ismingni bilmayman») romans - poemasi alohida o'rin tutadi. Bu romans -poemani birinchi bor go'zal va yoqimli ovoz sohibi Toshkent konservatoriyasi dotsenti David Mulloqandov,

undan keyin Botir Zokirov ijro talqinida yangradi. «YUrak sadosi» (T. To`la she`ri), «Kelsa nogoh..» (N. Komilov she`ri), «Nega tark etding» (A. Fitrat she`ri), «Unutmas meni bog`im» (U. Nosir she`ri), «SHoir orzusi» (Mashrab so`zi) balladasi barkamol darajaga etkazilgan.

M. Burhonov vokal - simfonik janrlarda ham barakali ijod qildi. 1949 yilda yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun «Gullagay O`zbekiston» kantatasi, «Bahor qushlari» (S. Umariy so`zi) vokal - simfonik poemasi, «Oq oltin» (I. YUsupov so`zi) vals - qo`shiq poemasi. SHu asarni M. Turg`unboeva o`z vaqtida «Bahor» raqs ansambli uchun sahnalashtirgan va hujjatli film olingan. Alisher Navoiyning 525 yillik yubileyiga bag`ishlab A. Oripov bilan hamkorlikda «Alisher Navoiyga qasida» (1968 y.) vokal - simfonik poemasi, shu shoir bilan 1975 yili urushda halok bo`lganlar xotirasiga bag`ishlab xor va simfonik orkestr uchun «Epitafiya» marsiyasini yaratdi.

M. Burhonov birinchilardan bo`lib 50 - yillarning boshlarida o`zbek xalq qo`shiqlari «Go`zal qizga», «YOrlarim», tojik xalq qo`shiqlari «Sari qo`hi baland» va «Zarragul», qoraqalpoq xalq qo`shiqlari «Bibigul», «Ayriliq», uyg`ur xalq qo`shig`i «Sayra», qozoq xalq qo`shig`i «Dudaray», keyingi yillarda afg`on xalq qo`shig`i «CHashmi siyoh», eron xalq qo`shiqlari - «Guli gandum» va «Damkul - damkul» kabilarni akapella xori uchun moslashtirib, murakab ijodiy masalani muvaffaqiyat bilan echa oldi.

Noyob iste`dod sohibi M. Burhonov 1990 yilda Navoiy tavalludining 550 yilligiga bag`ishlab «Alisher Navoiy» operasini yaratdi. U Uyg`un va I. Sulton dramasini qayta ishlab, opera janriga moslagan holda libretto tuzib, jozibali musiqa yaratdi va u 1990 yilning oxirida Navoiy nomidagi O`zbekiston Davlat Akademik opera va balet katta teatrida sahna yuzini ko`rdi.

M. Burhonov ijodiy faoliyatida kino musiqasi ham muhim o`rin egallaydi. Uning 50 – 70 - yillarda «Boy ila xizmatchi» (rejissor L. Fayziev), «Abu Ali ibn Sino» (rej. K. YOrmatov), «Samolyotlar qo`nolmadi» (rej. Z. Sobitov), «Surayyo» (rej. U. Nazarov), «Tark etilgan kelin» (rej. Y. A`zamov) badiiy kinofilmlarga yozilgan musiqasi madaniyatimiz tarixida chuqur iz qoldirdi. M. Leviev va I. Akbarovlar bilan hamkorlikda «Maftuningman» va «Orol baliqchilari» kinofilmlariga yaratgan dilbar qo`shiqlari yangrab kelmokda.

Hamza nomidagi O`zbek davlat akademik drama teatrida sahnalashtirilgan: «Alisher Navoiy» (Uyg`un va I. Sulton p`esasi, 1943 y.), «Hikmat» (SH. Tuyg`un p`esasi, 1950 y.), «Boy ila xizmatchi» (Hamza p`esasi, 1953 y.) spektakllariga M. Burhonov musiqa bastalagan. Respublika qo`g`irchoq teatrida namoyish qilingan H. Olimjonning «Oygul va Baxtiyor» spektakliga ham kompozitor musiqa yaratgan. M. Burhonov «O`zbek xalq cholg`ulari orkestri» uchun «Mavrigi», har xil p`esalar, syuitalar, simfonik orkestr uchun syuitalar, skripka va violonchel ansambli uchun vals va p`esalar yaratdi. Bolalar xori uchun qator qo`shiqlar bastalagan.

M. Burhonov tabarruk 80 yoshlik to`yini yangi musiqa asarlar bilan kutib oldi. Jomiy do`sti Alisher Navoiyga bag`ishlab «SHiru shakar» she`riga qo`shiq, bolalar xori uchun «Vatan bizga mehribon» (M. Mirzo so`zi) qo`shig`i, akapella xori uchun «Buxoroi SHarif» (Rudakiy she`ri) qo`shiqlarini yaratdi. SHu bilan birga O`zbekiston musiqasi tarixida M. Burhonov birinchi bo`lib yakkaxonlar xor va simfonik orkestr uchun besh qismli «Abadiy xotira» nomli rekviem yaratdi. Bu asarda qatag`on yillari qurboni bo`lgan o`zbek xalqining ulug` farzandlari Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid

CHO'lpon, Usmon Nosir, Fayzulla Xo'jaev, kompozitorning katta akasi Misboh, amaqilari Masxariddin, Mukammil va Muammir Burhonovlar xotirasiga bag'ishlangan. Bu asar 1996 yil 14 mayda «Turiston» saroyida kompozitorning yubiley kechasiga bag'ishlangan kontsert dasturida ilk bor ijro etildi. S. Qobulova, F. Zokirov, badiiy so'z ustasi T. Mo'minov, A. Abduqodirov va Z. Haqnazarov rahbarligidagi milliy simfonik orkestr, xormeysterlar A. Hamidov va J. SHukurovlar rahbarliklaridagi qo'shma xor jamoalari qatnashgan edi.

Kompozitor Mutal Burhonov O'zbekiston musiqa madaniyatini rivojlantirishdagi buyuk xizmatlari uchun «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi», «O'zbekiston xalq artisti» faxriy unvonlariga sazovor bo'lgan, «Mehnat shuhrati» medali, O'zbekiston, Tojikiston va Belorusiya hukumatlari faxriy yorliklari bilan mukofotlangan. 1999 yili Mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning qo'lidan «Buyuk xizmatlari uchun» ordenini M. Burhonov qabul qilib olishga muvassar bo'ldi. M. Burhonov tavalludining 85 yilligiga bag'ishlangan yubiley kontsert Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatrida 2001 yil 17 mayda o'tdi. SHu munosabat bilan u «El - yurt hurmati» ordeni bilan tag'dirlandi. 2002 yil 24 mayda esa O'zbekiston davlat konservatoriyasining katta zalida M. Burhonov tavalludining 86 yilligi kontserti bilan nishonlandi. Kontsert dasturida kompozitorning ilgari bastalagan musiqa asarlari bilan birga 2002 yilda yaratgan ikkita yangi asari: skripka va kamer orkestr uchun «Lirik poema» YAyra Matyoqubova ijrosida va Buxoro universiadasi bag'ishlangan damli cholg'u orkestri uchun «Marsh»ni O'zbekiston ichki ishlar vazirligining «Namunali» damli cholg'ular orkestri ijro etdi. Mutavakil Burhonov Buxoro shahrida 2002 yilning 15 iyunida dunyodan ko'z yumdi.

Tayanch tushunchalar:

1. «O'zbek opera studiyasi» - 1935 yili Moskva konservatoriyasi qoshida ochilgan.
2. «Ey bulbul», «Buti nozaninam» («Mening go'zalim»), «Ishq o'ti» -kompozitorning talabalik davridagi ilk ijodi.
3. «Jangchilar qo'shig'i», «Samolyot», «Uchib ketasan», «Paxtam ochilsa», «Ishqida», «Dilbarimo» - kompozitorning urush yillari yaratgan qo'shiq va romanslari.
4. «Maftuningman», «YUlduz qo'shig'i» «Do'ppi tikdim ipaklari tillodan» «Bahor qo'shig'i», «Maftuningman» kinofilmidan M. Burhonov qalamiga mansub qo'shiqlar.
6. «Boy ila xizmatchi», «Abu Ali ibn Sino», «Samolyotlar qo'nolmadi»«Surayyo», «Tark etilgan kelin» M. Burhonov 50 – 70 – yillarda musiqa yaratgan badiiy kinofilmlar.
7. «Buxoroi SHarif» - xor uchun akapella.
- 8 «Vatan bizga mehribon» - bolalar xori uchun asar.

Nazorat savollari:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari haqida ma'lumot bering.
2. Mutal Burhonovning vokal - simfonik ijodiga xarakteristika bering.
3. Mutal Burhonovning vokal - xoreografik ijodiga xarakteristika bering.
4. Mutal Burhonovning vokal ijodiga xarakteristika bering.
5. Mutal Burhonovning kino va musiqali drama sohasidagi ijodiga xarakteristika bering.

Adabiyotlar:

1. Музыкально- энциклопедический словарь. Москва. 1990 г.
2. F.Karomatov. Voprosy muzykoznaniya (materialy simpoziuma) 1980 g.
3. A.Jabborov.T. Solomonova. Kompozitorı i muzykovedy Uzbekistana.Toshkent.1975.
4. A. Jabborov. O`zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
5. YU.Rajabiy. I. Akbarov. O`zbek xalq musiqasi tarixi, (O`qituvchi). 1981 yil.
6. T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. O`zbek xalq muzikasi, VII tom. Toshkent 1960
2. O`zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

Ma`ruza № 13

Kompozitor S. YUdakovning hayoti va ijodi. (1916-1992).

Reja:

1. Kompozitor S. YUdakovning yoshlik va talabalik yillari.
2. Kompozitor S. YUdakovning vokal ijodi.
3. Kompozitor S. YUdakovning fortepiano ijodi.
4. Kompozitor S. YUdakovning opera va balet ijodi.
5. Kompozitor S. YUdakovning vokal - simfonik ijodi
6. Kompozitor S. YUdakovning kino va musiqali drama sohasidagi ijodi.

O`zbekiston xalq artisti, Davlat mukofotlari sovrindori, kompozitor YUdakov Sulaymon Aleksandrovich XX asr o`zbek musiqasi tarixida yorqin va teran iz qoldirdi. Bu nodir iste`dod sohibi, atoqli kompozitor butun hayoti va ijodiy faoliyatini o`zbek musiqasi san`atini rivojlantirishga bag`ishladi. U turli janrlarda inson kalbini to`lqinlantiradigan, beixtiyor o`ziga tortadigan, ajoyib shirador, quvnoq, quyosh kabi charaqlaydigan, jozibali original qo`shiq va romanslar, simfonik va vokal - simfonik, opera va balet, turli cholg`u va kino musiqasi bilan dong chiqardi. Uning shuhrati xorijiy mamlakatlarga ham yoyildi.

YUdakov Sulaymon (Solomon) Aleksandrovich Qo`qon shahrida kambag`al kosib oilasida 1916 yilning 14 aprelida tavallud topdi. O`zining bolalik chog`larini eslab, shunday hikoya qilgan edi: «Onamga yordam berish uchun 7 yoshimdan boshlab Qo`qonning markaziy qo`chasida poyafzal tozalovchi bo`lib ishlar edim. Mening chaqqonlik bilan ikkiki cho`tkani oyoq qo`yadigan tumbochkaga urib, turli usul-sadolarni

jozibali chiqarishimga odamlar to'planib tomosha ham qilishar edi. Ishim yurishib, pul topadigan bo'ldim. Kunlardan bir kun qomati kelishgan, ovro'pacha kiyingan odam kelib o'tirib, etigini tozalattirdi va meni gapga soldi. Oilaviy ahvolimni va kechki maktabga endigina borganimni bilib, meni 1928 yili etim bolalar uyiga joylashtirdi. Menga otalik qilgan odamning ismi sharifini surishtirsam, Hamza Hakimzoda Niyoziy ekan.

Etim bolalar uyida madaniy - ma'rifiy ishlar yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. O'rta talim maktabida menga o'xshagan yoshi kattaroq bo'lgan bolalar uchun maxsus sinf tashkil etilgan edi. Bolalar uyida damli cholg'u asboblari orkestri tuzilgan bo'lib, orkestr raxbari menga fleyta chalish va notani o'rgatdi. U musiqa qobiliyatimni sezgan bo'lsa kerak, menga Moskvada o'qishga maslahat va yordam berdi. 1932 yili Moskva davlat konservatoriyasi qoshidagi «Rabfak»ning fleyta sinfiga o'qishga kirdim. 1934 yili «Rabfak»ni berkitishdi va konservatoriya qoshida Moskva davlat musiqa texnikumi ochildi. Meni kompozitor M. F. Gnesinning tavsiyasi bilan texnikumning nazariy, tarixiy, kompozitorlik bo'limi birinchi kursiga qabul qilishdi. Texnikumda damli cholg'u asboblari orkestriga ham qatnashib turdim. Kompozitsiyadan avval M. O. Mesnerdan, ikki yildan so'ng M. F. Gnesindan saboq oldim. 1938 yili texnikumni muvaffaqiyatli bitirdim. O'sha yili Moskva davlat konservatoriyasi professori, kompozitor R. M. Glier sinfida kompozitsiyadan ta'lim o'la boshladim. Kursni tamomlaganimda 1941 yili ikkinchi jahon urushi boshlandi va men Toshkentga qaytib keldim. Urush yillari faqat ijod bilan shug'ullandim. O'zbekiston kompozitorlari va Moskva, Leningrad, Kiev, Minskdan kelgan kompozitorlar va san'atkorlar bilan muloqotda bo'ldim. Kompozitorlar uyushmasida o'tkazilgan hamma tadbirlarda faol qatnashdim. Urushdan keyin, qariya onamga qaraydigan odam bo'lmaganligi sababli o'qishimni davom ettira olmadim. Lekin o'z ustimda doim ishladim, hamkasablarim bilan ijodim haqida o'rtoqlashib turdim».

S. YUdakov shu muhitda yashadi, o'qidi, dunyoni tanidi, muzika olamining mo'jizakor sirlarini o'rgandi, kompozitor bo'lib shakllandi. Moskva konservatoriyasida o'qib yurgan yillari turli cholg'u asboblari, ansambllarga musiqa yaratdi. Uning fortepiano uchun yozgan «Etud», «Prelyudiya», «Variatsiya», «Sonatina», fleyta va fortepiano uchun yozgan «Rondo», «Lirik kuy», Etud, skripka va fortepiano uchun yozgan «Skertso», «Sonatina», torli kvartet kabi sharq musiqa intonatsiyalari bilan sug'orilgan asarlarini konservatoriya talabalari qiziqib ijro qilishar edi. 1940 yili talaba - kompozitor S. YUdakov, istisno tariqasida, O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi safiga qabul qilindi.

S. YUdakovning mustaqil ijodiy faoliyati Ikkinchi jahon urushi yillarida boshlandi. U 1941 - 45 yillarda o'zbek o'g'loni, yurt qahramoni Qo'chqor Turdievga bag'ishlab «Oldinga bosing, o'rtoqlar!» va «Do'stlar» (A. Lohutiy so'zlari); «CHavandozlar qo'shig'i» (Mirtemir so'zi), «Jonga - jon, qonga - kon» (T.Fattoh so'zi) kabi vatanparvar ommaviy qo'shiqlar; «Habibi tu manam» (H. YUusufiy so'zi) romans; 1942 y. «Farzanad» (S. Ismoilzoda p'esi) musiqali drama, torli kvartet uchun 3 ta p'esa va syuita va simfonik orkestr uchun «Syuita» asarlarini yaratdi. Ijod bilan birga S. YUdakov 1941 - 42 yillarda Hamza nomidagi san'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutida ilmiy xodim bo'lib ishladi. 1943 - 44 yillarda Tojikiston filarmoniyasida badiiy rahbar lavozimida ishladi. Tojik shoirlarining so'zlariga bir qator qo'shiq va romanslar yaratdi. 1945 yili Tojikiston Davlat madhiyasini yozish uchun ko'rik tanlov e'lon qilindi. Mazkur tanlov uchun boshqa kompozitorlar qatorida S. YUdakov ham A. Lohutiy so'ziga madhiya yozdi. S. YUdakovning musiqasi tanlab olinib tasdiqlandi, hozirga qadar so'zi o'zgartirilgan

holda bu madhiya jaranglab kelmoqda.

1946 yili S. YUdakov Toshkentga qaytib keladi va ijodini davom ettiradi. T. To'la so'ziga xor, yakkaxon va simfonik orkestr uchun «G'alaba» (1945 y.) kantatasini yozdi. A. S. Pushkin so'ziga o'zbek, tojik va rus ohanglarini payvasta qilgan holda «Kuylama, sohibjamol», «Gurjiston tepaliklarida», «Bulbul», «Tungi mayin shabada», «Inezilya, men bu erdaman» (1945 y.) kabi romanslar; A. Lohutiy so'ziga «Afsonai dil» va «Tasfiri tu» (1946 y.) romanslar; shu yili skripka va fortepiano uchun yaratgan «SHarq poemasi» va yuqorida zikr qilingan «Kuylama, sohibjamol» romansi ijrochilarni va tinglovchilarni hozirga qadar maftun qilib kelmoqda. Bu ikki asar ijrochilarning turli avlodlari repertuar dasturlaridan munosib o'rin olib, eng ko'p ijro etiladigan asarlar sirasiga kiradi. Skripka, violonchel va fortepiano uchun «Syuita» (1946 y.); ikkita fortepiano uchun «Syuita» (1948 y.); simfonik orkestr uchun «Tantanavor uvertyura» (1949 y.); torli kvartet uchun «Syuita» (1949 y.); Navoiy so'ziga «Basandast» (1949 y.) romans, M. Mirshakar so'ziga «Alla» va «YAngi g'alabalar uchun» qo'shiqlar, shoir M. Tursun so'ziga xonanda, xor va simfonik orkestr uchun «O, qiz bola» qo'shig'i kabi turli janrlarda bastalagan bu asarlar o'lkamizning zamonaviy musiqa san'atiga yana bir iste'dodli, zabardast kompozitor mustaqil ravishda kirib kelganidan darak bergan edi. S. YUdakov asarlarida o'zbek va tojik xalqlari musiqasining ta'siri bo'lsada, ammo o'z uslubiga xos asarlar yaratishga e'tibor bergani ham yaqqol seziladi. 1948 yilda o'tgan O'zbekiston bastakorlar uyushmasining urushdan keyingi birinchi qurultoyida S. YUdakov hay'at a'zosi va simfonik musiqa komissiyasining raisi va o'sha yili Moskvada o'tgan Kompozitorlar uyushmasining birinchi qurultoyida taftish komissiyasining a'zosi etib saylandi. Kelgusida ham to umrining oxirigacha mazkur faxriy lavozimlarga saylanib keldi. 1951 - 53 yillarda S. YUdakov O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi hay'atining mas'ul kotibi bo'lib ishladi.

S. YUdakov mahoratining badiiy jihatdan etilib borishi muhim davri 50-80-yillarga to'g'ri keladi. Bu davr uning uchun yangi sinovlar va ijodiy yutuqlar davri bo'ldi. Qat'iy ichki intizomga ega bo'lgan kompozitor, shu vaqt orasida o'z ustida ishlab, professional kompozitorlik yozish texnikasini mukammal ravishda o'zlashtiribgina qolmay, ajoyib badiiy yuksak musiqa asarlari yaratishga muyassar bo'ldi. YAxshilik, ezgulik, birodarlik, do'stlikni ulug'ladi. Ezgu orzu - umidlar bilan xalqlarni safarbarlikka da'vat qildi. Kelajaka katta ishonch bilan qaradi. Bular uning asarlariga xos bo'lgan muhim hususiyatlardir. Bu o'rinda A. Muxtor so'ziga yozilgan «Jon O'zbekiston», «Mehnat shodligi», G'. G'ulom so'ziga «Qirg'iziston paxtakorlariga», SH. Rashidov so'ziga «Dugonalar», «Olamda gullar yashar», T. To'la so'ziga «Karnaval vals», A. Surkov so'ziga «Hindi-rusi bxay-bxay», «Tinchliksevarlar marshi», kabi jozibali, jo'shqin qo'shiqlar fikrimizning dalilidir. Ayniqsa, bu o'rinda kompozitorning 1950 yili G'. G'ulom so'ziga yozgan, 1951 yilda esa Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan 6 qismli «Mirzacho'l» nomli vokal - simfonik syuitasi; 1955 yilda T. To'la so'zlariga yozilgan: «Mening Vatanim» 4 qismli kantata, «Visol» (1965 y.) vokal poemalar, H. G'ulom so'ziga yozilgan «Muborakbod» 5 qismli kantata (bolalar xor jamoasi ham qatnashadi, 1972 y.), Mirtemir so'ziga yozilgan «Alyor», vokal xoreografik solist, xor va raqs jamoalari uchun (1972 y.), E. Vohidov so'ziga «O'zbekiston» nomli solist, xor va simfonik orkestr uchun poema - kantata (1973 y.), T. To'la so'ziga «G'alaba» nomli oratoriya (1975 y.) yorqin misol bo'la oladi. SHu nomli 1945 yilda yozilgan musiqasi asosida yaratilgan mazkur oratoriya

birinchi gal Navoiy nomidagi opera va balet jamoasi sahnasida qo'tarinki ruhda muvaffaqiyatli ijro etildi. SHuni aytib o'tish joizki, 50 - 70 yillarda respublikada har yili ommaviy xor, qo'shiq bayramlari o'tkazilar edi. Bayramni o'tkazishda xor jamoalarining birlashmasidan tashkil topgan 50 minglik xor, boshqa kompozitorlarning asarlari qatorida S. YUdakovning «Mirzacho'l» va 1955 yildan boshlab «Mening Vatanim» asarlari muntazam ijro etilar edi. 1972 yildan boshlab «Alyor» vokal-xoreografik syuita ham eng ko'p ijro etiladigan asarlar qatoridan munosib o'rin oldi.

O'zbekistonning atoqli kuychisi, kompozitor S. YUdakovga, yuqorida zikr qilinganlar bilan bir qatorda eng katta shuhrat keltirgan asari «Maysaraning ishi» nomli birinchi o'zbek komik operasi bo'ldi. 1958 yilda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat katta akademik opera va balet teatrida sahna yuzini ko'rgan mazkur opera teatrining asosiy repertuarlaridan biri bo'lib, hozirga qadar ijro qilinmoqda. Hamzaning shu nomli komediyasi asosida S. Abdulla va M. Muhamedovlar librettosini tayyorlashgan. Bu opera 1959 yili Moskvada o'tgan O'zbekiston adabiyot va san'ati 10 kunligida Bolshoy teatrida sahna yuzini ko'rgan. «Maysaraning ishi» musiqa jamoatchiligi orasida juda katta shov - shuvga aylanib ketdi. Markaziy matbuotda birin ketin chop etilgan maqola va taqrizlarda operani ulug'lashdi. Tez orada Moskva davlat «Romen» lo'lilar teatri rus tilida operani tomoshabinlarga havola etdi va uzoq yillar davomida teatr repertuarida saqlanib keldi. 60 - yillarda mazkur opera Boshqirdiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Samarqand opera va balet teatrlarida ham sahna yuzini ko'rdi va katta muvaffaqiyat qozondi. 1974 yili esa Polshaning Lodz shahri opera va balet teatrida ham tomoshabinlar qizg'in kutib oldilar. Operaning birinchi ijrochilari: Halima Nosirova, Saodat Qobulova, Karim Zokirov, Sattor YArashev, Jamol Nizomxo'jaev, Husan Ismoilov, Mixail Davidovlarning ijrosi ashulachilikda yangilik bo'ldi. Ularning ijrosida komplekt grammofon plastinkalari million nusxada chop etildi. SHuni aytib joizki, butun dunyoda yaratilgan eng mashhur operalar to'g'risida, tanlangan «100 opera» nomli kitobda S. YUdakovning «Maysaraning ishi» operasi ham tilga olingan. Mazkur opera birgina kompozitorga emas, butun O'zbekistonning zamonaviy musiqa madaniyatiga ham shuhrat keltirdi.

S. YUdakov 70 yillarda SHarqda mashhur bo'lgan, latifa sarkardasi Afandiga bag'ishlab, «Nasriddin Afandining yoshligi» nomli balet yaratgan edi. Uni 1997 yilda Navoiy nomidagi Davlat akademik katta opera va balet teatri jamoasi amalga oshirdi va tomoshabinlar balet premerasini qizg'in kutib oldilar. Kompozitor S. YUdakov R. Hamroev va M. Melkumovlar bilan hamkorlikda «Oq yo'l» musiqali komediyasini yaratdi. Quyidagi drama spektakllarga: «SHohi so'zana» (A. Kahhor p'esasi), «Ganga qizi» (R. Tagor asari), «Zuhraning maktubi» va «Furqat», «Qachon atirgullar ochiladi», «Temirchining bayrog'i» va «12 soatli hayot» kinofilmlariga musiqa bastaladi. Uning qalami ostidan: «Xorazmcha bayram yurishi», «Tantanavor uvertyura», «YOshlar poemasi», «Festival uvertyurasi», «Xoreografik syuita» kabi simfonik kuylari orkestrlar repertuaridan munosib o'rin olgan. Kompozitorning simfonik musiqa asarlari orasida ona xotirasiga bag'ishlangan, mungli «Poema - rapsodiya»si alohida o'rin tutadi. U kamer - cholg'u ansambli va orkestrlarga ham asarlar yaratdi.

S. YUdakov zamonaviy o'zbek professional musiqa tarixida o'ziga xos o'ringa ega. U ko'p qirrali ijodiy faoliyati bilan O'zbekiston musiqa madaniyatining rivojlanish jarayoniga ulkan hissa qo'shdi va boy musiqa merosi qoldirdi. Uning buyuk xizmatlari

ordenlar, bir necha medallar bilan, «O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san'at arbobi» va «O`zbekiston xalq artisti» faxriy unvonlar bilan takdirlangan. S. YUdakov Davlat va Respublika davlat mukofotlarining sovrindori.

Tayanch tushunchalar:

- 1.«Rondo» - (it. doira, aylana) – musiqa shakli.
- 2.«Lirik kuy» - musiqa asari.
- 3.Etud –(fr. mashq) – yuqori badiiy asar darajasidagi etudlar ham mavjuddir.
4. «Skertso» - (ital. scherzo - hazil) –har xil o`tkir: hajviy, fantastik xarakterdagi p`esalar nomi.
5. «Sonatina» - kichik sonata.
6. Romans – ovoz uchun cholg`u asbobi jo`rligida yozilgan asar.
- 7.Kantata – (ital. cantare - kuylamoq) tantanali yoki epik hikoyaviy harakterdagi ko`p ovozli vokal - simfonik asar.
- 8.Oratoriya - (lot – oratio - notiqlik qilish, chiroyli gapirish) yakkaxon, xor va simfonik orkestr ijrosiga mo`ljallangan ko`p qismli vokal - simfonik asar.

Nazorat savollari:

- 1.Kompozitor C. YUdakovning yoshlik va talabalik yillari haqida ma'lumot bering.
2. Kompozitor S. YUdakovning vokal ijodiga xarakteristika bering.
3. Kompozitor S. YUdakovning fortepiano ijodiga xarakteristika bering.
4. Kompozitor S. YUdakovning opera va balet ijodiga xarakteristika bering.
5. Kompozitor S. YUdakovning vokal- simfonik ijodiga xarakteristika bering.
6. Kompozitor S. YUdakovning kino va musiqali drama sohasidagi ijodiga xarakteristika bering.

Adabiyotlar:

1. Музыкально - энциклопедический словарь. Москва. 1990 г.
2. F. Karomatov. Voprosy muzykoznaniya (materialy simpoziuma) 1980 g.
3. A. Jabborov.T. Solomonova. Kompozitor i muzykovedy Uzbekistana.Toshkent.1975.
4. A. Jabborov. O`zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
5. YU.Rajabiy. I. Akbarov. O`zbek xalq musiqasi tarixi, (O`qituvchi). 1981 yil.
6. T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. O`zbek xalq muzikasi, VII tom. Toshkent 1960
2. O`zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

Ma'ruza № 14

Kompozitor Sobir Boboevning (1920-2004) hayoti va ijodi

Reja:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari.
2. Sobir Boboevning vokal ijodi.
3. Sobir Boboevning fortepiano ijodi.
4. Kompozitorning opera ijodi.
5. Sobir Boboevning musiqali drama ijodi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, atoqli kompozitor Sobir Boboev ijodiy va jamoatchilik faoliyati bilan respublikamiz zamonaviy musiqa madaniyatiga katta hissa qo'shgan. U yorqin asarlari bilan M. Ashrafiy, M. Burhonov, T. Sodiqov, SH. Ramazonov, M. Leviev, S. YUdakov kabi kompozitorlar safiga qo'shildi. Boboevning opera, musiqali drama va komediyalari, simfonik, vokal - simfonik va xor asarlari, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun asarlari, qo'shiq va romanslari ma'naviy mulkimizga aylandi.

Sobir Boboev 1920 yil 30 dekabrda Toshkentda Muhammad Vosil Boboev oilasida tug'ildi. Onasi Hamida Boboeva (Hakimxo'jaeva) uy bekasi bo'lgan: 1931 yili eri vafot etgandan so'ng 4 o'g'il bilan qoladi. Moddiy qiyinchiliklar sababli Sobir va ukasi Nosirni bolalar uyiga joylashtiradi. U erda Sobir havaskorlik to'garagiga qatnashib, dutor va tanburda chalishni N. Yo'ldoshevdan o'zlashtira boshladi. 7 - sinfni bitirgach, Toshkent industrial texnikumida o'qidi keyin pedagogika institutining tayyorlov kursiga o'tdi. O'qishni bitirgach, 1941 -42 yillarda Toshkent viloyati umumta'lim maktablarida fizika va matematikadan dars berdi va pedagogika institutida o'qishini davom ettirdi. 1943 yilda S. Boboev hayotida burilish sodir bo'ldi.

Toshkent konservatoriyasi professori, musiqashunos E. E. Romanovskaya bilan uchrashuv o'tkazildi. S. Boboevning dutor va tanbur chalishini, u bastalagan kuyni tinglab unga konservatoriyada ochilgan kompozitorlik tayyorlov bo'limida o'qishga maslahat berdi. Bo'lajak ijodkor dastlab tayyorlov, so'ngra asosiy bosqichlarda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor B. B. Nadejdin sinfida ta'lim oldi. 1949 yilda T. To'la librettosi asosida «Zumrad» nomli bir pardali operasi bilan konservatoriyaning muvoffaqiyatli bitirdi.

Talabalik yillari S. Boboev O'zbekiston radiosining xorida xonanda, bosh xormeyster yordamchisi, 1947 - 49 yillarda O'zbekiston filarmoniyasining ashula va raqs ansamblida badiiy rahbar bo'lib ishladi. Bu davrda yozgan musiqa asarlarining badiiyligi va professionalligini hisobga olib S. Boboev 1946 yili O'zbekiston kompozitorlar uyushmasiga a'zolika qabul qilindi. 1948 yili esa uyushmaning birinchi qurultoyida u hay'at raisi lavozimiga saylandi va 1955 yilga qadar faoliyat ko'rsatdi. SHu bilan birga u 1951 - 52 yillarda Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida va konservatoriyada musiqiy nazariy fanlardan dars berdi. SHuningdek, S. Boboev 1958 - 59 yillarda O'zbekiston xor jamiyati hay'at raisi, 1960 - 65 yillarda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi, 1966 - 69 yillarda Samarqand opera va balet teatri direktori va badiiy rahbari, 1972 - 76 yillarda M. Qoriyoqubov nomidagi o'zbek davlat filarmoniyasi badiiy rahbari; 1969 - 78 yillarda konservatoriya muallimi, 1982 - 85 yillarda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi vazifalarida ishladi.

Kompozitor fortepiano uchun p'esa, sonatina, raqs; klarnet va fortepiano uchun

«Rapsodiya», simfonik orkestr uchun ikkita syuita, xor jamoasi uchun: Muqimiy soʻziga «Navbahor» , T. Toʻla soʻziga «Alla», «Fizkulʼturachilar qoʻshigʻi» (SH. Saʼdulla soʻzi), «Xalqimga» (T. Fattoh soʻzi), «Oʻzbekiston» (R. Bobojon soʻzi), xor qoʻshiqlar: «Bulbul sayraganda» (T. Toʻla soʻzi), «Vatan» (N. Toshpoʻlat soʻzi), «Sendadur» (SHuhrat soʻzi), «Gul sochar» va «Orazing» (Navoiy soʻzlari), qoʻshiqlar: «Ishonmayman» (M. Boboev soʻzi), «Ey sabo» (Navoiy soʻzi), «Bu hol» (Uygʻun soʻzi), «Doʻstimga» (H. Olimjon soʻzi), «Goʻzal vodiy» (T. Toʻla soʻzi), «Sening qoʻshigʻing» (H. Gʻulom soʻzi) kabi romanslar; R. Bobojonov soʻziga beshta, T. Mirzo soʻziga bolalar uchun uchta qoʻshiq bastaladi.

Oʻzbek xalq cholgʻulari orkestri uchun «Poema», «Bayram uvertyura»si (1950 y.) oʻzining shodiyona ohangdor koʻtarinki ruhi, milliyliigi, shaklining ixcham, mukammal professionalligi, orkestrning rang barang jaranglashi bilan ajralib turadi. Bu asar kompozitorni elga tanitdi. U birgina muallifning ijodiy yutugʻi emas, butun zamonaviy oʻzbek musiqa sanʼatining va ayniqsa, orkestr jamoasining ham yutugʻi boʻldi. Bu asar professional va talabalar orkestri dasturlarida hozirga qadar ijro qilinib kelinmokda. Huddi «Bayram uvertyura»si kabi chang va oʻzbek xalq cholgʻulari orkestri uchun bastalagan «Kontsertino» (1952 y) ham sozanda va tinglovchilarning sevimli asarlaridan biridir. Bunday ijodiy yutuq kompozitorni oʻz kasb - hunari ustida yanada jiddiy ishlashga, yirik va murakkab musiqa asarlari yaratishga ilhomlantirdi. Tez orada uning qalami ostidan quyidagi simfonik va vokal - simfonik asarlar bunyodga keldi: simfonik orkestr uchun ikkita syuita (1952, 1953 y.), mumtoz xalq kuyi «Segoh» asosida simfonik poema (1956 y.), T. Toʻla soʻzlariga «Oq oltin» vokal - xoreografik syuita va «Bayram kuni» (1955 y.) vokal - simfonik poema, ayniqsa, paxtakor dehqonlar hayotiga bagʻishlangan 4 qismli «Xosil bayrami» (R. Bobojon soʻzi, 1955 y.) kantatasi oʻzining milliy ohangdorligi, rang - barang xor qoʻshiqlar bilan mirobboshining lirik ashulasi, yakunlovchi tantanavor ruhda ommaviy xor sadolari bilan ajralib turadi. Birinchi ijrosidayoq ijodiy yutugʻi va asarning badiiy taʼsirchanligi eʼtirof etildi.

S. Boboevning butun ijodiy faoliyatida sahna asarlariga musiqa bastalash asosiy oʻrinda turadi. U birinchi musiqali komediya «Dalada bayram» va musiqali drama «Mening sohillarim» (SH. Saʼdulla va Z. Fatxullinlar pʼesasi, 1954 va 1957 y.) D. Zokirov bilan hamkorlikda yaratgan boʻlsa, mustaqil ravishda 1957 yil «Katta muhabbat» (B. Rahmonov pʼesasi) musiqali dramani yaratdi. 1958 yil Muqimiy nomidagi musiqali teatrdan sahnalashtirilgan, «Vatan ishq» (SH. Saʼdulla va Z. Fatxullinlar pʼesasi) musiqali drama kompozitorning katta ijodiy yutugʻi, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Kelgusi yillarda S. Boboev «Ikki bilaguzuk» (SH. Saʼdulla pʼesasi, 1962 y.) musiqali komediya , «Mayna Hasanova» (A. Rahmat pʼesasi, 1972 y.), «Oltin kamar» (Toʻlqin pʼesasi, 1978 y.), «Muhabbat qoʻshigʻi» (T. Tlegenov pʼesasi, 1980 y.) musiqali dramalar, «Temir qafas» (H. Rasulov pʼesasi, 1982 y.) musiqali komediya va «SHahrisabz malikasi» (L. Gladkix pʼesasi) musiqali komediya (1986 y.) ijod etdi.

S. Boboev K. Yashin bilan hamkorlikda «Hamza» operasini yaratdi. Atoqli shoir, dramaturg, bastakor, jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziyning siymosiga bagʻishlangan «Hamza» operasi 1961 yil 27 may kuni sahna yuzini koʻrdi va tomoshabinlar tomonidan qizgʻin kutib olindi. Opera musiqasi, ayniqsa, asosiy personajlar: Hamza, Sanobar, Alijon, SHodmon ota, SHayx Ismoilarning goʻzal va original ariyalari, xor qoʻshiqlari tinglovchiga manzur boʻldi, maftun qildi. Albatta, eng avval bu

kompozitorning ijodiy yutug'i bo'ldi va respublikamiz madaniy hayotida o'z vaqtida katta voqeaga aylangan edi. Kelgusida S. Boboev «Vatan ishq» musiqali dramasi asosida 1973 yili (ikkinchi tahrir 1985 y.) «Fidoyilar» (SH. Sa'dulla va Z. Fatxullin librettosi) va bolalar uchun 1969 yili o'zbek xalq ertagi asosida «YOriltosh» (SH. Sa'dulla librettosi) operalarini yaratdi.

S. Boboev ijodiy faoliyatida doimiy ravishda qo'shiq, romans, jo'rli va jo'rsiz xor qo'shiqlar yaratib kelmokda. Bu sohada bastalagan hamma asarlarning nomlarini sanash mushkul. Ayniqsa, u romans janriga katta ahamiyat berib, o'ziga xos uslubni topib oldi, kompozitor har bir she'rning mazmunidan kelib chiqib, deklamatsion ohanglarga e'tibor berdi. Bunday hol, ayniqsa, «YOr ketdi» (Oybek she'ri), «Qalb» (S. Zunnunova she'ri), «Meros» (A. Sa'dulla she'ri), A. Muxtorning 4 ta she'riga, H. Xudoyberdievaning she'rlariga bastalagan romanslarida yaqqol seziladi. Bulardan tashkari 90 - yillarda Navoiyning 3 ta , Mashrabning 11 ta, Furqatning 5 ta va Nodiraning g'azallariga romanslar bastaladi. Jo'rsiz xor uchun yaratgan xor qo'shiqlari, ayniqsa, o'zbek xalq ashula va qo'shiqlari asosida qayta ishlagan: «Galdir», «Tanovar», «Segoh» kabi asarlar diqqatga sazovordir.

Sobir Boboev yorqin, ko'p qirrali va serunum ijodi bilan O'zbekiston musiqa madaniyatining rivojlanishiga qo'shgan xizmatlari 1998 yili «El - yurt hurmati» ordeni, «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» faxriy unvoni bilan takdirlangan.

Tayanch tushunchalar:

- 1.p'esa – kichik musiqa asari.
- 2.Sonatina- kichik sonata.
- 3.Klarnet – yog'ochdan ishlangan musiqa asbobi.
- 4.Libretto – opera yoki baletning badiiy bayoni.
6. Romans – ovoz uchun cholg'u asbobi jo'rligida yozilgan asar.
- 7.Xor – (lot-chorus – olomon, yig'in) – asosan kup ovozlik asarlarni kuylovchi jamoa.

Nazorat savollari:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari haqida ma'lumot bering..
2. Sobir Boboevning vokal ijodi ijodiga xarakteristika bering.
3. Sobir Boboevning fortepiano ijodi ijodiga xarakteristika bering.
4. Kompozitorning opera ijodi ijodiga xarakteristika bering.
5. Sobir Boboevning musiqali drama ijodi ijodiga xarakteristika bering.

Adabiyotlar:

1. Музыкально - энциклопедический словарь. Москва. 1990 г.
2. F.Karomatov. Вопросы музыкознания (материалы симпозиума) 1980 г.
3. A.Jabborov.T.Solomonova.Композиторы и музыковеды Узбекистана.Ташкент.1975.
4. A. Jabborov. O'zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
5. YU.Rajabiy. I. Akbarov. O'zbek xalq musiqasi tarixi, (O'qituvchi). 1981 yil.
6. T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. O`zbek xalq muzikasi, VII tom. Toshkent 1960
2. O`zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

Ma`ruza № 15

Kompozitor I. Akbarov hayoti va ijodi(1921)

Reja:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari.
2. Kompozitorning vokal va vokal - simfonik ijodi.
3. Kompozitorning opera va balet ijodi.
4. I.Akbarovning musiqali drama ijodi.

O`zbekiston xalq artisti, Respublika Davlat mukofoti sovrindori, atoqli kompozitor I. Akbarov o`zining simfonik asarlari, kantata, oratoriya, opera, balet, musiqali drama va komediya, xor hamda estrada qo`shiqlari bilan o`zbek musiqasi ravnaqiga ulkan hissa qo`shib kelmokda. XX asrning ikkinchi yarmidan respublikamiz professional musiqa san`atining rivojlanish jarayonini bu iste`dodli kompozitorsiz tasavvur etish qiyin.

Ikrom Ilhomovich Akbarov Toshkentda 1921 yil 1 martda hunarmand oilasida tug`ildi. Bolaligidan musiqaga qiziqishini sezgan amakisi Ilyos Akbarov tavsiyasi bilan Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida fortepiano bo`yicha ta`lim oladi. Ota - onasining xoxishi bilan Toshkent pedagogika bilim yurtida ham o`qidi. 1939 yili Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga o`qishga kiradi. Bu erda YU. Fortunatov, S. Vasilenko, L. Revutskiy va A. Kozlovskiy kabi atoqli kompozitorlardan saboq oldi.

Ikrom Akbarov konservatoriyani muvoffaqiyatli tugallagandan keyin Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida musiqa nazariyasidan dars bera boshlaydi. U o`z bilimini yanada boyitish niyatida 1946 yili Leningrad davlat konservatoriyasiga o`qishga kiradi. Uning bu shaharda o`tkazgan talabalik va aspirantlik sakkiz yillik hayoti, mutaxassislikni puxta egallashda va ma`naviy ozuqa olishda juda ham sarmazmun o`tdi. U konservatoriya professorlari M. SHteynberg, B. Arapov, V. Voloshinovlardan olgan saboqlari zoe ketmadi. Ular rahbarligida I. Akbarovning turli cholg`ularga, ansambl va orkestrga yozgan musiqa asarlari yosh ijodkor uchun katta tajriba maktabini o`tadi.

1954 yilda kompozitor Leningraddan vataniga qaytib, Toshkent konservatoriyasida muallimlik qilishga kirishadi, 1957 yildan buyon faqat ijod bilan shug`ullanmokda. 1954 yilda Hamzaga bag`ishlab yaratgan «SHoir xotirasi» simfonik poemasi kompozitorga shuhrat keltirishi bilan uning ijodiy faoliyatida burilish yasadi.

I. Akbarov mazkur asarlaridan so`ng simfonik va vokal - simfonik janrlarda badiiy barkamol asarlar yaratdi. Uning «O`zbekcha syuita»si (1956 y.), «Epik poema»si (1962 y.), R. Tagorning «Pochta» nomli sahna asariga (1963 y.) yozgan syuitasi, Samarqand

shahrining 2500 yillik yubileyiga atab yozgan «Samarqand hikoya»lari, «Orzu» baleti asosida yozgan «Simfonik syuita»si, «Navro`z» nomli baleti asosidagi simfonik syuitasi, «Raqs», fortepiano va «Simfonik orkestr uchun kontsert»i va 1962 yil yaratgan skripka va simfonik orkestri uchun kontserti yorqin misol bo`la oladi.

Kompozitor erishgan ijodiy yutuqlari uning vokal - simfonik, kantata va oratoriya asarlarida ham namoyon bo`ldi. Masalan; K. YAshin so`ziga «Hamza» nomli (1962) vokal syuitasi, Hofiz so`ziga «Ballada»si (1961), M. SHayxzoda so`ziga «Toshkentnoma» oratoriyasi (1964), Alisher Navoiyning «Hamsa»si asosida yozilgan shu nomli kantata (1969), Beruniyning 1000 yillik yubileyiga bag`ishlab O. Matchon so`ziga «Abadiyat» balladasi (1973), T. To`la so`ziga «Zafarnoma» vokal simfonik poemasi (1972), Dm. Polinin so`ziga yozgan «Do`stlik» vokal simfonik poemasi (1972), H. Olimjon, J. Jabborov, H. G`ulom, T. To`la so`zlariga «Mening shahrim» kantatasi (1983), H. Olimjon va H. G`ulom so`zlariga yozgan «Mangu xotira» oratoriyasi (1985) o`ziga xosligi va badiiy barkamolligi bilan ajralib turadi. Bu asarlarda kompozitorning Vatanimiz tarixini, buyuk ajdodlarimiz siymolarini, o`lkamiz go`zal tabiatini baralla tarannum etgan.

Ikrom Akbarov balet va opera janrlari rivojlanishiga ham katta e`tibor bermogda. U 1959 yili «Orzu» (G. Izmaylova va B. Zavyalovlar librettosi) nomli ilk baleti, 1964 yili «Nigor» (Abolimov librettosi), 1968 yil bir pardali «Layli va Majnun» (G. Izmaylova librettosi), 1968 yil «Navro`z» baletlari (G. Izmaylova va R. Farhodiyarning librettosi) bilan sahna raqs san`atining rivojlanishiga o`z hissasini qo`shdi. 1973 yili kompozitor «So`g`d elining qoploni» (B. Zokirov librettosi), 1998 yilda «Ibtido xatosi» (E. SHukur librettosi) «Jaloliddin Manguberdi» (M. SHayxzoda) operalarini yaratdi. Kompozitor I. Akbarov musiqali drama va komediyalar bastalab, shu janrlarning rivojlanishiga barakali hissa qo`shib kelmokda. U 1969 yil Z. Fatxullin p`esasi asosida «Kumush to`y»; 1969 yili T. To`la p`esasi asosida «Qiz buloq»; S. Azimov p`esasi asosida «YUlduzlarni ko`raman»; CHingiz Aytmatovning «Momo er» asari asosida T. To`la librettosi asosida 1965 yil musiqali drama, G. Lorka p`esasi asosida 1973 yil «Qonli to`y», I. Sulton p`esasi asosida 1985 yil «Kumush shaharning malikasi» musiqali dramalari; J. Jabborov p`esalari asosida «O`jarlar» (1973), «To`ydan oldin tomosha» (1983), «Yillar o`tib» (1975) komediyalari uchun yorqin musiqa bastaladi. Mazkur sahna asarlarining g`oyaviy mazmunidan, voqealarning rivojidan, qahramonlarning ruhiy holatlaridan kelib chiqqan holda musiqiy obrazlar yaratdi. Bu asarlardan tashqari dramalarga ham musiqa bastaladi: «Pochta» (R. Tagor p`esasi), «Zamon dramasi» (S. Azimov p`esasi), «Yo`lchi yulduz» (K. YAshin p`esasi), «Tabassum o`g`rilari» (SHukrullo p`esasi) shular jumlasidandir.

Kompozitor o`zining dilbar qo`shiqlari bilan xalqimiz o`rtasida mashhur bo`ldi. Ayniqsa, atoqli estrada xonandasi, O`zbekiston xalq artisti Botir Zokirov uchun maxsus yozilgan va ilk bor yangragan «Ra`no» (S. Akbariy so`zi), «Gazli», «Mahbubga», «Ketma, Nigor», «Qaydasan» (T. To`la so`zlari), «YOr kel», «Qo`shchinor» (H. G`ulom so`zlari), «Qor yog`ar» (S. Zunnunova so`zi), «Bahor fasli» (B. Zokirov so`zi), «Azizim» (O`. Rashid so`zi), «Lolazor chorlaydi» (J. Jabborov so`zi) estrada qo`shiqlari keng qanot yozdi. Uning «YUlduz» (Zulfiya she`ri), «Hayolimda bo`lding uzun kun» (H. Olimjon she`ri), «O`ylaysanmi» (H. Muhammad she`ri), «Oydin kechada» va «Bir gal kelganliging shodlik tabassum» (Uyg`un she`rlari), «Gullagan yoshlik chog`imda» (H. Olimjon she`ri), «O`zga» (T. To`la so`zi), «Kelgin» (Mirtemir

she'ri). Ikrom Akbarov kinofilmlarga yozgan musiqasi, romanslari lirik his - tuyg'ularni ifoda etadi: «Hamza» (1961 y. rej. Z. Sobitov), «Sinchalak» (1961 Y. rej. L. Fayziev), «Sen etim emassan» (1962 y. rej. SH. Abbosov), «Osiyo ustida bo`ron» (1964 y. rej. K. YOrmatov), «Qora konsulning halokati» (1970 y. rej. K. YOrmatov), «Ikki dil dostoni» (1966 y. rej. K. YOrmatov), «Gulbahor» (1956 y. rej. Y. A'zamov) «Ikkinchi gullash» (1959 y. rej. L. Fayziev), SHuningdek, kompozitorlar M. Burhonov va M. Levievlar bilan «Maftuningman» (1958 y. rej. Y. A'zamov) va «Orol baliqchilari» (1957 y. rej. Y. A'zamov) filmlariga musiqa bastalagan.

Kompozitor kamer - cholg'u janrlarini rivojlantirishga katta ulush qo'shdi. Uning fortepiano, skripka, violonchel, ayniqsa, turli ansambllar uchun yaratgan asarlari mashhurdir. Kompozitor «Orkestr va tor uchun p'esa»si, H. SHaripov so`ziga bastalagan «To`ylar muborak» nomli 5 qismli vokal - syuitasi, bolalar uchun turli mavzularda yaratgan qo'shiqlari xalqimizning olqishlariga sazovor bo`lmoqda. Alqissa, kompozitor Ikrom Akbarovning turli janrlarda yaratgan eng yaxshi asarlari XX asr o`zbek musiqa madaniyatining jiddiy yutug'i, mumtoz namunalari qatoridan o`rin olib kelmoqda.

Ikrom Ilhomovich Akbarov O`zbekiston musiqa madaniyatining rivojlanishidagi xizmatlari uchun «O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san'at arbobi» (1964 y.), «O`zbekiston xalq artisti» (1981 y.) faxriy unvonlari bilan taqdirlangan. Respublika Davlat mukofotiga 1977 yili sazovor bo`lgan. 1999 yili «El yurt hurmati» ordeni bilan taqdirlangan.

Tayanch tushunchalar:

- 1.«SHoir hotirasi» - simfonik poema. 1954 yilda Hamzaga bag`ishlab yaratilgan.
2. Kantata - (ital. cantare - kuylamoq) tantanali yoki epik hikoyaviy xarakterdagi ko`p ovozli vokal - simfonik asar.
- 3.Oratoriya - (lot – oratio - notqlik qilish, chiroyli gapirish) yakkaxon, xor va simfonik orkestr ijrosiga mo`ljallangan ko`p qismli vokal - simfonik asar.
- 4 Balet - (ital. ballo - raqsga tushaman) – musiqa va raqs uyg'unlashgan musiqa – xoreografik spektakl.
- 5.Opera – (ital. ijod) – sahna harakatlari vokal va orkestr musiqasi bilan jips bog`langan teatr san'ati turi.
6. Kamer kuylari - (ital – camera - xona) – kichikroq xonalarda ijro qilish uchun mo`ljallangan vokal yoki cholg'u musiqasi.
- 7.Skripka – musiqa asabobi.
- 8.Violonchel – musiqa asbobi.

Nazorat savollari:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari. haqida ma'lumot bering
2. Kompozitorning vokal va vokal - simfonik ijodiga xarakteristika bering.
3. Kompozitorning opera va balet ijodiga xarakteristika bering.
4. I.Akbarovning musiqali drama ijodiga xarakteristika bering.

Adabiyotlar:

1. Музыкально - энциклопедический словарь. Москва. 1990 г.

2. F. Karomatov. Voprosy muzykoznaniya (materialy simpoziuma) 1980 g.
3. A. Jabborov.T. Solomonova.Kompozitory i muzykovedy Uzbekistana.Toshkent.1975.
4. A. Jabborov. O`zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
5. YU. Rajabiy. I. Akbarov. O`zbek xalq musiqasi tarixi, (O`qituvchi). 1981 yil.
6. T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. O`zbek xalq muzikasi, VII tom. Toshkent 1960
2. O`zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

Ma`ruza № 16

Kompozitor Xayri Izomov(1922) hayoti va ijodi.

Reja:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari.
2. Kompozitor Hayri Izomovning vokal vokal- simfonik ijodi.
3. Kompozitor Hayri Izomovning musiqali drama ijodi.

O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi, kompozitor va dirijor Xayri Izomov 30 - yillarda musiqa dunyosiga qirib keldi. U o`zbek professional kompozitorilarning ikkinchi avlodiga mansub. O`zining ko`p qirrali ijodiy va dirijorlik faoliyati bilan respublikamiz musiqa san`ati rivojlanishiga munosib hissa qo`shib kelmokda.

Izomov Xayri G`ulomjon o`g`li Buxoro shahrida, ziyoli oilasida 1922 yilning 30 dekabrda tug`ildi. 1928 yildan umumta`lim maktabida o`qidi. Bolaligidan musiqaga qiziqdi va 1931 yili Buxoro musiqa texnikumida skripka bo`yicha o`qidi va 1935 yili bitirdi. 1935 - 1936 yillarda Buxoro musiqali drama teatrida sozanda bo`lib ishladi.

Ma`lumqi, 1936 yili T.Jalilov boshchiligida O`zbek davlat filarmoniyasi qoshida o`zbek xalq cholg`ulari ansambli tashkil topdi. Mazkur ansamblga boshqa sozandalar qatori 14 yoshli Xayri Izomov ham ishga taklif qilindi. U 1937 yili Moskvada o`tkazilgan O`zbekiston adabiyoti va san`ati dekadasida eng yosh sozanda sifatida qatnashdi. Dekadadan qaytib kelgach, T. Jalilovning ansambli qoshida O`zbekiston xalq artisti, kompozitor va dirijor N. N. Mironov yosh sozandalardan notali orkestr tuzdi. H. Izomov nota yozuvini musiqa texnikumida o`rgangani uchun ustozga yordamchi va dirijor bo`ldi. Bu jamoa Rossiya va Belorusiya shaharlari bo`ylab o`zbek musiqasini targ`ibot qildi. Mazkur jamoa asosida 1938 yili filarmoniya qoshida O`zbek xalq cholg`ulari orkestri tashkil topdi.

1938 yili H. Izomov Toshkent konservatoriyasining tayyorlov kursiga o`qishga kirib, B. B. Nadejdin sinfida saboq ola boshladi. H. Izomov 2 - jahon urushi davrida Olmaota shahri harbiy aviatsiya maktabida uchuvchilika o`qidi. Ushbu maktabda kursantlardan tashkil topgan badiiy havaskorlik ansambliga rahbarlik qildi. So`ngra u uchuvchi bo`lib frontda, urushdan keyin shu armiyaning zahiradagi avia polkida xizmat

qildi. 1946 yilning sentabridan boshlab uzilib qolgan o`qishni konservatoriyaning asosiy kursida B. Nadejdin sinfiga davom ettirdi. O`qib yurgan yillari musiqaning turli janr va shakllarida asarlar yaratdi. Ular orasida «Pari» (Navoiy g`azali) romansi, «Vatan olqishi» (P. Mo`min so`zi), «Gul» (T. Ernazarov so`zi), «O`zbekistonim mening» (Uyg`un so`zi) qo`shiqlari va fortepiano uchun «Tokkata» kuyi mashhur bo`lib ketdi. Uning notasi 1949 yilda chop etilgandan buyon respublikamizning hamma musiqa maktablarida yosh pianiochilar hamon ijro etib kelmokdalar. Talaba - kompozitor H. Izomov o`qish bilan birga 1949 - 50 yillarda O`zbekiston radio komiteti musiqa tahririyatining mas`ul kotibi, 1950 - 1955 yillarda esa radiokomitetning badiiy eshittirishlar boshqarmasining bosh muharriri vazifalarida ishladi.

Toshkent davlat konservatoriyasini H. Izomov 1952 yilda bitirib, radiodagi ishini davom ettirish bilan birga mustaqil ravishda turli janrlarda ijod qila boshladi. Masalan, 1953 - 64 yillarda birin - ketin quyidagi qo`shiq va boshqa musiqa asarlarini yaratdi: «Qahramon qizlar», «SHonli elim», «YOshlik bayrami», «Tinchlik haqida yoshlar qo`shig`i», «Dutorim» (M. Qoriev so`zlari), «Mening sevimli o`lkam», «Toshkent osmoni» (D. Polinin so`zlari), «Sayr etdim» (P. Mo`min so`zlari), «Qiz qo`shig`i» (G`. G`ani so`zi), «Salom, yulduzlar» (T. To`la so`zi), «Sevmay bo`lmaydi», «Ziyofatda aytiladigan qo`shiq» (H. SHaripov so`zi) o`z davrida juda mashhur bo`lgan qo`shiqlar bilan birga simfonik orkestrga o`zbekcha syuita, skripka va fortepiano uchun p`esa, fortepiano uchun Etud, 7 ta variatsiya, «Noktyurn», «Musiqali quticha», 4 ta p`esa; klarnet va fortepiano uchun p`esa, xonanda va simfonik orkestr uchun «O`zbekiston paxtasi» (V. Muxtorov so`zi) qo`shiq, xonanda va xor jamoasi uchun «Sevikli yor» qo`shiq, Toshkent davlat yosh tomoshabinlar teatrida sahna yuzini ko`rgan quyidagi spektakllarga musiqa bastaladi: «Abdulla Nabiev» (A. Rahmat p`esasi), «O`jar» (M. G`ani va U. Ismoilov pesalari), «Kim aybdor» (I. Ahmedov p`esasi), «Oygul va Baxtiyor» (H. Olimjon asari asosida U. Rahmonov p`esasi), «Ikbol» (YO. Mirzo p`esasi), «Vafodorlik» (O. YOqubov p`esasi); qo`g`irchoq teatri uchun «To`ti qiz» (M. Muhamedov p`esasi), «O`rmondagi voqea» (S. Abdukahhor p`esasi), Hamza nomidagi drama teatri uchun «Aytsam tilim kuyadi, aytmasam dilim» (O. YOqubov p`esasi) va boshqalar. H. Izomov 1964 - 1966 yillarda Afg`oniston hukumati taklifiga binoan Qobul radiosida maslahatchi bo`lib ishladi. 1966 yili Toshkentga qaytgach, radio qoshidagi «O`zbek xalq cholg`ulari» orkestrida dirijor vazifasida ishini davom ettirdi va 1992 yili nafaqaga chikdi. H. Izomov dirijorlik va jamoatchilik ishlari bilan band bo`lishiga qaramay musiqaning turli janrlarida yangi yangi, jozibali asarlar yaratdi. Kompozitor 60 - yillarning 2 - yarmi, 70 - 80 yillarda zamonaviy o`zbek estrada san`atining rivojlanishiga katta ahamiyat berdi. U yaratgan estrada qo`shiqlaridan «O, Dilbar», «Bu muhabbat», «Salomalaykum» (D. Polinin so`zlari), «Kim o`zi?» (E. Rahim so`zi), «Kimga aytay?» (A. Po`lat so`zi), «Ko`zi humor» (SH. SHomahmudov so`zi), «Sen» (O. Hajiqosimov so`zi), «Ishva ko`z» (S. Xolmuhamedov so`zi) mashhur bo`lib ketdi. YAKkaxon va O`zbek xalq cholg`ulari orkestri uchun yozilgan «Quyoshli O`zbekiston» nomli vokal - raqs syuitasi, «Zangori kema kapitanlari» va «YAngi Toshkent» (D. Polinin so`zlari) qo`shiq - balladasi o`ziga xosligi bilan ajralib turadi. Dramaturg S. Abduqahhor bilan hamkorlikda «Alijon va Valijon» spektakliga musiqa bastalagan. Bastakorlar uyushmasining ommaviy janrlar komissiyasiga uzoq yillar raislik qildi. 1954 yili «O`zbekiston hukumatining faxriy yorlig`i», 1967 yili «O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan artist» va 1974 yili «O`zbekistonda

xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» faxriy unvonlari va 2000 yilda «El yurt hurmati» ordeni bilan taqdirlangan.

Tayanch tushunchalar:

- 1.«Pari» romansi, «Vatan olqishi», «Gul», «O'zbekistonim mening» - kompozitorning dastlabki asarlari
- 2.Tokkata – (ital.toccate - tegmoq). qisqa cho'zimli (sakkizlik va o'n oltilik) notalar vositasida ifoda qilinuvchi beto'xtov harakterdagi musiqa asari.
- 3.Noktyurn –(fr. nocturne - tungi qo'shiq) – geyoki tun timsollari bilan yo'g'rilgandek hayolparastona, kuychan musiqa asari.
- 4.Syuitta - (fr. Suite - izchillik) bir - biriga qarama – qarshi qismli tsiklik musiqa shakli.
- 5.Variatsiya – mavzu va uning o'zgarib tarorlanishidan iborat musiqa shakli.

Nazorat savollari:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari haqida ma'lumot bering
- 2.Kompozitor Xayri Izomovning vokal vokal - simfonik ijodiga harakteristika bering.
3. Kompozitor Xayri Izomovning musiqali drama ijodiga harakteristika bering.
4. Kompozitor Xayri Izomovning estrada ijodiga harakteristika bering..

Adabiyotlar:

1. Музыкально - энциклопедический словарь. Москва. 1990 г.
2. F. Karomatov. Voprosy muzykoznaniya (materialy simpoziuma) 1980 g.
3. A. Jabborov.T.Solomonova.Kompozitor y i muzykovedy Uzbekistana.Toshkent.1975.
4. A. Jabborov. O'zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
5. YU. Rajabiy. I. Akbarov. O'zbek xalq musiqasi tarixi, (O'qituvchi). 1981 yil.
6. T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbek xalq muzikasi, VII tom. Toshkent 1960
2. O'zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

Ma'ruza № 17

Kompozitor Abdurahim Muhamedovning hayoti va ijodi.(1923-1980)

Reja:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari.
2. Kompozitor ning vokal ijodi.
3. Kompozitorning musiqali drama ijodi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, kompozitor A. Muhamedov XX asr o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. U o'ziga xos ovozi bilan musiqa ijodkorligiga 50 - yillarda qirib keldi. Uning yaratgan ajoyib lirik, ommabop xor qo'shiqlari, milliy uslubda yozgan simfonik va musiqali sahna asarlari zamonaviy madaniyatimizni boyitdi.

Abdurahim Muhamedov 1923 yili 10 dekabrda Toshkent shahrida novvoy oilasida tug'ildi. Tug'ma iste'dod egasi tasviriy san'at va musiqa bilan qiziqadi, qalam va moybo'yoqda har xil rasmlar chizadi. Havaskorlik to'garagida mandolina, dombra, damli cholg'ulardan alt, bariton chalishni o'rganadi va orkestrda qatnashdi. 1938 yili 7 - sinfni bitirib, Toshkent sanoat texnikumining ximiya - texnologiya bo'limiga o'qishga kiradi. O'qishni 1942 yilda bitirgach, harbiy xizmatga chaqirildi va Janubiy Ukraina fronti janglarida qatnashdi. 1943 yilda og'ir yarador bo'ldi. 1944 yili Toshkentga qaytish unga nasib etdi. Bir yildan so'ng o'zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi o'zbek xalq cholg'ulari orkestriga ishga qabul etiladi. 1952 yili O'zbekiston radiosi huzuridagi o'zbek xalq cholg'ulari orkestriga ishga o'tadi. Orkestrda ishlab yurgan kezlari 1946 - 1950 yillarda Toshkent musiqa texnikumining o'zbek xalq cholg'ulari bo'limida o'qiydi va musiqa bastalashga qiziqadi. S. Boboevning do'stona maslahati bilan u 1948 yildan boshlab Toshkent davlat konservatoriyasining tayyorlov bo'limida kompozitorlik mutaxassisligidan saboq oladi. 1950 - 1955 yillarda asosiy bosqichida professorlar B. B. Nadejdinda kompozitsiya, A. Kozlovskiydan cholg'ulashtirishdan ta'lim oladi. «YOshlik» simfonik poemasi bilan o'qishni bitiradi. YOsh mutaxassis yo'llanma bilan O'zbekiston Madaniyat vazirligi San'at bosh boshqarmasida inspektor vazifasidan ish boshladi. 1956 - 1957 o'quv yilida Toshkent davlat xotin - qizlar pedagogika bilim yurtida musiqa o'qituvchisi, 1958 - 1960 yillarda Toshkent telestudiyasida musiqa muharriri ishladi. 1960 - 1965 yillarda yana san'at bosh boshqarmasida muharrir, musiqa bo'limi boshlig'i, repertuar bo'limi a'zosi lavozimlarida ishladi. 1965 - 1972 yillari A. Muhamedov o'zbek davlat filarmoniyasining targ'ibot bo'limida, 1972 - 1974 yillari G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida musiqa muharriri bo'lib ishladi. 1974 -1975 o'quv yilida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining Musiqa pedagogika fakultetida musiqa nazariyasidan dars berdi. 1975 - 1977 yillarda o'zbek davlat filarmoniyasi qoshida yangi tashkil etilgan «Go'zal» ashula va raqs ansamblining badiiy rahbari va bosh dirijori vazifasida ishlaydi.

A. Muhamedov kompozitor sifatida shakllanishida o'zbek xalq musiqasi va uning namoyandalari, o'zi ishlagan o'zbek xalq cholg'u orkestrlari, rus, ovro'po klassik kompozitorlari hamda o'zbek kompozitorlaridan M. Burhonov, M. Leviev, D. Zokirov, S. YUdakovlarning ijodi katta rol o'ynadi. Ularning ta'siri ostida shakllangan bo'lsada, lekin A. Muhammedov izlanib, noyob musiqa asarlari yaratishga harakat qiladi va o'z uslubini topadi.

A. Muhamedov ijodiy faoliyatining ilk davridan boshlab, zamon ruhiga mos qo'shiqlar yaratishga e'tiborini qaratdi. Uning ijodida qo'shiq janri etakchi o'rin egallaydi. U qo'shiqlarini asosan zamondosh o'zbek shoirlari P. Mo'min, Z. Obidov, Kamtar, Mirtemir, A. Bobojonov, Z. Diyor, T. To'la, YA. Qurbon, E. Oxunova, Mirmuhsin, N. Orifjonov, A. Nurmuhamedovlar bilan hamkorlikda yaratdi. Ular o'z zamondoshlarining mehnat jasoratlarini, vatanga bo'lgan mehr - muhabbat, tinchlik uchun kurashni, yoshlarning sevgi his - tuyg'ularini ifodaladilar. YAKkaxon va xor ijrosida aytiladigan ko'plab qo'shiqlar orasida «Jon qizlar», «Etti qiz», «SHohi so'zana», «Kuylayman»,

«Toshkent ovozi», «CHilonzor chiroyli», «Seni eslayman», «Bir oqshom bo'ydoqman», «Qirg'iz qiziga», «Bir nazzora» lirik va lirik - vatanparvar qo'shiqlari bilan birga xor uchun «Go'zal Farg'ona», «Tinchlik bayroqdori», «Dildor qiz», «Jon O'zbekiston», «YAshna, hur Vatan», «Do'stlik qo'shig'i», «Sportchilar qo'shig'i» kabi ommaviy qo'shiqlar ijrochilar repertuaridan keng o'rin olib, mashhur bo'lib ketgan edi.

A. Muhamedov bolalar uchun ham jozibali, original qo'shiqlar yaratdi. O'zbekiston radiosining bolalar uchun eshittirishlari yillar davomida uning «YUlduzcha» qo'shig'i bilan boshlanib keldi. Bolalar hayotiga singib ketgan «Archa qo'shig'i» siz yangi yil bayrami o'tmagan bo'lsa kerak. YOki kompozitorning «Salimjon nimjon», «Qo'g'irchog'im, alla», «Kapalak», «Alla», «Alla qo'zichog'im», «Tantiq qiz», «Saboq ol» kabi qo'shiqlari jajji ijrochi va tinglovchilar qalbidan joy olgan.

Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida A. Muhammedov qozoq dramaturglari K. SHang'itboev va K. Boyseitovlar bilan hamkorlikda P. Mo'min asariga «Jon qizlar» (1963 y.), tojik dramaturgi S. Ulug'zodaning «Gavhari shamchiroq» (1967 y.) va P. Mo'min p'esasi asosida «Olifant» (musiqasi N. Halilov bilan hamkorlida) musiqali komediyalarni yaratdi. Bu asarlarni tomoshabinlar qizg'in kutib olishgan. Ularning adabiy mazmuni zamon yoshlari hayotidan qiziqarli voqealar, to'qnashuvlar, orzu - umid va his - tuyg'ular musiqada yorqin ifodasini topa olgan. Bastakorning mazkur spektakllarga bastalagan kuylari yorqin ohangdorligi bilan ajralib turadi. Ayni paytda bu kompozitorning katta iste'dodidan darak bo'ldi.

Tayanch tushunchalar:

- 1.«YOshlik» simfonik poemasi – kompozitorning diplom ishi
- 2.«Jon qizlar», «Etti qiz», «SHohi so'zana», «Kuylayman», «Toshkent ovozi», «CHilonzor chiroyli», «Seni eslayman» - kompozitor yaratgan lirik qo'shiqlar.
- 3.«Archa qo'shig'i» - «Salimjon nimjon», «Qo'g'irchog'im, alla», «Kapalak», «Alla», «Alla qo'zichog'im» - kompozitorning bolalar uchun yaratgan qo'shiqlari.

Nazorat savollari:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillariga xarakteristika bering.
2. Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika bering.
3. Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika bering.
4. A. Muhamedov bolalar uchun yaratgan qo'shiqlariga xarakteristika bering.

Adabiyotlar:

1. Музыкально- энциклопедический словарь. Москва. 1990 г.
2. F.Karomatov. Voprosy muzykoznaniya (materialy simpoziuma) 1980 g.
3. A.Jabborov.T.Solomonova.Kompozitor i muzykovedy Uzbekistana.Toshkent.1975.
4. A. Jabborov. O'zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
5. YU.Rajabiy. I. Akbarov. O'zbek xalq musiqasi tarixi, (O'qituvchi). 1981 yil.
- 6.T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. O`zbek xalq muzikasi, VII tom. Toshkent 1960
2. O`zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

Ma`ruza №18

Kompozitor A. Otajonovning hayoti va ijodi. (1924-1997)

Reja:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari.
2. Kompozitorning vokal ijodi.
3. Kompozitorning fortepiano ijodi.
4. Kompozitorning opera ijodi.
5. Kompozitorning simfonik ijodi
6. Kompozitorning musiqali drama ijodi.

O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan artist, sozanda va kompozitor Abdusharip Otajonov 1924 yilning 1 yanvarida Xiva shahrida san'atkor oilasida dunyoga keldi. Uning bobosi va otasi «sozchi usta» nomi bilan tanilgan surnaychi edilar. Ular Abdusharipda tug`ma musiqa qobiliyat borligini sezib, musiqadan saboq bera boshladilar va u tez orada «mo`jizakor» g`ijjakchi surnaychi nomiga ega bo`ldi. 1932 yili boshlang`ich o`rta ta`lim maktabida, so`ngra yoshlar maktabida o`qidi, 1937 yili Xiva qishloq xo`jaligi texnikumiga o`qishga kirdi. Mazkur o`quv dargohida musiqa to`garaklariga ham qatnashdi. O`zining ijrochiligi bilan obro` e`tiborga ega bo`lgan 15 yoshli Abdusharip 1939 yili Xiva shahridagi viloyat kolxoz - sovxoz teatriga ishga taklif qilindi va shu paytdan uning mehnat faoliyati boshlandi.

1942 yili A. Otajonov harbiy xizmatga chaqirildi va Kalinin, 2 - Belorusiya frontlarida jang qildi. 1944 yili 23 iyun kuni og`ir yarador bo`lib, bir oyog`idan ajraldi. Gospitallarda davolangandan keyin 1945 yili armiya safidan ozod etilib, Vataniga qaytdi. 1945 - 1951 yillarda A. Otajonov Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatrida sozanda, musiqa bo`limi maslahatchisi bo`lib ishladi. YOshligidan ijrochilik ila musiqa bastalashga qiziqqan va mashq qila boshlagan Abdusharip zamonaviy Ovro`po nota tizimini ko`p ovozli musiqa qoidalarini o`rganish ehtiyoji bilan 1951 yili Hamza nomidagi Toshkent musiqa yurtining musiqa nazariyasi bo`limida K. Otaniyozov, M. YUsupov va S. Hayitboevlar bilan birgalikda o`qidi. El - yurt orasida obro` e`tiborga sazovor bo`lgan san'atkorlarga o`quv yurti direktori I. Hamroev katta sharoit yaratib bergan edi. 1955 yili o`qishni bitirib, A. Otajonov Xiva shahrida bolalar musiqa maktabini tashkil etdi. Unga rahbarlik qilish bilan bir vaqtda Xiva shahar madaniyat boshqarmasi teatri musiqa bo`limining emakdoshi vazifasida ishladi. 1959 - 1964 yillarda Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatri direktori va dirijori lavozimlarida ishladi, ayni paytda Toshkent davlat konservatoriyasida kompozitsiya bo`yicha sirtqi bo`limda professor B. I. Zeydman sinfida o`qidi. 1964 yili A. Otajonov chang va simfonik orkestr uchun kontsert bilan

konservatoriyani muvoffaqiyatli bitirdi. Oliy ma'lumotli mutaxassis Urganch musiqa bilim yurti direktori lavozimiga tayinlandi. 1967 - 1973 yillarda u Ogahiy nomidagi teatr direktori va dirijori, 1973 - 1980 yillarda musiqa bilim yurti direktori bo'lib ishladi. 1980 - 1986 yillarda teatrga qaytib, bosh dirijor vazifasida ishladi va nafaqaga chiqdi.

A. Otajonov ijodiy merosida rang - barang, turli mavzularda yozilgan qo'shiq, xor va orkestr uchun ko'p qismli musiqiy asarlar, musiqali drama va komediyalar muhim o'rin egallaydi. U o'z ijodining dastlabki davrida cholg'u musiqasiga nisbatan qo'shiqchilik ko'proq ahamiyat berdi. Zamondosh shoirlarning she'rlariga mehnatni va mehr - muhabbatni kuylovchi, odamlar hulqi va jamiyatda uchrab turadigan ayrim nuqsonlarni hazil ila tanqid ostiga oluvchi rang - barang, jozibali qo'shiqlar, lirik ashulalar, hajviy laparlar yaratdi. Jumladan, 1957 - 1964 yillarda quyidagi qo'shiqlar bunyodga keldi: «Mehnat zavqi» (M. Abdurahimov so'zi), «Rohati bir jon etishdim» (M. Rahmonov so'zi), «Gaz keldi, gaz» (E. Eshmonov so'zi), «Salom mardu mardonlarimga» va «CHO'pon yigit qo'shig'i» (A. Po'lat so'zlari), «Mash'al elim» (R. Bekniyoz so'zi) kabi mehnatni va Vatanni ardoqlaydigan qo'shiqlar yoki: «Kuylaydi tabiat» (H. SHaripov so'zi), «Keldi yorim qoshimga» (H. Saidov so'zi), «Kezarman» (K. Ahmadiy so'zi), «Intizormikkin», «Ayrilma mani», «Jonginam shartingni ayt» (R. Bekniyoz so'zlari), «Oshiq nolasi» (Dilafkor so'zi), «Kel, kel jonim» (SHuhrat so'zi) kabi lirik qo'shiqlar; «Biri binafsha, biri Ravshan» (Bobur so'zi) lirik yalla; ayniqsa «SHo'x oshpaz» (Porloq so'zi), «Pochtachiman, pochtachi» (K. Ahmadiy so'zi), «Uzuk taqсам bilagingga», «Boboyjonim», «Aravakash» va «O'zi bilsa, bilsin» (R. Bekniyoz so'zlari), «Har kishining bo'lsa ikki xotini» (Mahtumquli so'zi), «Kaminangiz komendant» (E. Rahim so'zi), «Suratchiman, suratchi» (Hurshid so'zi) kabi hazil, satirik laparsimon aytishuvlar o'z davrida xonandalar repertuarini boyitdi va hozirga qadar ayrimlari kontsert dasturlarida yangramoqda.

A. Otajonovning ijodiy merosida shoirlar bilan hamkorlikda mehnat, tinchlik, do'stlik, ishchi - dehkun yoshlar, Vatan kabi mavzularda yakkaxon, xor va orkestr uchun bastalagan ko'p qismli yirik asarlari ham oz emas. Ular yorqin ohangdorligi, joziba va rang - barangligi bilan ajralib turadi. Kompozitor qalamidan quyidagi asarlar bunyodga keldi: «SHodiyona» (Xurshid so'zi, 1968 y.) vokal - xoreografik syuita, «Ulug' kun» (Xushnud va O. Matchon so'zlari, 1967 y.), xor va orkestr uchun «Ofarin» va «Oq oltin» (D. Matchon so'zi, 1967 y.), vokal xoreografik syuita, «Xorazm» (E. Rahmon so'zi, 1968 y.), yakkaxon, xor va orkestr uchun poema, «Mahallada to'y» va «Sumalak oqshomi» (Xurshid so'zi, 1971 y.), vokal - xoreografik syuita, «Zamon an'anasi—nikoh tantanasi» (Xurshid so'zi, 1973 y.), vokal xoreografik syuita, «Oltin qo'llar» (Mirtemir so'zi, 1973 y.), vokal xoreografik syuita, Xorazm «YOr-yor»ini akapella xori uchun qayta ishlagan; «Avazim» Xorazm xalq qo'shig'i asosida cholg'u ansambl uchun p'esa, «Qudalar bahsi» (Nurmatov so'zi, 1974 y.), yakkaxon va xor uchun xoreografik kompozitsiya, «Aqlida dono qizlar» (E. Rahim so'zlari, 1982 y.), vokal - xoreografik syuita; aralash xor va orkestr uchun syuita, «Paxtakorman» (Xurshid so'zi, 1982 y.) yakkaxon va cholg'u ansambli uchun qo'shiq; «Xorazmda bayram» (H. Abdullaev so'zi, 1983 y.) vokal - xoreografik manzara va boshqalar.

A. Otajonov ijodiy faoliyatida musiqali drama va komediya janrlari muhim ahamiyatga ega. Dramaturglar bilan hamkorlikda Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatrida quyidagi asarlar sahna yuzini o'rdi: «Oq nilufar» (R. Tagor asari, Avinnikov, S. Oshpos va A. Bobojonovlar tarjima va instsenirovkalari, 1958 y.), «Oshiq G'arib va SHohsanam» (YU. YUusupov p'esasi, 1958 y.) musiqasi R. Olloberganov bilan hamkorlikda yozilgan. «Ma'rifat qurbonlari» (E. Rahim p'esasi, 1958 y.) musiqasi R. Olloberganov bilan hamkorlikda yozilgan, «Ishq bilan o'ynashma» (A. Hayrullaev va K. Ahmadiylar p'esasi, 1960 y.); «Kim aybdor» (I. Ahmedov va U. Ismoilovlar p'esasi, 1960 y.); «Sensiz yasholmayman» (R. Bekniyoz p'esasi, 1961 y.); «Tog' qizi» (R. Hamzatov p'esasi, 1963 y.); «Tosh teshar» (A. Jamol, 1964 y.) «Ikki o't o'rtasida» (R. Bekniyoz p'esasi, 1964 y.); «Xo'ja Nasriddin» (Azimzoda p'esasi, 1965 y.) «Maxtunquli» (Matrizayev p'esasi, 1966y.); «Mavloni Ogahiy» (YU. YUusupov p'esasi, 1968 y.); «Mehribonlar» (A. Jamol p'esasi, 1970 y.); «Tuzoq» (A. Jamol p'esasi, 1972 y.); «Ali masharaboz» (A. Bobojonov p'esasi, 1972 y.); «Qizlar isyon» (YU. YUusupov p'esasi, 1973 y.); «So'ngi pushaymon» (A. Jamol p'esasi, 1974 y.); «Toshlar tilga kirganda» (P. Telegenov p'esasi, tarjimon N. Komilov, 1976 y.); «Fotima kampirning lotereyasi» (O. Matchon p'esasi, 1977 y.); «Munozara davom etadi» (K. Mirzoev p'esasi, 1981 y.); «Orzu» (H. Rasul p'esasi, 1984 y.); «Javohir» (E. Samandarov p'esasi, 1984 y.) drama asarlarga ham musiqa bastalagan: «Bahor» M. Tamsahib p'esasi, 1961 y.); «Bo'ronli yillar» (O. Umarbekov p'esasi, 1963 y.); «SHohning boshi bormidi, yo....» (A. Muxtor p'esasi, 1985 y.). Kompozitorning musiqa merosida fortepiano, o'zbek xalq cholg'ulari va orkestr uchun turli asarlar mavjud.

Abdusharip Otajonov 1969 yili «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist» faxriy unvoni bilan taqdirlandi. U medallar, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasi faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.

Tayanch tushunchalar:

1. vokal-xoreografik syuita – xor va raqs ijrosi uchun mo'ljallangan musiqa asari.
2. «Mehnat zavqi», «Rohati bir jon etishdim», «Gaz keldi, gaz», «Salom mardu mardonlarimga» va «CHO'pon yigit qo'shig'i», «Mash'al elim» - kompozitorning 1957 - 1964 yillarda yaratgan qo'shiqlari.
- 3.«YOr - yor» - akapella xori uchun qayta ishlagan xorazm yor - yori.
- 4.«Oshiq G'arib va SHohsanam» - (YU. YUusupov p'esasi, 1958 y.) musiqasi R. Olloberganov bilan hamkorlikda yozilgan.

Nazorat savollari:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari haqida ma'lumot bering.
2. Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika bering.
3. Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika bering.
4. Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika bering.
5. Kompozitorning simfonik ijodiga xarakteristika bering.
6. Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika bering..

Adabiyotlar:

1. Музыкально - энциклопедический словарь. Москва. 1990 г.
2. F.Karomatov. Voprosy muzykoznaniya (materialy simpoziuma) 1980 g.
3. A.Jabborov.T.Solomonova.Kompozitorı i muzykovedı Uzbekistana.Toshkent.1975.
4. A. Jabborov. O`zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
5. YU.Rajabiy. I. Akbarov. O`zbek xalq musiqasi tarixi, (O`qituvchi). 1981 yil.
6. T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. O`zbek xalq muzikasi, VII tom. Toshkent 1960
2. O`zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

Ma`ruza № 19

Kompozitor M. YUsupovning hayoti va ijodi. (1925-1992)

Reja:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari.
2. Kompozitorning vokal ijodi
3. Kompozitorning fortepiano ijodi.
4. Kompozitorning opera va balet ijodi.
5. Kompozitorning simfoniya ijodi
6. Kompozitorning musiqali drama ijodi.

O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san'at arbobi, sozanda, xonanda, folklorshunos, kompozitor Matniyoz YUsupov XX asr o`zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. Uning ko`p dilrabo qo`shiqlari, musiqali dramalari, opera va baletlari, simfonik va vokal - simfonik, xalq cholg`ulari orkestri uchun yaratgan asarlari xalq nazariga tushdi. Ayniqsa, «Xorazm maqomlari», «O`zbek xalq musiqasi»ning ikki jildidan iborat nota yozuvi to`plamlari unga shuhrat keltirdi. Ajoyib, hushtabiati inson, iste`dod sohibi, san`atkor M. YUsupov el yurt hurmatiga sazovor bo`ldi.

YUsupov Matniyoz Abdulniyozovich o`z hayot yo`lini qisqacha, shunday ta`riflagan edi: «Men Xorazm viloyatining Urganch shahrida 1925 yilning 1 yanvarida tavallud topdim. Otam Abdulniyoz YUsupov san`atni jonliqlatish uchun, dutor va tanbur chertishni yaxshi qo`rar, honadonimizga san`atkorlar yig`ilishib, she`riy-musiqiy kechalar o`tkazishar edi. Bir kuni onam otamga «O`g`limiz dutorda tuzukkina kuylar chaladigan bo`lib qoldi», deb maqtandilar. Otamning iltimosiga ko`ra bir necha kuylarni bilganimcha chalib berdim. O`shanda endi 6 yoshga to`lgan edim. Ertasiga mashhur g`ijjakchi Sobir YOqubovnikkiga borib, «Mening o`g`limni shogird qilib olasiz», debdilar. 8 yoshimda o`rta ta`lim maktabiga o`qishga bordim. Bo`sh vaqtimda dutor va g`ijjakchilik bilan

shug`ullandim. Ustozim orqali Xorazmning mashhur san'atkorlari: Madrahim YOqubov, Hojixon Boltaev, Matpano ota Xudoyberganov, Matyoqub Xarratov, Qurji ota Avazmatov, Hudak ota (Hudoyberdi Qurbon o`g`li), Devon bobo (Otajon Abdullaev), Matyusuf Xarratov (CHokar), Jumaniyoz Hayitboev, Bolabaxshi Abdullaev, Qurbon ota Islomov, Xo`ja ota Otajonov, Ona bibiqori, Matyoqub ota Matjonov, Do`stjon aka Bobojonov va boshqalar bilan yaqindan tanishdim, ulardan juda ko`p narsalarni o`rgandim, ayrimlari bilan kelgusida birga ishladim. 1940 yili Urganch shahrida mashhur san'atkor H. Boltaev rahbarligida milliy ansambl tashkil topdi. Ustozlar yoniga meni ham ishga taklif qilishdi. 1943 yili Ukraina frontidagi janglarda bir oyog`imdan qattik yaralandim. Boku shahrida harbiy shifoxonada 8 oy ichida davolandim va urush nogironi bo`lib qoldim. Hojibekovning «Go`ro`g`li» operasini tinglab, tomosha qilib, uning ohangrabo musiqasiga mahliyo bo`ldim va kompozitor bo`lishni orzu qildim. 1944 yili ona diyorimga qaytib keldim. O`zim qadrdon milliy ansamblimda sozanda va xonanda sifatida ishlay boshladim. 1945 yilning iyul oyida viloyat musiqali drama teatriga ishga taklif qilishdi. Bir yil o`tgach teatrning musiqa rahbari qilib tayinlandim. Teatrda mashhur sozanda va hofiz Komiljon Otaniyozov bilan tanishdim va do`st bo`lib uzoq yillar birga ishladik. Teatrda ishlab yurgan kezlarim kuy va qo`shiqlar ham bastalashga intildim, maqom san'atini ustozlardan o`rgandim. Lekin ularni notaga yozishni bilmas edim. O`qish zaruriyat bo`lib qoldi. SHu sababli 1951 yili Komiljon Otaniyozov, Abdusharif Otajonov, Sulton Hayitboevlar bilan birgalikda Hamza nomidagi Toshkent davlat musiqa bilim yurtiga o`qishga kirdik. 1955 yili o`qishni muvoffaqiyatli tamomlab, o`sha yili Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga o`qishga kirdik. Bu oliy dargohda men professor B. Nadejdinda kompozitsiyadan, A. Kozlovskiyda cholg`ulashtirish bo`yicha saboq oldim. Toshkent meni professional kompozitor bo`lib etishishimda, shaxsiy hayotimda muhim rol o`ynadi.

M. YUsupov talabalik davridan boshlab turli shakl va janrlarda asarlar yaratdi. K. Otaniyozov va L. Stepanovlar bilan hamkorlikda «Oshiq G`arib va SHohsanam» (A. Bobojonov p`esasi) musiqali dramani yaratishdi va Muqimiy nomidagi musiqali teatrda bu spektakl sahna yuzini ko`rdi. Konservatoriyanı bitirish arafasida u A. Bobojonov va M. Muhamedovlarning librettosiga «Bo`z o`g`lon» operasining muqaddima va birinchi pardasini Navoiy nomidagi opera va balet teatrida sahnalashtirib, diplom ishi sifatida davlat imtihon komissiyasiga taqdim etdi. 1960 yili konservatoriyanı muvoffaqiyatli bitirdi. 1960 - 64 yillari M. YUsupov faqat ijod bilan shug`ullanib simfonik orkestr uchun «Poema», «Syuita», «Qahramonlik uvertyura»si, o`zbek xalq cholg`ulari orkestri uchun «Rapsodiya», «Syuita», torli kvartet uchun «Syuita», violonchel va fortepiano uchun «Sonata», fortepiano uchun p`esalar, uchta musiqali drama: «G`azal fojiasi» (A. Bobojonov p`esasi), «Uch pahlavon», «Qaydasan, hayot» (T. Sobirov pesalari), 1964 yilda esa Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri jamoasi kompozitorning H. G`ulom librettosi asosida yozilgan «Xorazm qo`shig`i» operasini sahnalashtirdi. Mazkur operani tomoshabinlar qizg`in kutib olishgan edi. 1967 yili bu opera Moskvaning Kreml saroyida ham namoyish qilingan.

M. YUsupov 1956 - 85 yillarda Urganch musiqa bilim yurti direktori, M. Qoriyoqubov nomidagi O`zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi «Lazgi» ansambli badiiy rahbari, O`zbekiston radiosi muharriri bo`lib ishladi. 1985 yildan to umrining oxirigacha A. Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti dotsenti lavozimida talabalarga

dars berdi.

M. YUusupov ijodida musiqali drama va qo`shiq janri ustuvor ahamiyat kasb etadi. U 1956 - 90 yillarda: «Dil ko`zgusi» (H. G`ulom p`esasi), «Respublika o`t ichida», «Tun va nohun» (YU. YUusupov pesalari), «Zuhraning jasorati» (H. Matrasulov p`esasi), «To`g`on» (O. Matchon p`esasi), «Muqaddas daryo» (H. Rasulov p`esasi), «Millioner o`g`li» (H. Islomov va J. Teshaboevlar p`esasi), «Tungi faryodlar» (M. Boboev p`esasi) kabi musiqali dramalarning premeralari Muqimiy nomli respublika davlat musiqali teatrida va ba`zilari Xorazm, Buxoro musiqali drama va komediya teatrlarida o`tdi. Namangan teatrida 1986 yil «Robiya bonu» (N. Odilov p`esasi) musiqali dramasi sahna yuzini ko`rdi. Musiqa jamoatchiligi 1974 yilda Samarqand opera va balet teatrida sahnalashtirilgan «Gulsanam» (U. Umarbekov librettosi) baletini, bolalar uchun yozgan «Aliqambar» (O. Matchon librettosi) va «CHavar qiz» (M. Muhamedov librettosi) operalarini qizg`in kutib oldi.

O`zbek qo`shiqchilik an`anasini davom ettirib, M. YUusupov yillar davomida turli mavzularda yuzdan ortik jozibali qo`shiqlar yaratdi. Ulardan ba`zilari: «O`lka» (H. Olimjon she`ri), «O`lkamizda yoz» (Mirtemir she`ri), «Guldasta» (A. Po`lat she`ri), «Orzu bahorim» va «Qo`shiq zavqi» (P. Mo`min she`rlari), «Xush kelibsiz» va «Sevgi sururi» (N. Narzullaev she`rlari), «Gulira`no derman» (E. Samandarov she`ri), «Mag`rur bo`lsak» (E. Oxunova she`ri), «To`y alyori» (Z. Obidov she`ri), «YOshligim — quyoshligim» (M. Karim she`ri) va boshqalar.

Kompozitorning qo`shiqlari «Guldasta» nota to`plamida 1985 yil chop etilgan, bir necha plastinkalarda ham yozilgan. Bulardan tashkari u «O`zbekiston kuylagay», «Marhabo, talantlar», «CHashma», «Qo`shiq aytgan etar murodga», «Debyut» kabi respublika televizion tanloviga Xorazm, Samarqand, Kashqadaryo, Jizzax va Qorakqalgyug`iston Respublikasi havaskorlarini tayyorlashda hamda ularning kontsert dasturlarini boyitishda faol qatnashdi. Kompozitor akapella xori uchun ham bir necha qo`shiqlar hamda yirik vokal - simfonik asarlar ham yaratgan. Uning «Beruniy bog`lari» (T. To`la so`zi) va «Tuyamo`yin taronalari» (E. Samandarov so`zi) vokal - simfonik syuitalari, «Tasanno ishchilar» (H. G`ulom so`zi) kantatasi xor, solist va orkestr uchun yozilgan asarlari olqishga sazovor bo`lgan. O`zbek xalq cholg`ulari orkestri uchun «Lirik vals», «Qahramon shovvozlar» syuitasi, nay va orkestr uchun «Fantaziya», chang va orkestr uchun «Kontsert - rapsodiya» va boshqa yakka cholg`ular uchun ham asarlar yaratdi. 100 ta o`zbek xalq kuyi va qo`shiqlarini fortepiano uchun moslashtirdi.

Kompozitor, folklorshunos - olim M. YUusupov ijodiy faoliyatida Xorazm xalq musiqa merosi namunalarini nota yozuviga olib, ularni «Xorazm qo`shiqlari» (1960 y. UP - 1962 yil, IX - tomlar 1959 yil «Xorazm maqomlari» nomlari bilan, akademik va bastakor YU. Rajabiy chop ettirgan «O`zbek xalq musiqasi» to`plamlari tarkibiga kiritdi. U 1980 - 87 yillarda «Xorazm maqomlari» nota yozuvini qayta qo`ri chiqib to`ldirib, Ilyos Akbarov tahriri ostida chop ettirdi va Respublika Davlat mukofotiga (1990 yil) sazovor bo`ldi.

O`zbekiston Bastakorlar uyushmasining 1962 yildan buyon a`zosi M. YUusupov sermahsul kompozitor, ijrochi hamda xalq musiqasining bilimdoni sifatida el - yurt hurmatiga sazovor bo`ldi. U 1969 yili «O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi» faxriy unvoni va medallar bilan taqdirlangan.

Tayanch tushunchalar:

- 1.«Bo`z o`g`lon» operasi - kompozitorning diplom ishi.
- 2.«Rapsodiya» - (yunon - rhapsodia) - xalq qo`shiq va raqslari mavzuidagi musiqa asari.
3. Syuita - (fr. Suite - izchillik) bir - biriga qarama – qarshi qismli tsiklik musiqa shakli.
4. uvertyura –(fr. Ouverture - ochilish , muqaddima) teatr tomoshalari oldidan ijro qilinuvchi va namoyish qilinmoqchiblayotgan tomosha kayfiyati va g`oyalari doirasiga olib kiruvchi orkestr p`essi.

Nazorat savollari:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari haqida ma'lumot bering.
2. Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika bering.
3. Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika bering.
4. Kompozitorning opera va balet ijodiga xarakteristika bering.
5. Kompozitorning simfoniya ijodiga xarakteristika bering.
6. Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika bering.

Adabiyotlar:

1. Музыкално - entsiklopedicheskiy slovar. Moskva. 1990 g.
2. F.Karomatov. Voprosy muzykoznaniya (materialy simpoziuma) 1980 g.
3. A.Jabborov.T.Solomonova.Kompozitor i muzykovedy Uzbekistana.Toshkent.1975.
4. A. Jabborov. O`zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
5. YU.Rajabiy. I. Akbarov. O`zbek xalq musiqasi tarixi, (O`qituvchi). 1981 yil.
6. T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. O`zbek xalq muzikasi, VII tom. Toshkent 1960
2. O`zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

Ma`ruza № 20

Kompozitor S. Haitboevning hayoti va ijodi. (1926-2000)

Reja:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari.
2. Kompozitorning vokal ijodi.
3. Kompozitorning opera va balet ijodi.
4. Kompozitor ning musiqali drama ijodi.

O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san'at arbobi, professor, kompozitor S. Hayitboev zamonaviy professional kompozitori safiga 60 - yillarning boshida kirib keldi.

Uning dilrabo qo'shiq va ashulalari, cholg'u kuylari, orkestr uchun yozgan asarlari, musiqali drama va komediyalari, simfonik va vokal - simfonik asarlari muhlislar qalbidan munosib o'rin olgan.

Sulton Hayitboev Xorazm viloyatining Yangiariq tumanida [1926 yilning 5 may kuni dehqon oilasida tavallud topdi. Ubolaligida ota - onasidan etim qolib, ammasinikkida tarbiyalandi. Qishloq maktabida etti yil o'qidi. YOshligidan musiqaga mehr qo'ydi, maktab va tuman musiqa to'garagiga qatnashib, g'ijjak va doira chalishni o'rgandi. Tug'ma iste'dod sohibi Sultonboy yosh bo'lishiga qaramay, Yangiariq tumanidagi «Kolxoz teatri» - da sozanda bo'lib, kattalar yonida ishladi. 1941 yili Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan teatr yopilib, dalada mehnat qildi, bo'sh vaqtlarida musiqa bilan shug'ullandi. 1945 - 49 yillari Toshkentda ichki qo'shinlar safida harbiy xizmatini bajo etdi. Sultonboy o'sha damlar haqida quyidagicha hikoya qilgan: «Harbiy havaskorlar ansambli» repertuar dasturida o'zbek xalq musiqasi bilan birga YU. Rajabiy, T. Jalilov, K. Jabborov, S. Kalonov, F. Sodiqov. N. Hasanov, M. Niyozov, P. Rahimov, T. Sodiqov, M. Leviev, S. YUdakov kabi kompozitorlarning qo'shiq va kuylari mavjud edi. Mazkur bastakorlarning ijodlari menga juda ham ta'sir qildi. Men ham shularga o'xshagan bastakor bo'lishni orzu qilar edim. CHunki o'zim ham kuylar bastalashga intilib, bir necha kuy va qo'shiqlarim ansambl ijrosida jarangladi. Ovropa nota yozuvini o'zlashtirishga harakat qila boshladim va mening ishimda burilish ro'y berdi. Musiqa san'atiga mehrim yanada oshdi, musiqachi bo'lishga qaror qildim».

Kompozitor bo'lish orzusi bilan S. Hayitboev 1949 - 50 o'quv yili Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtining g'ijjak sinfi va musiqa nazariyasi bo'limiga o'qishga kirdi. Musiqa nazariyasi va kompozitorlik mutaxassisligi bo'yicha S. Boboev va B. Gienkolardan saboq oldi. Bir yildan so'ng S. Hayitboevning maslahati bilan o'zbek xalqining sevimli san'atkorlari Komiljon Otaniyozov va Matniyoz YUsupovlar ham shu o'quv dargohiga keldilar. O'qish davrida bu uch og'ayni kontsertlar uyushtirib, xalqqa xizmat qildilar. 1952 yili O'zbekiston xalq artisti YU. Rajabiy radio qoshidagi O'zbek xalq cholg'u ansambliga S. Hayitboevni ishga taklif qildi. «Davriy taqozosi bilan, — deydi S. Hayitboev, — men talaba yigit bu ansamblida o'zbek musiqa san'ati namoyandalari bilan yonma - yon o'tirib, ulardan musiqa sirlarini o'rganishni, muloqotda bo'lishni xayolimga ham keltirmagan edim. K. Otaniyozov va YU. Rajabiy ansamblarida ishlashga muyassar bo'lganimdan baxtiyor edim. Ularning ansamblari Xorazm, Buxoro va Farg'ona, Toshkent an'anaviy musiqa yo'nalishlarini o'zlashtirishda men uchun katta maktab bo'ldi».

Bilim yurtini 1955 yili tugatgach, Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga o'qishga kirdi, professor B. B. Nadejdin sinfida tahsil ko'rdi va 1960 yili o'qishni bitirdi. SHu yili O'zbekiston maorif vazirligi qoshidagi pedagogika ilmiy tekshirish institutida musiqa va badiiy san'at bo'limi mudiri lavozimiga tayinlandi. 1962 yildan esa M. Qoriyoqubov nomidagi O'zbek davlat filarmoniyasining musiqa bo'limiga mudirlik qildi. Kompozitorlik mahoratini yanada oshirish maksadida u 1965 yili konservatoriyaning aspiranturasida O'zbekiston xalq artisti, professor A. Kozlovskiy rahbarligida tahsil ola boshladi va 1968 yili bitirdi. SHu yildan boshlab konservatoriya muallimlik qildi. 1975 yildan boshlab, to umrining ohirigacha A. Kodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutida cholg'ulashtirish va partitura o'qish kafedrasini boshqardi.

Bastakorning ijodida qo'shiq va musiqali drama janrlari ustun turadi. U ijodining 40 yildan ortiq davrida qo'shiqchilik san'atiga e'tiborini qaratdi. Zamondosh shoirlar bilan hamkorlikda, turli mavzularda juda ko'p qo'shiq, yalla va ashulalar yaratdi. SHunisi diqqatga sazovorki, kompozitor qo'shiqlarini mashhur xonandalar va ijrochi jamoalarning iltimoslariga ko'ra yaratib, ularning repertuarlarini boyitdi. Masalan, O'zbekiston xalq artistlari — Olmaxon Hayitova ijrosida «O'zbekiston gullari» (A. Bobojonov so'zi), «O'zbekiston so'zlagay» (N. Narzullaev so'zi), «Xayol» (E. Oxunova so'zi), «O'tmasmikan» (Nilufar so'zi), Kommuna Ismoilova ijrosida «Ey, sohib - dil» (T. To'la so'zi), «So'zim aytaman» (Xalq so'zi), «Istar» (Samandarov so'zi), Sultonposhsha Udaeva ijrosida «Xivam, mening do'stlarim» (E. Samandarov so'zi), Quvondiq Iskandarov ijrosida «Esingdami» (Mirtemir so'zi), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar: Hadya YUsupova ijrosida «O'rgilay yor, bo'yingdan» (A. Isroilov so'zi), «Oh, agar ko'rsam yana», (H. Boyqaro so'zi), «Ovozingni eshitganda» (T. Kahhor so'zi), M. Dadaboeva ijrosida «O'zbekistonim» (J. Jabborov so'zi), xonanda Ozoda YOrova ijrosida «Kechma muhabbatdan» (E. Samandarov so'zi), G'anijon Vahobov ijrosida «Qalam qoshga» (P. Mo'min so'zi) va boshqa xonandalar ijrosida kontsert dasturlarida, radio efir to'lqinlarida jaranglab kelmoqda. Bulardan tashqari, «Lazgi» vokal - xoreografik ansambli va o'zbek xalq cholg'ulari orkestrining ijro dasturida kompozitorning bir talay qo'shiqlari o'rin olgan.

1991 - 99 yillarda E. Samandarovning so'zlariga «Sog'inish», «Yulduz bilan», «Istar», «Umid g'unchasi», «Ketma, muhabbat», B. Boyqobilovning so'zlariga «Biz Temur avlodimiz», Ra'no Uzoqova so'ziga «Vafo qilmadi», Husayn Boyqaro g'azallariga «Armon bo'lmasin», «Ravshan aylagil», «Agar ko'rsam yana», «Jamolingdan ko'zim ravshan» kabi qo'shiq va kuylar yaratdi. Kompozitorning qo'shiqlari 1985 yilda G'. G'ulom nashriyotida «O'zbekiston so'zlagay» nomi bilan maxsus to'plamda va turli boshqa to'plamlarda chop etilgan.

1962 yili S. Hayitboev bastakor K. Jabborov bilan hamkorlikda «Nodira» (H. Razzoqov p'esasi) musiqali dramasini yaratdi. Bu asar Andijon musiqali teatrida sahna yuzini ko'rgandan boshlab kompozitorning ijodida katta burilish bo'ldi. U shu janrga mehr qo'ydi va yillar davomida 14 ta musiqali drama, ikkita musiqali komediya va uchta televizion spektaklga musiqa bastaladi. Uning sahna asarlari Muqimiy nomidagi musiqali teatrdan va viloyat teatrlarida sahna yuzini ko'rdi. Masalan, Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat teatri 1964 yili «So'nggi xon» (A. Bobojon va M. Muhamedovlar p'essasi) musiqali dramani, shu teatr jamoasi 1972 yili «Qudalar» (O'. Rashid p'essasi) musiqali komediyani, 1973 yili «Mauzerli qiz» (YU. YUsupov p'esasi), 1985 yili «Ahmad bilan Oqbilak» (T. Mirza p'esasi), Bobur nomidagi Andijon viloyat teatri 1969 yili «Saltanat shubhada» (SH. Sa'dullo p'esasi), 1971 yili Farg'ona viloyat teatri «YAylov tongi» (Tamqin p'esasi) va 1973 yili «Zavqiy» (K. Mahkamov p'esasi), Alisher Navoiy nomidagi Namangan viloyat teatri 1976 yili «Muhabbat yodgori» (M. Nazarov p'esasi) va 1979 yili «Farzand deb» (O'. Rashid p'esasi), M. Toshmuhamedov nomidagi Qashqadaryo viloyati teatri 1978 yili «CHorog'bonlar» (M. Nazarov p'esasi) musiqali dramalarini, YU. Rajabiy nomidagi Sirdaryo viloyat teatri 1990 yili «Ikki Oshiq bir bo'lsa» (T. Kahhor p'esasi) musiqali komediyani tomoshabinlarga havo-la qilgan edi. Muqimiy nomidagi musiqali teatr jamoasini esa 1966 yili «Bag'ritosh» (H. Umarov p'esasi), 1975 yili «Turkman qizi» (Tamkin p'esasi), 1994 yili «Har qimga vafo qilsa» (H. Muhammad

p'esasi), bastakor A. Ismoilov va kompozitor M. Otajonovlar hamkorligida yozilgan «Bashorat» (E. Samandarov p'esasi) musiqali dramalari 1995 yili sahna yuzini ko'rdi. 1967 yili «Uvaysiy» (T. Qosimova p'esalari), 1971 yili «Dilistonim mening», 1984 yili «Mashrab» (Alp Jamol p'esasi) telespektakllarga musiqa bastaladi.

Kompozitor S. Hayitboevning skripka va simfonik orkestr uchun kontsert, simfoniya, simfonik syuita, rubob va o'zbek xalq orkestri uchun «Kontsertli lirik p'esa», o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun uchta syuita, o'zbek xalq cholg'ulari va doira uchun «Doira raqs p'esasi», qashqar rubobi va fortepiano uchun «Ballada», fortepiano uchun p'esa, variatsiya, prelyudiya, fuga kabi asarlar musiqa maktablar o'quv dasturlariga kiritilgan. O'zbek mumtoz «Feruz 1 va 2» ni, «Aliqambar», «Tobon aylasa» va «Keldim» ashulalarini yakka xonanda va fortepiano uchun moslashtirgan. Bolalar uchun «Turnalar», «Orzu», «O'qi, bilim ol», «Kimning xati chiroyli», «Internatchilar qo'shig'i» kabi qo'shiqlari yakka ijrochi va bolalar xor jamoalarining repertuar dasturlaridan joy olgan. S. Hayitboev 1960 - 64 yillarda T. Husainov bilan hamkorlikda umumta'lim maktablarning 5 va 6- sinflari uchun «Musika» darsligini yaratdi va nashrdan chiqardi.

Sulton Hayitboev 1988 yili «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» faxriy unvoni, shuningdek, bir necha medallar bilan taqdirlangan.

Tayanch tushunchalar:

- 1.«O'zbekiston gullari», «O'zbekiston so'zlagay», «Hayol», «O'tmasmikan», «Ey,sohibi - dil», «So'zim aytaman», «Istar», «Xivam, mening do'stlarim» - kompozitor yaratgan lirik qo'shiqlar.
- 2.«So'nggi xon» kompozitor kuy bastalagan musiqali drama.
- 3.«Qudalar» kompozitor kuy bastalagan musiqali komediya.
4. «Mauzerli qiz»— kompozitor kuy bastalagan musiqali drama.
- 5.«Ahmad bilan Oqbilak» - kompozitor kuy bastalagan musiqali drama
- 6.«Saltanat shubhada» - kompozitor kuy bastalagan musiqali drama
- 7.«YAylov tongi» - kompozitor kuy bastalagan musiqali drama
- 8.«Zavqiy» - kompozitor kuy bastalagan musiqali drama

Nazorat savollari:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari haqida ma'lumot bering ..
2. Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika bering..
3. Kompozitorning opera va balet ijodiga xarakteristika bering..
4. Kompozitor ning musiqali drama ijodiga xarakteristika bering.

Adabiyotlar:

1. Музыкально - энциклопедический словарь. Москва. 1990 г.
2. F.Karomatov. Voprosy muzykoznaniya (materialy simpoziuma) 1980 g.
3. A.Jabborov.T.Solomonova.Kompozitorы i muzykovedы Uzbekistana.Toshkent.1975.
4. A. Jabborov. O'zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
5. YU.Rajabiy. I. Akbarov. O'zbek xalq musiqasi tarixi, (O'qituvchi). 1981 yil.

6. T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. O`zbek xalq muzikasi, VII tom. Toshkent 1960
2. O`zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

Ma`ruza № 21

Kompozitor Sayfi Jalilning (1932-2003) hayoti va ijodi

Reja:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari.
2. Sayfi Jalilning vokal ijodi.
3. Sayfi Jalilning fortepiano ijodi.
4. Kompozitorning opera va balet ijodi.
5. Kompozitorning simfoniya ijodi
6. Sayfi Jalilning musiqali drama ijodi.

O`zbekiston xalq artisti, Respublika Davlat mukofoti sovrindori, professor Sayfi Jalilov (taxallusi Sayfi Jalil) zamonaviy o`zbek musiqa madaniyatining rivojlanishiga salmoqli hissa qo`shgan. U lirik qo`shiq va romans, musiqali drama va komediya, opera, simfonik, vokal - simfonik va boshqa janrlarda yaratgan asarlari bilan el - yurt nazariga tushgan, xalq mehrini qozongan atoqli ijodkordir.

Bo`lajak kompozitor Samarqand shahrida 1932 yil 20 iyunda zardo`z Hoji Jalil Holmurodov oilasida tug`ildi. Bu oila 1935 yili Toshkentga qo`chib o`tadi.

Sayfi Jalil 1939 yildan umumta`lim maktabida o`qiydi. 7 - sinfni tugatib, Toshkent shahar matbaa - hunar maktabida o`qishini davom ettirib, ayni paytda respublika o`quvchilar saroyida tashkil topgan havaskorlik musiqa to`garagiga qatnashadi. Bu erda g`ijjakda, keyinchalik musiqa maktabida goboy chalishni o`rganadi. Bolalar simfonik orkestriga qatnashadi. Professional musiqa san`atini egallash maksadida Sayfi Jalil 1948 yilda Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtiga kiradi. Bu dargohda u bir yo`la ikki ixtisoslik bo`yicha, avval g`ijjak sinfida S. Gabrielyants va M. Asilovda, bir yildan so`ng kompozitorlik bo`yicha B. F. Gienkoda ta`lim oladi. YOsh S. Jalil 1949 yili M. Qoriyoqubov nomidagi o`zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi o`zbek xalq cholg`ulari orkestriga g`ijjakchi bo`lib ishga kiradi. Mazkur jamoada u ijrochilik bilan birga ijod qilib, o`zbek shoirlarining she`rlariga qo`shiq va ashulalar bastalay boshlaydi. Uning bahtiga shu orkestr kontsert dasturlarida Halima Nosirova, Saodat Qobulova, Kommuna Ismoilova, Klara Jalilovalar ham qatnashar edilar. Sayfiddinning lirik qo`shiqlarini ular mohirona ijro etishganda tomoshabinlar qizg`in kutib olishardi. Jumladan, «Ey yor, xush kelibsiz» (Hamza so`zi), «Kelmasa - kelmasun netay» (Zavqiy so`zi), «Senga bir gap aytaman» (P. Mo`min so`zi), «To`yga keldik, to`ylaringiz muborak» (U. Rashid so`zi), «Xonu vasling» (Atoyi so`zi), «Pari ro`yim» (Furqat so`zi) kabi qo`shiqlar Halima Nosirova ijrosida elga tanildi. Halimaxonim Hindiston, Pokiston, Xitoy, Albaniya va arab mamlakatlarida bo`lgan safarlari chog`ida o`rganib kelgan xalq qo`shiqlarini S.

Jalil qayta ishlab, orkestr uchun partiturasini tayyorlab berar edi. Yillar davomida S. Jalil an'anaviy uslubda, mumtoz va zamondosh shoirlar she'rlariga ko'plab qo'shiq va romanslar yaratdi. Masalan, uning «Kechalar yulduz sanab», «Vatanimga qo'shiqlar aytay» (Z. Obidov so'zi), «Ko'zim tushdi o'sha ohuga» (M. Karimov so'zi), «Noz etma» (CHustiy so'zi), «Kuyida», «O'zingsan» (YA. Kurbon so'zi), «Benavo qilding meni» (Atoyi so'zi), «Tosh qizlari» (To'lqin she'ri), «Bog' ko'chada» (G'. G'ulom so'zi), «Oydin kechalar» (Uyg'un so'zi), «Birinchi va'da», «Qor yog'ar» (T. To'la she'ri), «Otash qalblar» (e. Vohidov so'zi) zamonaviy qo'shiqchilik san'atimizni boyitdi.

1952 yili Sayfi Jalil musiqa bilim yurtini o'zbek xalq cholg'ulari va 1953 yilda kompozitsiya bo'yicha bitirib, qadrdon orkestrida g'ijjakchi-kontsertmeyster, keyinchalik dirijor bo'lib ishladi. Bastakorlik professional mahorati etarli emasligini sezib, 1959 yili Toshkent davlat konservatoriyasi kompozitorlik fakultetida o'qishga kiradi. U dastlab B. Nadejdin sinfida, so'ngra B. F. Gienkoda kompozitsiya, A. F. Kozlovskiydan cholg'ulashtirish bo'yicha ta'lim oladi.

Sayfi Jalil konservatoriyani 1967 yilda simfonik uvertyura diplom ishi bilan tugatgach, turli janr va mavzularda milliy asosdagi asarlar yarata boshladi. U qo'shiq qatorida musiqali drama, komediya, opera, kino musiqasi va boshqa murakab shakl va janrlarda asarlar yaratdi. Uning 1967 yilda «Toshkent manzaralari» 5 qismli dasturli simfonik syuitasi mazmundorligi, jozibadorligi va milliyliги bilan tinglovchining qalbini o'ziga tortdi, bunday ijodiy yutuqlar boshqa simfonik asarlarida ham sezilarlidir. Lirik tuyg'ularga boy skripka va simfonik orkestr uchun kontserti (1971 y.) violonchel va simfonik orkestr uchun kontserti (1975 y.), «Samarqandnoma» nomli birinchi simfoniyasi (1977 y.) to'rt qismli ikkinchi simfoniyasi va kamer simfoniyalari unga katta shuhrat keltirdi. S. Jalilning skripka uchun «G'azal» kuyi, skripka va fortepiano uchun «Eksprompt» p'esasi, kamer orkestri uchun to'rt qismli syuitasi, ikkita uch qismli torli kvarteti, skripka va violonchelchilar unison ansambli uchun «Lirik vals»i, yakkaxon va simfonik orkestr uchun «Majnun monologi», simfonik orkestr uchun «Xoreografik syuita»si, «Muhabbat sinovi» (K. Fridland librettosi) xoreografiya freskasi (1987 y.) M. Turg'unboeva nomidagi «Bahor» raqs ansambli uchun raqs kuylari, G'. Toshmatov nomidagi «Dutorchi qizlar» ansambli uchun qo'shiqlar yaratdi, o'zbek kompozitorlari orasida birinchilardan bo'lib, organ uchun bir nechta p'esalari e'tiborga sazovor. Forte-piano uchun Amir Temurning 660 yilligiga atab sakkiz qismli «Temur darvozasi», «Yulduzli osmon», «Qo'shiq», «Oy shu'lası», «Samo»larning shiddatli avji, eng yuqori nuqtasi, ettinchisi «Fikr» va oxirgisi «Tokkata» nomli miniatura (1996 y.) bastaladi. Jo'rsiz xor uchun «Taronalar», «Kontsert», B. Boyqobilov she'riga «To'rt sonet» nomli qo'shiqlar turkumi va qo'g'irchoq teatrida sahnalashtirilgan «Farhod va SHirin» (I. YOqubov instsenirovkasi), «SHirmon buloq» (M. Nurmumammad p'esasi) va «Kachal polvon» (SH. Sa'dulla p'esasi) musiqasining muallifidir.

1967 yili M. Karim bilan hamkorlikda «Qalam qoshligim» ilk musiqali dramasi yaratganidan so'ng o'sha yili «To'lin oy» (G'. Jahongirov va J. Isomiddinovlar p'esasi) paydo bo'ldi. Alisher Navoiy yubileyiga atab YUnus Rajabiy bilan hamkorlikda «Alisher Navoiy Astrobodda» (I. Muhamedov p'esasi) nomli musiqali dramasi sahna yuzini qo'rdi. 1971 yili esa «Laqma» (Uyg'un p'esasi) nomli musiqali komediyasi tomoshabinlarga taqdim etildi. 1973 yili Farg'ona teatrida «Anvar va Ra'no» (YO. Mirzo p'esasi) musiqali

dramasi sahnaga qo'yildi. 1974 yili Andijon teatrida «Tong qizi» (R. Safarov va S. Ismoilovlar p'esasi) musiqali dramasi sahnalashtirildi. «YUlduz jamoli» (S. Azimov p'esasi) musiqali dramasi (1984), «SHayton muridlari» (O. YUsupov p'esasi) musiqali komediyasi; 1984 y. «Kampir ketarmish» (YA. Hudoykulov) musiqali komediyasi; 1988 - 1989 yil «Zaharli hayot» (p'esasi) musiqali dramasi 1986 yilda. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat katta akademik opera va balet teatrida «Zebuniso» (Uyg'un librettosi) operasi sahnalashtirildi. Mazkur teatrdagi S. Jalilning 1987 yili yaratgan «Muhabbatnoma» baleti va bolalar uchun 1991 yili yozilgan «Malikai ayyor» operasi tomoshabinlarga havola etilgan edi.

Xalq cholg'ulari orkestri uchun «SHodlik raqsi», tanbur va orkestr uchun «Qalbimda» kuyi, orkestr uchun «YUbley marshi», «Bayram marshi», «Binokorlar marshi», nay va orkestr uchun «Romans», syuitalar va o'zbek mumtoz kuylarini qayta ishlab orkestrga moslashtirgan.

Kompozitor S. Jalil kinofilm, telefilm va radiospektakllarga ham musiqa bastalagan. Masalan: SH. Rashidovning «Ikki dil dostoni» radiospektakliga va «Qora ko'zim» (T. Qosimova stsenariysi) «O, muhabbat» telepostanovkalariga, «Azizaxon» (rej. Muhamedov) nomli telefilmga, «Zulmatni tark etib» (rej. Y. A'zamov), «Ota vasiyati» (rej. Y. A'zamov), badiiy filmlari shular jumlasidandir.

Kompozitor 1967 yildan buyon Toshkent davlat konservatoriyasida muallimlikdan kafedra mudiri, professor lavozimlariga qadar bo'lg'usi yosh bastakorlarga ustozlik qildi.

S. Jalil «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» (1977 y.) va «O'zbekiston xalq artisti» faxriy unvoniga, 1979 yili Respublika Davlat mukofotiga, «El-yurt hurmati» ordeniga sazovor bo'lgan, faxriy yorliklar bilan takdirlangan.

Tayanch tushunchalar:

1. Orkestr – shu tarkib uchun maxsus mo'ljallangan asarlarni ijro qiluvchi musiqachi – cholg'uchilardan iborat jamoa.
2. Partitura – xor, orkestr yoki kamer ansambli uchun muljallangan ko'p ovozli musiqa asarining nota yozuvi.
3. Simfonik syuita – musiqa asari
4. «Eksprompt» - fr. badiha
5. Ansambl – fr. birgalikda

Nazorat savollari:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari haqida ma'lumot bering.
2. Sayfi Jalilning vokal ijodiga xarakteristika bering.
3. Sayfi Jalilning fortepiano ijodiga xarakteristika bering.
4. Kompozitorning opera va balet ijodiga xarakteristika bering.
5. Kompozitorning simfoniya ijodiga xarakteristika bering.
6. Sayfi Jalilning musiqali drama ijodiga xarakteristika bering.

Adabiyotlar:

1. Музыкально- энциклопедический словарь. Москва. 1990 г.

2. F.Karomatov. Voprosy muzykoznaniya (materialy simpoziuma) 1980 g.
3. A.Jabborov.T.Solomonova.Kompozitorı i muzykovely
Uzbekistana.Toshkent.1975.
4. A. Jabborov. O`zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
5. YU.Rajabiy. I. Akbarov. O`zbek xalq musiqasi tarixi, (O`qituvchi). 1981 yil.
6. T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. O`zbek xalq muzikasi, VII tom. Toshkent 1960
2. O`zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

«O`zbek bastakorlari ijodi» fanidan asosiy adabiyotlar:

- 1.Muzykalno- entsiklopedichesqiy slovar. Moskva. 1990 g.
- 2.F.Karomatov. Voprosy muzykoznaniya (materialy simpoziuma) 1980 g.
3. A.Jabborov.T.Solomonova.Kompozitorı i muzykovedy
Uzbekistana.Toshkent.1975.
4. A. Jabborov. O`zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
5. YU.Rajabiy. I. Akbarov. O`zbek xalq musiqasi tarixi, (O`qituvchi). 1981 yil.
6. T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. O`zbek xalq muzikasi, VII tom. Toshkent 1960
2. O`zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

Mundarija:

1. O`zbekiston bastakorlar uyushmasining ish faoliyati tarixi_____	2
2. M. CHokar _____	9
3. T. Jalilov_____	12
4. YU. Rajabiy_____	15
5. T. Sodikov_____	21
6. SH. Ramazonov_____	25
7. M. Ashrafiy_____	28
8. M. Leviev_____	31
9. D. Zokirov_____	35
10. M. Nasimov_____	39
11. F. Sodikov_____	42
12. M. Burhonov_____	45
13. S. YUdakov_____	50
14. S. Boboev_____	54
15. I. Akbarov_____	58
16. H. Izomov_____	61
17. A. Muhamedov_____	64
18. A. Otajonov_____	66
19. M. YUsupov_____	70
20.S. Haitboev_____	73
21. S. Jalil_____	77